



Yuldosheva Mashhura

Pragmalingvistik
terminlarning izohli lug'ati

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari
universiteti Namangan manzili

Yuldosheva Mashhura

***PRAGMALINGVISTIK
TERMINLARNING
IZOHLI LUG'ATI***

USLUBIY QO'LLANMA

Namangan - 2025

UO'K: 808.561(=111)

Ushbu “Pragmalingvistik terminlarning izohli lug‘ati” uslubiy qo‘llanmasi Pragmalingvistika sohasidagi asosiy tushuncha va terminlarning mazmun-mohiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Unda pragmatikaning nazariy asoslari, kommunikativ birliklarning ijtimoiy-pragmatik tahlili, nutq jarayonida ularning ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar bilan bog‘liqligi haqida ma‘lumot berilgan. Lug‘atda keltirilgan termin hamda izohlar tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarini o‘rganishda, muloqotning sotsiopragmatik jihatlarini tahlil qilishda amaliy yordam beradi hamda lug‘at oxirida mashhur pragmalingvist olimlarning qisqacha biografiyalari ham keltirilgan bo‘lib, bu bo‘lim sohaning rivojlanish bosqichlari hamda yetakchi vakillari haqida tasavvur beradi.

Taqrizchilar:

Usmonova H.Sh., filologiya fanlari doktor, professor

Niyazova N. A., pedagogika fanlari bo‘yicha f.d(PhD),
dotsent

Uslubiy qo‘llanma Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti Namangan manzili Kengashi yig‘ilishining 2025-yil 11-noyabrdagi 4-sonli bayoni bilan tasdiqlangan va chop etishga tavsiya etilgan.

SO‘ZBOSHI

So‘nggi yillarda o‘zbek tushunosligida tilning kommunikativ vazifalarini, nutqiy faoliyatning ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganishga qaratilgan izlanishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Tilning faqat grammatik va leksik tizimini emas, balki uni real muloqot jarayonida qo‘llash mexanizmlarini ham chuqur tahlil qiluvchi pragmalingvistika fani ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishiga aylandi. Jahon tilshunosligida shakllangan pragmatika va uning tarmoqlariga oid nazariy qarashlar o‘zbek tilshunosligida ham keng tatbiq qilinmoqda, natijada ilmiy muomalaga ko‘plab yangi tushunchalar va terminlar kirib kelmoqda.

Pragmalingvistik terminlarning izohli lug‘atini tuzish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, soha bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda atamalarning yagona, aniq va ilmiy asoslangan talqiniga ehtiyoj katta. Ikkinchidan, oliy ta‘lim muassasalarida pragmalingvistika, sotsiopragmalingvistika, lingvopragmatika, nutq madaniyati, lingvistik ekspertiza kabi fanlarning o‘qitilishi, shuningdek, ilmiy izlanishlar olib borayotgan magistrant va doktorantlar uchun izohli manba zarur. Uchinchidan, o‘zbek tilshunosligi amaliyotida ko‘plab terminlar tarjima, adaptatsiya yoki yangi yaratilish jarayonida turlicha qo‘llanilmoqda, bu esa yagona standartlarni belgilashni talab etadi.

Mazkur uslubiy qo‘llanma – lug‘atda aniqlangan xato yoki kamchiliklarni bartaraf etish, taklif va mulohazalarni bildirish uchun shu [@yuldoshevamashhura7377](https://t.me/yuldoshevamashhura7377) telegram profiliga murojaat qilishingiz mumkin. Sizning fikrlaringiz lug‘atimizni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

A

ABDUKTIV XULOSA – eng yaxshi tushuntirishga asoslangan xulosa chiqarishning bir turi bo‘lib, kishining biror hodisani tushuntirish uchun uning eng ehtimoliy sababini taxmin qilishidir. Masalan, agar siz oshxonangiz polida suvni ko‘rsangiz, kir yuvish mashinangiz buzilgan deb taxmin qilishingiz mumkin. Chunki sizningcha, kir yuvish mashinasining buzilishi poldagi suvning eng ehtimoliy tushuntirishi bo‘lib tuyuladi. Abduktiv xulosalar deduktiv xulosalarga qarama-qarshidir. Deduktiv xulosalarda, masalan, P dan kelib chiqib $P \rightarrow Q$ bo‘lsa, unda Q xulosasi ham haqiqat bo‘lishi shart. Ammo abduktiv xulosalar demonstrativ emas, ya'ni ular aniq isbotlanmagan va qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Masalan, polingizdagi suvning sababi aslida buzilgan quvur, muzlatgichning erishi yoki boshqa bir sabab bo‘lishi ham mumkin. Grays (H.P. Grays) ta’kidlaganidek, pragmatikaning markaziy masalalaridan biri aynan shunday noaniq xulosalar chiqarish bilan bog‘liq. So‘zlovchi qanday bayonot qiladi va tinglovchi uni qanday talqin qiladi? Tinglovchi bayonotning eng yaxshi izohini qidiradi, ya'ni so‘zlovchining asl niyatini tushunishga harakat qiladi.

ADGERENT KONNOTATSIYA – kontekstga bog‘liq holda yuzaga keladigan, so‘zning asosiy leksik ma’nosiga qo‘shimcha tarzda birikadigan emotsional, baholovchi yoki ekspressiv ma’nodir. Bunday konnotatsiya so‘zning dastlabki qo‘llanishidan farqli ravishda, keyingi qo‘llanilishida paydo bo‘ladi va nutqning umumiy kayfiyati, so‘zlovchining psixologik holati, afsus, pushaymon, iztirob, istehzo yoki boshqa emotsional holatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, badiiy matnda “yolg‘izlik” so‘zi birinchi marta neytral ma’noda ishlatilgan bo‘lsa, keyingi takroriy qo‘llanilishida u so‘zlovchining ichki iztirobini yoki ruhiy siqilishini ifodalaydi. Shu holat adgerent konnotatsiyani yuzaga keltiradi.

ADRESANT – nutqiy aktning amalga oshiruvchi shaxs bo‘lib, u til vositalari orqali ma’lumot yetkazadi, savol beradi, buyruq qiladi yoki fikr bildiradi. U kommunikativ jarayonning faol ishtirokchisi hisoblanadi. Tilshunoslikda adresantga so‘zlovchi, nutq subyekt, transmitter yoki kommunikator kabi atamalar ham nisbatan qo‘llaniladi. Masalan, Roman Yakobsonning kommunikatsiya modelida adresant xabarni yuboruvchi sifatida izohlangan.

Pragmatika doirasida esa adresantning illokutiv maqsadi – ya’ni u xabar orqali qanday kommunikativ harakatni amalga oshirishni niyat qilgani muhim ahamiyatga ega.

ADRESAT – adresant tomonidan yuborilgan xabarni qabul qiluvchi tomon bo’lib, bu shaxs tinglovchi yoki o’quvchi sifatida ishtirok etadi. U xabarni idrok etadi, mazmunini tushunadi va unga nisbatan javob shakllantiradi. Adresat atamasi ba’zida retsipient, perseptor, kommunikativ partner yoki nutq obyekti kabi nomlar bilan ham ifodalanadi. Pragmatik nuqtayi nazardan, adresant va adresat o’rtasidagi ijtimoiy maqom, muloqot konteksti, yaqinlik darajasi va umumiy fon bilimlar muloqot shakllarining tanlanishiga, nutqiy strategiyalar va yuzga tahdid soluvchi harakatlarning oldini olish usullariga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

AKKOMODATSIYA (accommodation, lot. accommodatio – “moslashtirish, moslashish”) – muloqot jarayonida yangi kontekstual axborotning umumiy ma’no tarkibiga integratsiyalashuvi orqali pragmatik talqinning dinamik ravishda moslashish jarayoni bo’lib, u tinglovchining ilgari mavjud bo’lmagan yoki noma’lum bo’lgan ma’lumotni qabul qilib, uni nutq interpretatsiyasi jarayoniga kiritishini anglatadi. Ushbu jarayon presuppozitsiyalarni qabul qilish, referensial moslashuv va xulosalar chiqarish orqali amalga oshiriladi, ya’ni agar so’zlovchi “Sizning rahbaringiz bugun ofisga kelmadimi?” deb so’rsa, tinglovchi oldindan “rahbar” tushunchasini o’z umumiy bilim doirasida mavjud bo’lmagan holda, nutq kontekstiga mos holda qabul qilishi va muloqotni davom ettirish uchun ushbu axborotni o’z bilimi tarkibiga kiritishi kerak. Pragmatik nuqtayi nazardan, akkomodatsiya semantik inkor qilinmaydigan axborotning diskursga joriy qilinishi va intersubyektiv muvofiqlikni ta’minlash vositasi sifatida qaraladi.

AKNOLEJMENT AKT – ijtimoiy-emosional munosabatlarni, ya’ni tabrik, minnatdorchilik, kechirim, ta’ziya kabi harakatlarni ifodalovchi nutqiy aktdir. Masalan: “Tabriklayman!”, “Kechirasiz.” Sinonimlari: emotsional akt, ijtimoiy akt, ritual akt.

AKTANT – gap yoki predikativ birlik tarkibida fe’l (predikat) bilan bevosita bog’liq bo’lgan sintaktik va semantik komponent bo’lib, harakatning ishtirokchilarini bildiradi. Ular odatda subyekt, obyekt yoki harakat yo’nalgan manba, adresat, vosita kabi semantik rollarda namoyon bo’ladi. Har bir aktant fe’lning valentligiga bog’liq

holda aniqlanadi: bir valentli fe'l bir aktantni (masalan, faqat subyektni), ikki valentli fe'l ikki aktantni (subyekt va obyekt), uch valentli fe'l esa uch aktantni (subyekt, obyekt, adresat yoki manzil) talab qiladi. Masalan, "Anvar kitobni do'stiga berdi" gapida Anvar – subyekt, kitobni – obyekt, do'stiga – adresat bo'lib, ularning barchasi aktant sanaladi. Aktantlar sintaktik jihatdan hol orqali, semantik jihatdan esa harakatga nisbatan roli orqali aniqlansa-da, ularning pragmatik jihat ham muhim ahamiyatga ega. Chunki aktantlar muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabat, kuch muvozanati, sotsial masofa, nutqiy strategiyalar va yuzga tahdid darajasini belgilashda faol ishtirok etadi. Ayniqsa, adresat bo'lgan aktant tanlangan ifoda shakli, muloyimlik darajasi yoki intonatsion ajratilishi orqali so'zlovchining niyati va kommunikativ maqsadini ochib beradi. Shu sababli, aktantlar faqat sintaktik birlik bo'lib qolmay, balki pragmatik faoliyatda, xususan sotsiopragmatika, nutq aktlari nazariyasi va diskurs tahlilida muhim tahlil obyektlaridan biri hisoblanadi.

ALLYUZIYA – aniq tilga olinmagan, lekin madaniy, diniy, tarixiy yoki adabiy kontekstda ma'lum bo'lgan shaxs, voqea yoki matnga ishora qilish orqali hosil bo'ladigan bilvosita ma'no. Masalan, "Uning Xizrdek paydo bo'lishini kutdim" jumlasida muallif bevosita yordamni emas, balki kutilmagan, ilohiyona yordamni nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Allyuziya madaniy kompetensiyani talab qiladi va matnning chuqur konnotativ qatlamini hosil qiladi.

ANAFORA – tilshunoslikda matn yoki nutq ichida ilgari tilga olingan birlikka qayta murojaat qilish vositasi bo'lib, odatda olmosh, sinonim yoki takroriy iboralar orqali ifodalanadi. Anafora muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi anglashuvni osonlashtiradi, takroriylikni kamaytiradi va matn yaxlitligini ta'minlaydi. Masalan, "Madina bozordan keldi. U juda charchagandi" jumlasida "u" so'zi ilgari aytilgan "Madina"ga ishora qiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan, anafora kontekstga asoslanib ishlaydi va so'zlovchi bilan tinglovchi orasida umumiy bilim mavjud bo'lishini talab qiladi. U noto'g'ri ishlatilsa, matnda pragmatik buzilish, ya'ni chalkashlik yuzaga kelishi mumkin.

ANIQLIK PRESUPPOZITSIYASI – turdagi presuppozitsiya til birliklarining real dunyodagi haqiqat bilan bevosita mos kelishini

anglatadi. U, asosan, semantik kategoriya asosida shakllanadi va shuni talab qiladiki, tinglovchi aytilgan fikrni aniq va to'g'ri anglasin. Bu presuppozitsiyada semantik birliklar osonlik bilan ajratib olinadi, va tarjimada ham so'zlovchi bilan tinglovchi ushbu birliklarni bir xil anglamog'i kerak bo'ladi. Masalan: "Akram menga kitob berdi." Bu yerda "kitob" mavjudligi, "Akram" ismli kishi borligi va "men" degan shaxsga berilgani aniq ko'rsatiladi va haqiqatga mos axborot ifodalanadi.

APPELLATIV FUNKSIYASI – tilning tinglovchiga murojaat qilish, uning e'tiborini jalb etish, savolga javob kutish yoki uni muloqotga faol qo'shishga yo'naltirilgan funksiyasidir. Bu funksiya odatda murojaat shakllari, xitoblar, ritorik savollar, so'zlovchi-tinglovchi o'rtasidagi bevosita aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi. Appellativlik reklama, siyosiy nutq va publitsistik matnlarda ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Sinonim atamalar sifatida kontakt o'rnatuvchi funksiya yoki interaktiv funksiya keltiriladi.

ARGUMENTATSIYA NAZARIYASI – muloqotda dalillar yordamida ishontirish jarayonini o'rganadigan soha bo'lib, mantiqiy dalillar va xatolar qanday ishlashini tahlil qiladi. Agar pragmatika til qanday qo'llanilishi bilan shug'ullansa, argumentatsiya nazariyasi tilning ishontirish vositasi sifatida ishlatilishini tadqiq qiladi. Masalan, agar kimdir "Chekish salomatlikka zararli, chunki barcha shifokorlar shunday deydi". desa, bu mantiqiy dalil bo'lishi mumkin. Lekin "Chekishni tashla, aks holda sen yaxshi inson emassan" desak, bu mantiqiy xatolik (ad hominem) hisoblanadi, chunki u insonni xatti-harakatiga emas, balki shaxsiy hujumga asoslangan. Argumentatsiya nazariyasi dalillar qanchalik ishontiruvchi ekanligini emas, balki ular ishontirishga arzigulik yoki yo'qligini tahlil qiladi.

ASSERTIV NUTQ AKTI – so'zlovchi tomonidan ma'lum bir fikr yoki faktni haqiqat sifatida ilgari surish uchun ishlatiladigan nutq akti bo'lib, u axborot taqdim etadi, lekin hech qanday harakat yoki talabni anglatmaydi. Assertiv aktlar axborotni yetkazish, tavsiflash, tasdiqlash yoki inkor etish kabi maqsadlarda qo'llanadi. Masalan, "O'zbekistonning poytaxti Toshkentdir", "Bugun havo issiq", yoki "Suv 100°C da qaynaydi" kabi gaplar assertiv nutq aktlari hisoblanadi, chunki ular mavjud fakt yoki ishonchni ifodalaydi. J.Sirl tasnifiga ko'ra, assertiv aktlar vakillik bildiruvchi nutq aktlari bo'lib,

ularning asosiy vazifasi mavjud ma'lumotni haqiqat sifatida taqdim etishdir.

ATTRIBUTIV TUSHUNCHA – so'zlovchi tomonidan boshqa birovga nisbat berilgan, lekin so'zlovchi o'zi tasdiqlamaydigan fikr yoki tushuncha bo'lib, interpretativ foydalanishning bir turi hisoblanadi. Masalan, "Uning fikricha, bu eng aqlli o'quvchi" gapida "eng aqlli o'quvchi" degan tushuncha so'zlovchining emas, balki boshqa shaxsning nuqtayi nazar sifatida berilgan.

AVTORITATIV AKT –so 'zlovchining ijtimoiy maqomiga yoki vakolatiga tayanib aytilgan ruxsat, maslahat yoki ogohlantirishlarni bildiruvchi nutqiy aktdir. Masalan: "Sizga maslahatim – ni qilishdan tiyiling." Sinonimlari: vakolatli akt, maslahat akti, ruxsat akti.

B

BAHOLASH HARAKATI – so'zlovchining nutq orqali hodisa, shaxs yoki xatti-harakatga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalovchi nutqiy aktdir. Bu harakatlar odatda ekspressiv nutq aktlari tarkibiga kiradi va til vositalari orqali, masalan, "ajoyib", "g'alati", "muvaffaqiyatli", "sharmandali" kabi baholovchi so'zlar bilan amalga oshiriladi. Baholash harakati orqali so'zlovchi nafaqat axborot yetkazadi, balki o'z hissiy munosabatini ham bildiradi. U kontekstga, tinglovchi bilan ijtimoiy munosabatga va madaniy normalarga bog'liq bo'lib, sotsiopragmatik jihatdan kommunikativ vaziyatda muhim funksiyani bajaradi. Masalan, "U juda zo'r notiq ekan" kabi ifoda orqali so'zlovchi yuqori baho beradi va shu yo'l bilan o'z ijtimoiy pozitsiyasini ham namoyon etadi.

BEHABITIV NUTQ AKTLARI – J.L.Ostin tasnifiga ko'ra, behabitiv nutq aktlari bu kechirim so'rash, salomlashish, tabriklash, tanqid qilish va la'natlash kabi nutq aktlari bo'lib, ular orqali so'zlovchi o'z hissiyotlari yoki munosabatlarini bildiradi va odatda tinglovchiga qaratilgan bo'ladi. Ostin fikriga ko'ra, behabitiv aktlar boshqa insonlarning xatti-harakatlari va ularning natijalariga bo'lgan munosabatni ifodalaydi. J.Sirl ularni "ekspressiv" nutq aktlari qatoriga kiritgan.

BILVOSITA IFODA – fikrni sodda va aniq tarzda ifodalash mumkin bo'lsa ham, nisbatan uzun yoki murakkab gap qurilishi orqali aytish usulidir. Bunday nutq shakli perifraz deb ham ataladi. Masalan, "U yerga borishga hojat qolmadi" deyish o'rniga, "U joyga

borish zarurati o'z kuchini yo'qotdi" deyish. Graysning suhbat nazariyasida miqdor maksimining buzilishi deb hisoblanadi, chunki bu aniqlik va qisqalik tamoyiliga zid keladi. Ba'zan bilvosita ifoda xushmuomalalik yoki e'tiroz bildirishdan qochish maqsadida qo'llanadi. Bu orqali so'zlovchi bevosita tanqid o'rniga kinoyali implikatura orqali fikr bildiradi.

BILVOSITA NUTQ – boshqa shaxsning aytgan gapini to'g'ridan to'g'ri iqtibos keltirmasdan, uning mazmunini qayta shakllantirib yetkazish usuli bo'lib, unda shaxs olmoshlari, fe'l zamonlari, deYksis (joy, vaqt), modal so'zlar va sintaktik tuzilma o'zgarishi mumkin. Bu jarayon grammatik, semantik va pragmatik jihatlarini qamrab oladi: grammatik jihatdan bilvosita nutqda zamonlar orqaga suriladi. Masalan, "Men bu yerda yashayman" → U o'sha joyda yashashini aytdi; semantik jihatdan esa gapning presuppozitsiyasi va konteksti moslashtiriladi, ya'ni ma'no sharoitga qarab talqin qilinadi; pragmatik jihatdan esa illokutsion kuch o'zgarishi mumkin, masalan, "Kel, kinoga boramiz!" → U kinoga borishni taklif qildi – nda buyruq yoki taklif xushmuomalalik strategiyasiga moslashadi. Bilvosita nutq deYksisning moslashuvini ham talab qiladi, masalan, "Bugun yaxshi ob-havo" → U o'sha kuni ob-havo yaxshi ekanligini aytdi, bu yerda "bugun" → "o'sha kuni" bo'lib o'zgardi. Bilvosita nutq nutq aktlari nazariyasi doirasida ham tushuntiriladi, chunki u faqat axborotni uzatish emas, balki so'zlovchining illokutsion niyatini ham o'zgartirishi mumkin. Shu sababli, bilvosita nutq pragmatikaning muhim qismi bo'lib, xushmuomalalik, neytrallik va axborot uzatish kabi kommunikativ funksiyalarga ega.

BILVOSITA NUTQ AKTI – so'zlovchining illokutsion niyatini bevosita ifoda etmaydigan, balki yashirin yoki mantiqiy xulosa chiqarish orqali tushuniladigan nutq shakli, ya'ni, so'zlovchi ma'lum bir maqsadni ko'zlab gapirsa ham, uning bayonoti to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita ifodalanadi. Masalan, "Siz menga sariyog'ni uzata olasizmi?" degan so'roq gap propozitsion jihatdan savol shaklida bo'lsa-da, aslida iltimos qilish maqsadini bildiradi. Ushbu misolda lokutsion akt savol shaklida bo'lsa-da, uning illokutsion akti (so'zlovchining maqsadi) so'rov yoki iltimos shaklida bo'ladi. Bilvosita nutq aktlari nutq jarayonida juda keng qo'llaniladi va ko'p hollarda xushmuomalalik strategiyasi bilan bog'liq bo'ladi, chunki ular so'zlovchining gapini yumshatish, tinglovchining yuziga (salbiy

yuz) tajovuz qilmaslik yoki ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Bilvosita nutq aktlarining talqini kontekstga bog'liq bo'lib, ular til va madaniyatda mavjud bo'lgan konvensiyalarga (qoidalar) asoslanadi. Masalan, "Siz menga chelakni uzata olasizmi?" kabi gap ba'zi kontekstlarda haqiqiy so'roq bo'lishi mumkin (masalan, chelak og'ir bo'lsa yoki tinglovchi uni uzatishga qodir emasligi taxmin qilinsa), shu sababli, gapning illokutsion kuchini aniqlash uchun kontekstga asoslangan inferensiya (mantiqiy xulosa chiqarish) talab etiladi. Ba'zi holatlarda bilvosita nutq aktlari madaniy va lingvistik bilimlar yordamida tushuniladi, chunki har bir til va madaniyatda bilvosita nutq aktlari o'ziga xos shakllarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida "Siz...?", "Siz qila olasizmi...?" yoki "Siz uchun bu mumkinmi?" kabi iboralar odatiy ravishda so'rov va iltimosni ifodalash uchun ishlatiladi, lekin "Siz bunga qodirmisiz?" yoki "Sizga bu mumkinmi?" kabi gaplar xushmuomalalik darajasi bo'yicha farqlanishi mumkin. Shunday qilib, bilvosita nutq aktlari ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, xushmuomalalikni ta'minlash va pragmatik moslashuvni amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Bilvosita nutq akti propozitsiya va illokutsion maqsad o'rtasidagi tafovutga asoslangan bo'lib, uning pragmatik talqini muloqot kontekstiga, suhbatdoshlarning til va madaniyat haqidagi bilimiga ham bog'liq.

BIRLAMCHI AKT – "Bu kitobni men ham o'qishni juda xohlar edim" jumlasida to'g'ridan-to'g'ri ifodalangan mazmun – so'zlovchining kitobni o'qishga bo'lgan istagi. Bu ma'no grammatik va semantik jihatdan aniq bo'lib, kontekstsiz ham tinglovchiga tushunarli. (Ikkilamchi aktga qarang)

Bu nazariyani J.L.Ostin 1962-yilda ishlab chiqqan va u nutq aktini uch turga ajratgan: Lokutsion akt – aytilgan gap va uning lug'aviy (yuzaki) ma'nosi. Masalan, "Derazani yop" degan jumla.//Illokutsion akt – so'zlovchining asl niyati, ya'ni gap orqali bajarilayotgan nutq funksiyasi. Yuqoridagi jumlada bu – yruq.//Perlokutsion akt – gapning tinglovchiga qilgan real ta'siri. Masalan, tinglovchi derazani haqiqatda yopadimi yoki yo'qmi – perlokutsion natijadir.

Bu tamoyil pragmatikada ishonchlilik va muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ishonchni saqlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, kimdir: "Tashqarida yomg'ir yog'ayaptimi?" deb so'rasa, va siz derazadan qarab "Ha, yog'ayapti" deb javob bersangiz, siz sifat

tamoyiliga amal qilgansiz. Ammo hech narsa ko'rmadan yoki tekshirmadan "Ha, yog'ayapti" deb javob bersangiz, bu tamoyil buziladi, chunki sizda bunga asos yo'q.

D

DEKLARATIV AKTLAR (lot. "declaration"- "ochiq aytish, e'lon qilish") – gap aytilishi bilanoq ijtimoiy yoki huquqiy haqiqatni o'zgartiradigan nutq aktlari bo'lib, ular vakolatli shaxslar tomonidan bajarilganda haqiqiy hisoblanadi (Searle, 1969). Uni ilmiy muomalaga birinchi bo'lib J.L.Ostin (1962) performativ nutq aktlari nazariyasi doirasida olib kirgan, keyinchalik esa Jon Sirl uni mustaqil kategoriya sifatida rivojlantirgan. Deklarativ aktlar faqat institutsional yoki rasmiy kontekstda ishlaganda natija beradi, ya'ni, sudya "Siz aybdor deb topildingiz" desa, bu shaxs huquqiy jihatdan aybdor deb hisoblanadi. Ushbu aktlar so'z orqali haqiqatni o'zgartirish xususiyatiga ega bo'lib, performativ aktlarning eng aniq namunalaridan biri hisoblanadi.

DEKLARATIVLAR – nutqiy aktlar orqali so'zlovchi muayyan rasmiy holatni e'lon qiladi yoki mavjud vaziyatni o'zgartiradi. Ular odatda institutsional vakolatga ega shaxs tomonidan ishlatiladi. Masalan: "Siz lavozimdan ozod etildingiz", "Bugungi yig'ilish yopiq deb e'lon qilinadi", "Siz endi diplom egasiz".

DEKODLASH – matn yoki gapda yashiringan yoki shifrlangan ma'noni anglash, yechish va talqin qilish jarayonidir. Bu jarayonda o'quvchi yoki tinglovchi so'zlarning yuzaki grammatik shakliga emas, balki ularning qanday vaziyatda, kim tomonidan, qanday niyat bilan aytilganiga e'tibor qaratadi. Dekodlash orqali so'zlovchining asl maqsadi, yashirin ishoralari va kontekstual ma'nolari ochiladi. Masalan, "Siz bugun erta kelibsiz" degan gap ohangiga qarab tanqid, maqtov yoki oddiy fakt bo'lishi mumkin. Demak, dekodlash faqat til tizimini emas, balki muloqotdagi ijtimoiy va pragmatik omillarni ham hisobga olgan holda ma'noni hosil qilishdir.

DESKRIPTIV BO'LMAGAN SO'ZLAR – obyekt yoki hodisa haqida to'g'ridan-to'g'ri tavsif bermaydigan, balki baholash, emotsional munosabat yoki ijtimoiy konnotatsiyani ifodalovchi so'zlar. Ular ko'pincha subyektiv mazmunga ega bo'lib, pragmatik ahamiyatga ega. Masalan, *ajoyib*, *noqulay*, *befoyda*, *zo'r* kabi so'zlar

obyektning fizik yoki obyektiv tavsifini bermasdan, soʻzlovchining unga boʻlgan munosabatini bildiradi.

DESKRIPTIV SOʻZLAR – obyekt, hodisa yoki jarayonning belgilari, xususiyatlari va tavsifini bevosita ifodalovchi leksik birliklar. Ular denotativ (bevosita) maʼnoga ega boʻlib, tinglovchiga obyekt haqida aniq tasavvur beradi. Masalan, *yashil*, *baland*, *dumaloq*, *tez* kabi soʻzlar predmet yoki hodisaning tavsifini bevosita bildiradi.

DEYKSIK MARKAZ – muloqot jarayonida barcha deyksis birliklari (masalan, *men*, *sen*, *bu yer*, *hozir*, *ertaga*) nisbatan aniqlanadigan nuqta boʻlib, u soʻzlovchining nutq vaqtida egallagan fazoviy, zamonaviy va shaxsiy pozitsiyasiga tayanadi. Deyksik markaz shaxsiy deyksis (1-, 2-, 3-shaxs), makon deyksisi (*bu yer*, *u yer*), vaqt deyksisi (*hozir*, *kecha*, *ertaga*), nutq yoki matn deyksisi (*yuqorida aytganimdek*, *quyida keltirilgan*), ijtimoiy deyksis (*hurmat ifodalovchi birliklar*) kabi koʻrsatkichlarning asosiy nuqtasi hisoblanadi. Masalan, “*Men hozir kelyapman*” gapida “*men*” va “*hozir*” birliklari aynan soʻzlovchining pozitsiyasiga nisbatan anglanadi. Deyksik markaz – pragmatik kontekstdagi referensial aniqlikni taʼminlab, muloqot ishtirokchilari orasida toʻgʻri anglashuvni yuzaga keltiradi. Shu sababli, u nutqni tushunishda muhim semantik-pragmatik omil hisoblanadi.

DEYKSIS (yun. “*deiknunai*” – “koʻrsatmoq” yoki “ishora qilmoq”) Karl Byuler (1934) tomonidan lingvistik tadqiqotlarga kiritilgan va keyinchalik Jon Layons, Stiven Levinson kabi olimlar tomonidan keng ilmiy ishlov berilgan. Bu soʻzlovchi yoki kontekstga bogʻliq holda maʼnosi oʻzgaruvchi til birliklarini ifodalovchi lingvistik tushuncha boʻlib, u referensial maʼnoni aniqlashda muhim rol oʻynaydi. Deyktik birliklarning semantik talqini faqat nutqiy vaziyat bilan belgilanadi, yaʼni soʻzlovchi shaxsi, vaqt, joylashuv va ijtimoiy kontekst maʼno tushunilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Deyksis pragmatikaning asosiy kategoriyalaridan biri boʻlib, u shaxsiy deyksis (*men*, *sen*, *biz*), fazoviy deyksis (*bu yerda*, *u yerda*), vaqt deyksisi (*bugun*, *ertaga*, *kecha*), nutq deyksisi (*oldingi boʻlim*, *keyingi gap*), va ijtimoiy deyksis (*siz/sen*, *janob/honim*) kabi turlarga boʻlinadi.

DEYKTIK MAKONNING UZOQ VA YAQINLIGI – soʻzlovchining nutq paytidagi joylashuvi nuqtayi nazaridan makoniy obyektlar yoki

hodisalarning proksimal (yaqin) yoki distal (uzoq) tarzda ifodalanishini bildiradi. Bu hodisa "bu yer", "shu joy", "u yer", "anavi tomon" kabi birliklar orqali ifodalanadi va nutqning kontekstiga qarab o'z ma'nosini oladi. Masalan, "bu yerda kut" iborasida so'zlovchiga yaqin joy anglatilsa, "u yerga bor" deganda undan uzoqroq makon ko'zda tutiladi. Pragmatik jihatdan bu birliklar so'zlovchining e'tiborini yo'naltirish, vaziyatni tushunarli qilish va nutqning joylashuviga aniqlik kiritishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kontekstga bog'liq holda ma'no kasb etadi.

DIKTIVLIK VA FORMALLIK – pragmatik jihatdan so'zlovchining aniq maqsadi (diktiv ma'no) va til tizimi orqali berilgan konvensional (formal) ma'no o'rtasidagi farqni ifodalaydi. Diktiv ma'no – so'zlovchining aniq aytayotgan xabari bo'lsa, formal ma'no – gapning grammatik va semantik jihatdan qanday tushunilishi. Agar diktiv va formal ma'no bir-biriga mos kelsa, masalan, "Bugun havo issiq" iborasida bo'lgani kabi, so'zlovchi aynan shu haqiqatni bildiradi. Ba'zan formal bo'lib, lekin diktiv bo'lmagan holatlar uchraydi, masalan, "U aqlli, lekin ba'zan sekin harakat qiladi" jumlasida "lekin" bog'lovchi sifatida ishlatilsa-da, yangi fakt qo'shmaydi. Diktiv bo'lib, formal bo'lmagan holatlarda esa yashirin ma'no (implikatura) hosil bo'ladi, masalan, "U xushxabarchi" degan gap aslida "ikkiyuzlamachi" degan yashirin ma'noda ishlatilishi mumkin. Shu sababli, diktivlik va formallik farqlari pragmatika, semantika va nutq strategiyalarini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu tushunchalar referensial aniqlik va kommunikativ samaradorlikni ta'minlaydi.

DIREKTIVLAR – tinglovchini harakatga undashga qaratilgan aktlar bo'lib, unda buyruq, maslahat, iltimos, savol, ogohlantirish kabi intonatsiyalar va ifoda shakllari mavjud bo'ladi. Masalan: "Ilmiy maqolani yuboring", "Yordam bera olasizmi?", "Kech qolmang".

DISKRIPTIV IFODA (lot. descriptio – "tasvirlash, bayon qilish") – so'zlovchining mavjud voqelik yoki holatni hech qanday talqin yoki izohsiz, qanday bo'lsa, shunday tasvirlashiga asoslangan nutq ifodasi. Pragmatik jihatdan, diskriptiv ifodalar obyektiv axborot yetkazish, real holatni aniq tasvirlash va nutqni voqelikka bog'lash uchun ishlatiladi. Masalan, "Bugun havo issiq" – diskriptiv ifoda, chunki u so'zlovchining subyektiv qarashlarisiz voqelikni aks

ettiradi, “Men eshitdimki, bugun havo juda issiq ekan” esa interpretativ ifoda bo‘lib, u boshqa manba yoki fikrga asoslangan.

DISKURS – uzviy bog‘langan nutq yoki matn bo‘lib, u lingvistik birliklar, kontekst, ijtimoiy omillar va kommunikativ strategiyalar orqali shakllanadi. Etimologik jihatdan, so‘z lotincha *discurrere* (“tarqalmoq, harakatlanmoq, fikr almashmoq”) fe‘lidan kelib chiqqan bo‘lib, keyinchalik fransuz tilidagi *discours* orqali ingliz tiliga o‘tgan va XVI-XVII asrlardan boshlab ishlatila boshlangan. Diskurs tilshunoslik, pragmatika va ijtimoiy fanlar doirasida o‘rganilib, muloqotning uzluksizligi, kontekstga bog‘liqligi va ma‘no hosil qilish jarayonini aks ettiradi. Tilshunoslikda Zellig Harris uni matn lingvistikasi va sintaktik strukturalar orqali tahlil qilish mumkinligini ta’kidlagan, Teun van Deyk esa semantik va pragmatik munosabatlar, Mishel Fuko ijtimoiy hokimiyat va bilimni shakllantirish jarayoni, Norman Ferklof esa kritik diskurs tahlili orqali uning ijtimoiy va siyosiy manipulyatsiyadagi rolini tushuntirgan. Pragmatik nuqtayi nazardan, diskurs kontekst, muloqot ishtirokchilarining intensionalligi va kommunikativ strategiyalar orqali ma‘no hosil qilish tizimi sifatida tushuniladi. Graysning hamkorlik tamoyili, relevans nazariyasi, presuppozitsiya va implikatural ma’nolar, deyksis, nutq aktlari va bilvosita muloqot usullari diskursning pragmatik tahlilida asosiy o‘rin tutadi. Diskursning asosiy xususiyatlari – kontekstga bog‘liqlik, ijtimoiy va pragmatik funksiyaga egalik, interaktivlik va koherent tuzilishga egalik. Diskurs nafaqat lingvistik birliklar tizimi, balki ma‘no shakllanishining pragmatik va ijtimoiy mexanizmi hamdir.

DISKURS DEYKSISI – nutq yoki matndagi boshqa qismlarga bo‘lgan ishoralarni anglatadi. U orqali so‘zlovchi o‘zining nutqida ilgari aytilgan (*anterior*) yoki keyin aytiladigan (*posterior*) ma’lumotlarga ishora qiladi. Masalan, “oldingi fikrimga qaytaman” yoki “quyidagicha tushunish mumkin” kabi iboralarda so‘zlovchi matn ichidagi boshqa segmentlarga murojaat qilgan bo‘ladi. Diskurs deyksisi ayniqsa yozma nutqda, leksik birliklar yordamida matnning yaxlitligi va mantiqiy bog‘liqligini ta’minlaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan, u tinglovchi yoki o‘quvchining e’tiborini boshqarish, ma’lumot oqimini tartibga solish va matndagi axborotlararo aloqalarni izchil holda ifodalash uchun xizmat qiladi. Diskurs deyksisi vositalari – “yana”, “demak”, “keyin”, “shunday qilib”,

“yuqorida aytilganidek” kabi birliklardir. Ular orqali soʻzlovchi nutqning ichki strukturasi boshqaradi va auditoriyani kerakli maʼlumotga yoʻnaltiradi.

DISKURS STRUKTURASI – muloqot jarayonida yuzaga keladigan nutq yoki matnning mazmuniy, mantiqiy va kommunikativ tashkil etilish tartibidir. U nutqning ichki tuzilishini belgilab, axborot qanday tartibda, qanday bogʻliqlikda va qanday pragmatik maqsadlar asosida berilishini ifodalaydi. Diskurs strukturasi muloqotning izchilligini, yaxlitligini va tushunarligini taʼminlovchi asosiy elementlardan biri boʻlib, u tema-remamunosabatlari, bogʻlovchilik, nutq aktlari ketma-ketligi, presuppozitsiya, implikatura, anafora, katafora kabi pragmatik va kontekstual vositalar orqali shakllanadi.

DISKURS TAHLILI – suhbat almashinuvlari va yozma matnlardan olingan maʼlumotlar toʻplanishi va chuqur tahlil qilinishidir. Maqsad – odamlarning soʻzlar orqali qanday harakatlar bajarayotganini tushuntirishdan iborat. Diskurs tahlili tilning ijtimoiy amaliyot yoki ijtimoiy amaliyotlar majmuasi sifatida ishlatilishini oʻrganadi. Diskurs tahlili tadqiqotchilari diskurs ishtirokchilarini oʻz nutqlari orqali reallikni shakllantiruvchi subyektlar sifatida koʻradilar va suhbatni jamiyatning ijtimoiy tuzilishini yaratish vositasi sifatida tushunadilar. Diskurs tahlilining nazariy asoslari ijtimoiy fanlar va falsafadan kelib chiqadi, ayniqsa 1940 – 1950-yillardagi Lyudvig Vitgenshteyn va Jon Ostin ishlarida aks etgan. Diskurs tahlili pragmatika bilan umumiy jihatlarga ega, chunki u ham tilning qanday ishlatilishiga qiziqadi. Ammo ushbu yoʻnalish, nomidan koʻrinib turibdiki, asosan diskursning tuzilishiga, ayniqsa tabiiy ravishda yuz beradigan matnlar va muloqotlarga, eʼtibor qaratadi va yakka holdagi izolyatsiyalangan yoki idealizatsiyalangan gaplarga emas. Diskurs tahlili ichida turli yondashuvlar mavjud. Masalan, Kritik diskurs tahlili ijtimoiy va siyosiy hokimiyat munosabatlarining tilda qanday aks etishini oʻrganadi. Boshqa tomondan, Suhbat tahlili (Conversation Analysis) esa, baʼzan diskurs tahliliga muqobil sifatida, baʼzan esa uning turi sifatida qaraladi, muloqotning eng nozik jihatlari, yaʼni soʻzlovchilarning navbat olish usullari, mavzularni qanday oʻzgartirishi va shu kabi jarayonlarni tahlil qiladi.

E

EFFEKTIV AKT –ijtimoiy muhitda rasmiy o'zgarishlar sodir qiluvchi, huquqiy kuchga ega bo'lgan nutqiy akt bo'lib, faqat vakolatli shaxs tomonidan bajariladi. Masalan: "Men sizlarni er-xotin deb e'lon qilaman." Sinonimlari: institutsional akt, deklarativ-performativ akt, huquqiy akt.

EKSPERIMENTAL PRAGMATIKA – pragmatik hodisalarni, jumladan, ma'no hosil qilish, implikaturalarning tushunilishi, bilvosita nutq aktlari va kontekstual anglashuv kabi jarayonlarni eksperimental tadqiqotlar orqali o'rganadigan lingvistik sohasi bo'lib, u psixolingvistika, kognitiv fanlar va formal semantika bilan chambarchas bog'liq. Ushbu soha pragmatik jarayonlarni aniq metodlar yordamida tekshiradi, masalan, ko'z harakati kuzatuv (eye-tracking), javob vaqti tajribalari, tanlov tadqiqotlari va miya faoliyatini kuzatuvchi MRT hamda EEG texnikalari. Eksperimental pragmatika implikatura, presuppozitsiyalarni tushunish, metafora va ironiyaning idrok etilishi, bolalar va kattalarning pragmatik qobiliyatlari hamda kontekst ta'sirida ma'no shakllanishi kabi masalalarni tadqiq qiladi. An'anaviy pragmatika nazariyalari ko'pincha mantiqiy va intuitiv taxminlarga asoslangan bo'lsa, eksperimental pragmatika real nutq jarayonlarini obyektiv o'lchash va tahlil qilish orqali ularni sinovdan o'tkazadi. Eksperimental pragmatika pragmatik nazariyalarni empirik jihatdan tekshirish imkonini beruvchi, til va muloqot jarayonlarini aniq o'lchash, tahlil qilish orqali lingvistik tadqiqotlarga ilmiy asoslanishni olib kiradigan muhim sohadir.

EKSPLIKATURA – relevansiya nazariyasida qo'llaniladigan tushuncha bo'lib, so'zlovchi tomonidan bevosita ifodalangan va kontekst asosida shakllanadigan semantik ma'noni anglatadi. U implikaturadan farqli ravishda yashirin yoki bilvosita ma'no emas, balki ochiq va to'g'ridan to'g'ri tushunarli bo'lgan bayonotdir. Pragmatik ahamiyati shundaki, eksplikatura nutqning aniq talqin qilinishini ta'minlab, muloqot jarayonida bilvosita ifodalardan farqlanadi va kontekst yordamida nutqning semantik kengayishini shakllantiradi. Bu, ayniqsa, so'zlovchi niyatini aniqroq tushunishda, pragmatik tafakkur hamda semantik talqinni mukammalroq anglashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "O'rtadagi tokchada" degan

gap “Qulupnay murabbosi o’rtadagi tokchada” degan to’liqroq talqin bilan eksplikatura hosil qiladi. Eksplikatura bilvosita ifodalardan farqli ravishda aniq kontekstual asosga ega bo’lib, muloqotda tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

EKSPOZITIVLAR – o’z fikrini bayon qilish, tushuntirish, aniqlik kiritish kabi nutqiy aktlar bo’lib, ular muloqotda noaniqlikni kamaytirish, o’z pozitsiyasini aniq ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: “Men shunchaki tushuntirmoqchiman”, “Siz noto’g’ri tushundingiz”, “Meningcha, bu holat boshqacharoq”.

EKZERSTIVLAR – so’zlovchining tinglovchiga ta’sir ko’rsatish, uni harakatga undash niyatini bildiruvchi nutqiy aktlardir. Bunday aktlar ko’pincha buyruq, maslahat, ogohlantirish shaklida ifodalanadi va muloqotda so’zlovchining kommunikasiyadagi ustun pozitsiyasini namoyon qiladi. Masalan: “Derazani yop”, “Bu yerga yaqinlashma”, “U bilan ehtiyot bo’l”.

EKZOTIZM PRAGMATIKASI – muayyan tilda yoki madaniyatda begona (yot) bo’lgan, o’zga madaniyatga oid til birliklarining (odatda so’zlar, atamalar yoki obrazlarning) nutqdagi qo’llanishini, ular orqali hosil bo’ladigan ma’no, ta’sir va kommunikativ funksiyalarni o’rganuvchi pragmatik yondashuvdir. Ekzotizmlar tilda ko’pincha ijtimoiy, madaniy yoki milliy o’zgalikni (begonalikni) bildiradi va bu ularning kommunikativ qiymatini belgilaydi. Ular badiiy matnda kolorit, etnik identifikatsiya, stilistik bo’yoq yoki ijtimoiy pozitsiya yaratish uchun qo’llaniladi. Shu sababli, egzotizmlar nafaqat leksik birlik sifatida, balki kommunikatsiyada o’zga madaniyatga ishora qiluvchi pragmatik marker sifatida ham xizmat qiladi.. Masalan, “samuray”, “tandoor”, “kimono”, “baba-yaga”... kabi so’zlar o’zbek nutqida egzotizm sifatida qabul qilinadi va ular ma’lum madaniy konnotatsiyalarni chaqiradi. Bu birliklarning qo’llanishi tinglovchi yoki o’quvchida anglashish, taajjub, hurmat, yoki begonalik hissini uyg’otadi, bu esa ularning pragmatik effektidir. Ekzotizm pragmatikasi, ayniqsa, badiiy adabiyot, publitsistika, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiyada dolzarb hisoblanadi. Chunki bu birliklar o’quvchiga faqat semantik ma’lumot emas, balki madaniy, emotsional va sotsiopragmatik signal ham yetkazadi. Shu nuqtayi nazardan, egzotizm pragmatikasi begona elementlar orqali hosil bo’ladigan ixtiyoriy interpretatsiya, stilistik funksionallik, yuzga

tahdid yoki hurmat ko'rsatish kabi kommunikativ hodisalarni o'rganadi.

ELLIPS – sintaktik, semantik va pragmatik jihatdan tushirib qoldirilgan til birliklarining kontekst orqali tiklanishi jarayonidir. Sintaktik ellips grammatik qoidalarga asoslangan bo'lib, tushirib qoldirilgan birlikni gap tuzilishidan kelib chiqib tiklash mumkin. Pragmatik ellips esa tinglovchi va so'zlovchining o'zaro tushunishiga bog'liq bo'lib, ma'no faqat kontekst orqali anglashiladi. Ellips muloqotni samarali qilishga yordam beradi, chunki ortiqcha so'zlarni tushirib qoldirish nutqning ixchamligi va tezkorligini oshiradi. Bu ayniqsa, kundalik suhbat, ommaviy nutq va yozma matnlarda samaradorlikni ta'minlash uchun muhimdir. Biroq, ellips har doim ham nutqni aniq tushunish uchun qulay bo'lavermaydi, chunki noaniqlik yoki turlicha talqinlar yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, pragmatik ellipsda so'zlovchining niyati va tinglovchining kutgan ma'lumoti o'zaro mos kelmasa, muloqot samaradorligi pasayishi mumkin. Ellips nutqning tejamliligi va kontekstga bog'liqlik darajasini oshiruvchi vosita sifatida pragmatika, sotsiopragmatika va matn lingvistikasi doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

EMOTIV FUNKSIYASI – tilning insonning hissiy holati, kayfiyati va ruhiy kechinmalarini ifodalashga xizmat qiluvchi funksiyasidir. Ushbu funksiya orqali so'zlovchi o'zining quvonch, g'azab, hayrat, nafrat yoki afsus kabi his-tuyg'ularini nutqda ifoda etadi. Emotivlik ko'pincha modal so'zlar, intonatsiya, so'z tartibi, interyeksiyalar va stilistik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Bu funksiya stilistika, pragmatika hamda kommunikativ lingvistika doirasida, ayniqsa, ekspressiv vositalar bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Sinonim terminlar sifatida ekspressiv funksiya yoki hissiy ifoda funksiyasi ishlatiladi.

EMOTSIONAL - EKSPRESSIV FUNKSIYA – til vositalarining so'zlovchining ichki hissiyotlari, kayfiyati, munosabati va shaxsiy kechinmalarini ifodalashdagi vazifasidir. Bu funksiya orqali so'zlovchi o'zining quvonch, g'azab, hayrat, taassuf, kinoya, istehzo yoki boshqa emotsional holatini ifoda etadi va tinglovchiga ruhiy ta'sir o'tkazishga intiladi. Tilning emotsional-ekspressiv funksiyasi ayniqsa badiiy nutqda, publitsistik uslubda va og'zaki muloqotda yaqqol namoyon bo'ladi. U leksik (baholovchi so'zlar, sinonimlar,

so'kinishlar), grammatik (urg'u, so'z tartibi), fonetik (intonatsiya, pauza) va stilistik vositalar (epitet, metafora, tashbeh) orqali amalga oshiriladi. Bu funksiya muloqotning nafaqat informativ, balki psixologik va sotsiopragmatik ta'sirchanligini ta'minlaydi.

EMOTSIONAL BAHOLASH – so'zlovchining voqea, shaxs yoki hodisaga bo'lgan hissiy munosabatini ifodalovchi bahodir. Bunday baholashda subyektivlik, shaxsiy kayfiyat, psixologik holat va madaniy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. Masalan: “U menga juda yoqimli taassurot qoldirdi”, “Bu gap yuragimni og'ritdi”, “Juda g'azablandim” kabi iboralar hissiy javobni ifodalaydi. Pragmatik jihatdan emotsional baholashlar perlokutiv aktlar bilan bog'liq bo'lib, ular tinglovchiga hissiy ta'sir ko'rsatish, uni ruhlantirish, ogohlantirish yoki xafa qilish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi. Emotsional baholash muloqotning norasmiy, og'zaki shakllarida, badiiy asarlarda va kundalik suhbatlarda keng qo'llaniladi. Shuningdek, bu baholashlar tilning ekspressiv va affektiv imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi, kommunikativ vosita sifatida muhim pragmatik yuklamaga ega bo'ladi.

EMOTSIONAL DEYKSIS – so'zlovchining nutq davomida ifodalagan hissiy holati, subyektiv munosabati yoki emotsional bahosini bildirish uchun ishlatiladigan til birliklari orqali yuzaga keladigan deyiktik hodisadir. U klassik makon, shaxs va zamon deyksislaridan farqli ravishda, so'zlovchining ichki kechinmalari va emotsional qiymatlarini muloqotga tatbiq etadi. Masalan, “ana u bechora bola” yoki “bu jirkanch odam” kabi ifodalarda so'zlovchi nafaqat kim yoki nima haqida gapirayotganini, balki unga qanday munosabatda ekanini ham bildiradi. Emotsional deyksis odatda ekspressiv so'zlar, baholovchi sifatlar yoki emotsional yuklangan grammatik vositalar orqali amalga oshadi. Pragmatik nuqtayi nazardan, bu turdagi deyksis tinglovchining e'tiborini boshqarish, uning hissiy javobini faollashtirish va kommunikativ strategiyani kuchaytirish kabi funktsiyalarni bajaradi. U kognitiv pragmatika va emotsional kommunikatsiya doirasida tadqiq qilinadi hamda konnotatsiya, ekspressivlik va pragmatik baho kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq.

ESTETIK FUNKSIYASI – tilning obrazlilik, tasviriylilik, badiiylilik orqali o'quvchi yoki tinglovchida estetik zavq uyg'otish, ta'sirchanlik va hissiy estetik qoniqish berishga qaratilgan funksiyasidir. Asosan

badiiy adabiyot, poeziya, teatr va badiiy nutqda bu funksiya yaqqol namoyon bo'ladi. Estetiklik metafora, epitet, tashbeh, ironiya, oksimoron va boshqa figurativ ifodalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu funksiya poetik ifoda va stilistik ekspressivlik bilan bog'liq bo'lib, Yakobson terminologiyasida poetik funksiya deb yuritiladi.

F

FON BILIM – muloqot ishtirokchilarining til birliklarini to'g'ri anglash va talqin qilish uchun zarur bo'lgan umumiy madaniy, ijtimoiy, tarixiy, psixologik va kontekstual bilimlar majmuasidir. Fon bilimlar orqali so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida bevosita aytilmagan, lekin tushunilishi lozim bo'lgan yashirin ma'no qatlamlari anglanadi. Ular nutqda presuppozitsiya, implikatura, kinoya, metafora kabi pragmatik hodisalarni talqin qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, "Qo'shni ayolning aytishicha, bu safar ham mehmon kutib olinmagan" degan jumlada mehmonning onasi ekanligi, avval ham e'tiborsizlik bo'lganini anglash uchun fon bilim zarur bo'ladi. Fon bilimlar tilshunoslikda kontekstning kengaytirilgan shakli sifatida qaralib, kognitiv va sotsiopragmatik tahlilning markaziy elementlaridan biri hisoblanadi. Bu bilimlar, shuningdek, pragmatik kompetensiya va madaniy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida tilni to'liq tushunish, samarali muloqot olib borishga xizmat qiladi.

FONOPRAGMATIKA – nutqdagi fonetik vositalarning (intonatsiya, urg'u, ohang, pauza, temp) kommunikativ vazifalarini o'rganadigan tilshunoslik sohasi bo'lib, tovushlarning nafaqat fizik, balki maqsadli va kontekstga bog'liq qo'llanilishini ham tahlil qiladi. Bu yo'nalish orqali so'zlovchining nutqidagi intonatsion vositalar orqali qanday niyatni (hayrat, tanbeh, kinoya, ogohlantirish) ifodalayotgani aniqlanadi. Masalan, "Siz keldingizmi?" degan gap past ohangda aytilsa – shubha yoki hayrat, keskin ohangda aytilsa – norozilikni bildiradi. Shunday qilib, fonopragmatika bir xil grammatik birliklar ohangga qarab qanday turli pragmatik ma'nolar kasb etishini tushuntiradi.

FORMAL PRAGMATIKA – tilning semantik va pragmatik jihatlarini rasmiy mantiq va matematik modellar asosida o'rganadigan yo'nalish bo'lib, u asosan kontekstga bog'liq bo'lgan ma'no hosil bo'lish jarayonlarini tahlil qiladi. Ushbu yondashuv

model-nazariy semantika bilan uzviy bog'liq bo'lib, deytik birliklar, presupozitsiya, implikaturalar kabi tushunchalarni rasmiy mantiqiy tamoyillar asosida tahlil qiladi. Formal pragmatika, shuningdek, diskursni tasvirlash nazariyasi va semantika-pragmatika interfeysi bilan bog'liq muammolarni ham o'rganib, til birliklarining qanday pragmatik cheklovlar asosida ishlashini izohlaydi.

FUNKSIONALIZM – til shakllari qisman yoki to'liq uning vazifasi tomonidan belgilanadi degan qarash funksionalizmning asosiy tamoyilidir, funksionalistlar tilning asosiy vazifasi aloqa deb hisoblaydilar. Ba'zan "pragmatika" ham aynan shu nuqtayi nazardan tilshunoslikni o'rganish sifatida ishlatiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, pragmatika va sintaksis bitta obyekt – tilni o'rganadi, lekin turli nuqtayi nazardan qaraydi. Shuningdek, til faqat muloqot uchun emas, balki boshqa ko'plab vazifalarni ham bajaradi, masalan, so'z o'yinlari, o'z-o'zi bilan gaplashish yoki ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan muloqot shakllari. Funksionalizm tilni aynan aloqa vositasi sifatida tushunib, muloqot tilning shakllanishiga ta'sir qiladi deb hisoblaydi.

G

GENDER – ijtimoiy yoki ijtimoiy-madaniy jinsga oidlik belgisi hisoblanib, u lingvistik kategoriya emas, ammo uning mazmuni til vositasida amalga oshiriladigan pragmatik maqsadlar, harakatlar va munosabatlarni tahlil qilish orqali ochilishi mumkin. Bunda so'z orqali suhbatdoshning jinsiga, madaniyatiga, ijtimoiy mavqeiga, psixologik xususiyatlariga oid pragmatik axborotlar aniqlanadi va bu nutq faoliyatining turli jihatlarini o'rganuvchi matn pragmatikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, gender pragmalingvistikada ham alohida o'rin tutadi. Chunki so'zlovchining jinsiy identifikatsiyasi, ijtimoiy roli, til birliklarini tanlashi va nutq strategiyasi muloqotning mazmuni, illokutiv kuchi, kommunikativ ustuvorlik va dominatsiyani belgilovchi muhim faktor hisoblanadi. Shunday qilib, gender pragmalingvistik tahlilda sotsiomadaniy va kommunikativ vosita sifatida talqin qilinadi.

GETEROGEN SISTEMA – tarkibiy jihatdan bir jinsli bo'lmagan, ya'ni har xil tabiati, shakli, funksiyasi yoki ijtimoiy-lingvistik xususiyatlariga ega bo'lgan elementlardan tashkil topgan murakkab tizimdir. Tilshunoslikda ushbu atama ko'pincha turli tildagi

elementlarning, dialektal qatlamlarning, stilistik registrarning, ijtimoiy dialektlar yoki idiolektlarning bir tilda yoki nutq muhitida qo‘shilib yashashini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, zamonaviy muloqot kontekstida bitta til tizimida adabiy til, jargon, argo, professionallar tili va regional shevalar birga mavjud bo‘lib, bu til tizimini geterogen holatga keltiradi. Bunday tizimlarda elementlar o‘zaro raqobatlashishi, o‘zgarishi yoki muvozanatga kelishi mumkin bo‘lib, bu holat til dinamikasini chuqur o‘rganish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

GIPERBOLA – orttirib ko‘rsatish orqali ifodalilikni oshiruvchi nutqiy figura bo‘lib, gaplovchi haqiqatni mubolag‘a qiladi, masalan, |“Men ochlikdan o‘layapman” deyish aslida “Juda ochman” degan ma‘noni anglatadi. Pragmatika nuqtayi nazaridan, giperbola ma‘no kengaytirish va implikatura yaratish vositasi bo‘lib, tinglovchilar uni haqiqiy emas, balki kuchaytirilgan ma‘no sifatida qabul qiladi. Graysning suhbat maksimalari bo‘yicha bu sifat maksimasining buzilishi sanaladi, lekin u muloqotni jonlantirish, e‘tibor jalb qilish va hissiy ta‘sir ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

H

HAMKORLIK TAMOYILI (ingl. Cooperative Principle) – Pol Grays tomonidan ilgari surilgan pragmatik nazariya bo‘lib, suhbat ishtirokchilari muloqot jarayonida samarali va tushunarli bo‘lishi uchun o‘z nutqini muayyan tamoyillarga asoslab qurishini tavsiflaydi. Bu tushuncha lotincha co- (“birga”) va operari (“ishlash”) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “birga ishlash” ma‘nosini anglatadi. Graysga ko‘ra, odamlar suhbat maksimalari (miqdor, sifatlilik, aloqadorlik va uslub) orqali o‘zaro hamkorlik qiladi, lekin ba’zida bu maksimalarni buzish orqali implikaturalar hosil qiladi. Bu printsip tanqid qilinsa ham u muloqotdagi yashirin ma‘nolar va tushunish jarayonlarini izohlashda muhim nazariya bo‘lib qolmoqda.

HURMATSIZLIK – tilshunoslikda ingliz olimi Jonatan Kalpeper tomonidan tizimli ilmiy tushuncha sifatida shakllantirilgan. U Braun va Levinsonning xushmuomalilik nazariyasini kengaytirib, yuzga tahdid qiluvchi, ammo uni yumshatmaydigan strategiyalarni alohida izohlagan hamda hurmatsizlikni mustaqil kommunikativ hodisa sifatida tasniflagan. Ilmiy jihatdan hurmatsizlik – muloqot

jarayonida soʻzlovchi tomonidan tinglovchining ijtimoiy “yuz”iga bevosita yoki bilvosita zarar yetkazishga qaratilgan, odatda salbiy emotsional taʼsir uygʻotuvchi strategiyalar yigʻindisidir. Bunday strategiyalar ijtimoiy munosabatlarda keskinlikni kuchaytiradi, shaxsiy yoki guruhiiy obroʻni pasaytiradi va muloqotning konstruktiv yoʻnalishini izdan chiqaradi (qarang: “Obroʻsizlantirish” muloqot strategiyasi).

I

IDENTIFIKATSIYA – shaxs yoki guruhning oʻzini boshqa shaxs, guruh yoki ijtimoiy tizim bilan bogʻlash, oʻzini shu guruh aʼzosi sifatida tan olish va tanitish jarayonidir. Pragmatik jihatdan qaralganda, identifikatsiya til orqali yuzaga chiqadi: odamlar oʻzlari haqida gapirganida yoki muloqotda oʻzlariga xos til shakllarini qoʻllaganida, ular oʻz identikligini namoyon qiladilar. Bu jarayon soʻzlovchining tanlangan soʻzlari, ohangi, murojaat shakllari, ijtimoiy roli va til uslubida aks etadi. Masalan, bir inson “biz muhandislar doim aniqlikka intilamiz” deb gapirsa, u bu yerda oʻzini muhandislar guruhiga identifikatsiya qilmoqda. Shu tariqa identifikatsiya muloqotda ijtimoiy oʻrinni belgilash, guruhga mansublikni koʻrsatish va oʻzini ijtimoiy kontekstda joylashtirish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Tilshunoslikda identifikatsiya shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy stereotiplar, guruhlararo farqlar va kommunikativ strategiyalarni tahlil qilishda muhim kategoriyalardan biridir.

IERARXIK MUNOSABAT – muloqot ishtirokchilari yoki til birliklari oʻrtasida darajali, yaʼni yuqori va past maqomli munosabatlar mavjud boʻlgan holatni anglatadi. Bunda bir tomon (masalan, rahbar, ustoz, katta yoshli shaxs) boshqasiga nisbatan ustun ijtimoiy pozitsiyada turadi. Shu sababli, soʻzlovchi nutq qurilishida rasmiy, hurmatli yoki ehtiyotkor uslubdagi ifodalarni tanlaydi. Bunday vaziyatda ijtimoiy masofa va muloqotdagi ehtiyotkorlikni saqlash asosiy pragmatik talab hisoblanadi. Masalan, “Agar ijozat bersangiz...” kabi iboralar yuqori maqomga ega tinglovchiga murojaat qilishda qoʻllanadi.

IJOBIY DISKURS TAHLILI – tilning ijtimoiy kontekstda qanday ijobiy maqsadlarga xizmat qilishini oʻrganuvchi pragmatik yondashuv boʻlib, u matn va nutq birliklari orqali insonlar oʻrtasida

birdamlik, qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va konstruktiv g'oyalarni targ'ib qilishga yo'naltirilgan ma'no ifodalanishini tahlil qiladi. Ushbu tahlil nutq aktlari, implikatura, presuppozitsiya kabi pragmatik vositalar yordamida kommunikatorning niyatini, ijtimoiy yaqinlik yaratish usullarini va ijtimoiy yaxshilikka qaratilgan strategiyalarni aniqlashga qaratiladi. Ijobiy diskurs tahlili til orqali kuchni ijobiy tarzda qo'llash holatlarini ko'rsatib, odatda tanqidiy diskurs tahlilining adolatsizlik va repressiyaga qaratilgan aspektlariga muvozanat hosil qiladi. Masalan, "Biz bu muammoga birga yechim topamiz" degan gapda ko'plikdagi birinchi shaxs (biz) yordamida muallif tinglovchi bilan o'zini teng qo'yadi, birdamlikni ifodalaydi va ijobiy harakatga undaydi – ijobiy diskursning konstruktiv maqsadini ifodalaydi.

IJOBIY YUZ – xushmuomalalik nazariyasidagi tushuncha bo'lib, unga ko'ra har bir inson o'zini qadrlangan, e'tirof etilgan, tushunilgan va qabul qilingan holda his qilishga ehtiyoj sezadi (Braun va Levinson, 1987). Masalan, biror ishda muvaffaqiyatga erishganimizda, do'stlarimiz bizning yutug'imizni e'tirof etishini va bizni maqtashlarini kutamiz. Ijobiy yuz o'ziga bo'lgan hurmat, obro' va ijtimoiy mavqe bilan bog'liq. Ba'zida bu yuzni do'stona hazillar yoki mehr bilan aytilgan kinoyali so'zlar orqali saqlab qolish mumkin. Bunda shunday ma'no yotadiki, ikki suhbatdosh o'zaro shu darajada yaqin bo'lishadiki, ular bir-biriga nisbatan qo'polroq gapirishlari mumkin va bu holatda hech kim buni haqorat deb qabul qilmaydi.

IJTIMOII YUZGA TAHDID MINIMALLASHTIRILGAN BEVOSITA STRATEGIYA – so'zlovchi xabarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalash bilan birga, tinglovchining ijtimoiy "yuz"ini (face) saqlashga qaratilgan yumshatuvchi vositalarni qo'shadigan muloqot strategiyasidir. Bunday yondashuv Brown va Levinson xushmuomalilik nazariyasidagi bevosita nutqning yumshatilgan ko'rinishiga mos keladi, chunki asosiy ma'no ochiq ifodalanadi, ammo u so'zlovchining tinglovchi bilan ijobiy munosabatini saqlab qolish yoki salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida turli lingvistik va pragmatik vositalar bilan "yumshatiladi." Ushbu strategiyada iltimos ma'nosini ifodalovchi birliklar ("Iltimos, derazani yopib qo'ying"), salomlashish va xayrlashish shakllari, taklif va minnatdorchilik ifodalovchi vositalar kabi elementlar qo'llanadi.

IJTIMOYIY YUZGA TAHDID MINIMALLASHTIRILMAGAN BEVOSITA STRATEGIYA – soʻzlovchi tinglovchiga yoki uchinchi shaxsga qaratilgan xabarni hech qanday yumshatish, bilvositalashtirish yoki ijtimoiy moslashtirishsiz, toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalash usulidir. Ushbu strategiya, Brown va Levinsonning xushmuomalilik nazariyasidagi “bald on record” deb ataluvchi turga mos keladi, ammo unda yuzga tahdid (face-threatening act) imkon qadar kamaytirilmaydi. Bunda soʻzlovchi tinglovchining ijtimoiy “yuz”ini – yaʼni obroʻsi, shaxsiy erkinligi yoki ijobiy imijini – hisobga olmaydi yoki bu omillarni muhim deb bilmaydi. Mazkur strategiya koʻpincha uchta asosiy holatda ishlatiladi: birinchidan, favqulodda vaziyatlarda tezkorlik va samaradorlik muhim boʻlganda (masalan, “Derazani yop!”), ikkinchidan, soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi ijtimoiy masofa juda kichik yoki kuch tengsizligi soʻzlovchi foydasiga boʻlganda (masalan, rahbarning bevosita buyruqlari), uchinchidan, ijtimoiy konvensiyalar va madaniy meʼyorlar bevosita ifodani odatiy hol deb qabul qilganda. Ilmiy nuqtayi nazardan, bunday strategiya kommunikativ iqtisod tamoyiliga ham mos keladi, chunki unda ortiqcha lingvistik vositalar ishlatilmaydi va maʼno bevosita yetkaziladi. Ammo sotsiopragmatik jihatdan u koʻproq ijtimoiy risklarni oʻz ichiga oladi, chunki tinglovchi tomonidan qoʻpollik, hurmatsizlik yoki tajovuzkorlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu sababli, bu strategiya ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashdan koʻra, koʻpincha kommunikativ samaradorlik va tezkorlikni taʼminlashga xizmat qiladi.

IKKILAMCHI AKT – “Bu kitobni men ham oʻqishni juda xohlar edim” jumlasini yashirin tarzda “Kitobni menga ham berib tursangiz” yoki “Menga ham oʻqishga imkon yarating” degan bilvosita iltimosni bildiradi. Bu maʼno ochiq aytilmagan, ammo kontekst va ijtimoiy muloqot tajribasi asosida tinglovchi uni tushunadi. Shu tariqa, birlamchi akt jumlaning yuzaki maʼnosini, ikkilamchi akt esa kontekst orqali ochiladigan pragmatik, yashirin maʼnosini ifodalaydi.

ILLOKUTIV FEʼLLAR – soʻzlovchining nutq orqali qanday illokutiv harakatni amalga oshirayotganini koʻrsatuvchi feʼllar boʻlib, ular orqali soʻzlovchi oʻz niyatini aniq ifodalaydi: masalan, iltimos qiladi, buyruq beradi, maslahat beradi, ogohlantiradi, tabriklaydi, vaʼda beradi yoki uzr soʻraydi. Ushbu feʼllar Jon Ostinning nutq

aktlari nazariyasida performativ fe'llar deb ham ataladi, chunki ularning o'zi orqali muayyan kommunikativ harakat bevosita bajariladi. Masalan: "Men sizdan uzr so'rayman", "Men sizga va'da beraman", "Men ogohlantiraman", "Men maslahat beraman" kabi gaplarda "uzr so'rayman", "va'da beraman", "ogohlantiraman", "maslahat beraman" – bularning barchasi illokutiv fe'llardir va ular aytilish jarayonidanoq so'zlovchining kommunikativ maqsadini amalga oshiradi. Illokutiv fe'llar odatda birinchi shaxs birlik shaklida (men...) ishlatiladi va aniq illokutiv kuchga ega bo'ladi. Ular yordamida muloqot ishtirokchilari o'zaro sotsial pozitsiyalarini bildiradilar, sotsiopragmatik munosabatni o'rnatadilar va yuzga tahdid darajasini nazorat qiladilar. Illokutiv fe'llar tilning funksional-pragmatik imkoniyatlarini ochib beradi hamda rasmiy-norasmiy nutq, huquqiy til, adabiy dialog va institutsional diskursda keng qo'llaniladi.

ILLOKUTIV HARAKAT – so'zlovchining til vositalari orqali ma'lum bir kommunikativ maqsadni amalga oshirishga qaratilgan nutqiy harakati bo'lib, u tinglovchiga bevosita yoki bilvosita tarzda ta'sir ko'rsatishni, uning e'tiborini jalb qilishni, xatti-harakatini boshqarishni yoki unga nisbatan munosabat bildirishni ko'zlaydi. Bu tushuncha Jon Ostinning nutq aktlari nazariyasida asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, "gap nimani anglatadi" emas, balki "gap nima qiladi" degan funksional yondashuvni ifodalaydi. Illokutiv harakatlar quyidagi turlarga bo'linadi: deklarativ (faktni bayon qilish), interrogativ (savol berish), direktiv (buyruq, iltimos, maslahat), ekspressiv (his-tuyg'u bildirish), komissiv (va'da berish, majburiyat olish) va boshqalar. Har bir illokutiv harakatda so'zlovchi o'zining ichki niyatini kontekstga mos til birliklari orqali ifodalaydi. Masalan, "Siz derazani yopib bera olasizmi?" degan savol shaklidagi gap, aslida muloyim tarzda berilgan iltimosdir. Bu yerda grammatik ko'rinishi so'roq gap bo'lsa-da, uning illokutiv kuchi – so'zlovchining derazani yopish bo'yicha istagini ifodalashga qaratilgan. Shuningdek, "Bugun siz ancha erta keldingiz", degan jumlada yuzaki informativ xabar berilgandek tuyulsa-da, ma'lum vaziyatda u tanbeh yoki kinoyaviy baho sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunday hollarda illokutiv harakatni to'g'ri talqin qilish uchun tinglovchining fon bilimlari, kontekstni tushunish qobiliyati va pragmatik sezgirligi zarur bo'ladi.

IMPLIKATURA – soʻzlovchi aytmagan, lekin tinglovchi kontekst va muloqot qoidalariga asoslanib xulosa qilishi mumkin boʻlgan maʼno. Bu tushuncha Pol Grays (1975) tomonidan ilgari surilgan boʻlib, uning nazariyasida Hamkorlik printsipli va suhbat maksimlari asosiy oʻrin tutadi. Implikatura ikki turga boʻlinadi: konversatsion va anʼanaviy. Konversatsion implikaturalar soʻzlovchining gapirish uslubi va kontekst asosida yuzaga chiqadi va ikkiga ajratiladi: umumiy implikatura (kontekstsiz ham tushunarli) va xususiy implikatura (faqat muayyan holatga bogʻliq boʻladi). Anʼanaviy implikaturalar esa ayrim soʻzlar (“lekin”, “hatto”, “shuning uchun”) orqali ifodalanadi. Implikaturalarning asosiy xususiyatlari hisoblash mumkinligi (tinglovchi xulosa chiqaradi), ajralmasligi (gap shakli oʻzgarsa ham maʼno saqlanadi), noaniqligi (bir nechta talqin boʻlishi mumkin), bekor qilinuvchanligi (soʻzlovchi uni rad etishi mumkin) va universalligi (har qanday tilda ishlaydi). Masalan, “Men juda bandman” degan gap “Men bora olmayman” degan maʼnoni anglatishi mumkin yoki “Men charchadim, lekin ishlashim kerak” deganda “lekin” bogʻlovchisi qarama-qarshi fikrni bildiradi. Implikatura har kuni muloqotda uchraydi va insonlar nutqida yashirin maʼnolarni tushunishga yordam beradi.

IMPLITSIT ASOS – soʻzlovchi tomonidan ochiq aytilmagan, lekin tinglovchi kontekst asosida anglab olishi kutilgan taxmin boʻlib, u gapdan chiqariladigan xulosani qoʻllab-quvvatlaydi. Bu tushuncha relevansiya nazariyasiga asoslanib, maʼno tushunish jarayonida kontekst va oldindan mavjud bilimlar qanday ishlashini tushuntiradi. Masalan, agar kimdir “Yomgʻir yogʻyapti”. desa va suhbatdoshi “Demak, bugun sayr qilmaymiz”. deb javob bersa, bu ikkinchi kishining “sayr qilish uchun ob-havo yaxshi boʻlishi kerak” degan implitsit asosga tayanib xulosa chiqarganini anglatadi. Bu yerda yomgʻir yogʻishi fakt boʻlsa, “yomgʻirda sayr qilinmaydi” degan oldindan mavjud bilim implitsit asos sifatida ishlaydi va “bugun sayr qilinmaydi” degan implitsit xulosaga olib keladi. Shunday qilib, implitsit asos pragmatik jihatdan nutqdan anglashilishi lozim boʻlgan kontekstual taxmin boʻlib, muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

IMPLITSIT MAʼNO – til birliklarida bevosita aytilmagan, lekin kontekst, fon bilim va muloqot vaziyatiga asoslangan holda anglashiladigan yashirin maʼno qatlamidir. Bunday maʼno gapning

yuzaki shaklida ko'rinmaydi, balki tinglovchi tomonidan bilvosita tarzda talqin qilinadi. Implantsit ma'no ko'pincha presuppozitsiya, implikatura, kinoya, metafora, pauza yoki intonatsiya kabi pragmatik vositalar orqali yuzaga chiqadi va so'zlovchining yuzga tahdid solmasdan, ehtiyotkorlik bilan fikr bildirish, baho berish yoki ijtimoiy masofani saqlash kabi kommunikativ maqsadlariga xizmat qiladi. Masalan, "Bu yer sal sovuqroq ekan" degan jumlada ochiq buyruq yo'q, lekin "isitgichni yoqing" yoki "derazani yoping" degan yashirin ma'no mavjud. Implantsit ma'noning to'g'ri talqin qilinishi uchun tinglovchida yetarli fon bilim va pragmatik kompetensiya bo'lishi zarur. Ushbu tushuncha pragmatika va sotsiopragmatika doirasida nutqiy munosabatlarning chuqur mazmunini ochishda muhim rol o'ynaydi.

IMPLIKATSIYANING BEKOR QILINISHI – so'zlovchining so'zlaridan kelib chiqadigan yashirin ma'noning rad etilishi yoki o'zgartirilishi mumkinligini ko'rsatadigan pragmatik xususiyatdir. Bu tushuncha suhbat implikaturalari qat'iy va o'zgarmas emasligini, balki kontekst va so'zlovchining niyatiga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi.

– Oybek, bugun to'yga boramizmi? – so'radi Komil.

Oybek uf tortib qo'ydi.

– Eh, kecha uxlamadim, juda charchaganman... Komil biroz o'ylanib, yelkasini qisdi:

– Xo'sh, demak, bormaymiz?

Oybek kulib qo'ydi: – Yo'q, yo'q, men shunchaki charchaganligimni aytdim. To'yga boramiz, albatta!

Bu misolda "Juda charchaganman" degan gap odatda "To'yga bormayman" degan yashirin ma'noni anglatishi mumkin. Lekin Oybek keyinchalik bu implikaturani rad etib, aslida baribir borishini aytadi. Shuning uchun, implikatsiyaning bekor qilinishi pragmatikaning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, muloqotda tushunmovchiliklarning oldini olishda va yashirin ma'nolarni aniqroq anglashda muhim rol o'ynaydi.

INFERENSIAL TA'SIR – relevans nazariyasi doirasida yangi axborotning qabul qiluvchining ongida mavjud bilimlar bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida hosil bo'ladigan mantiqiy xulosa chiqarish jarayoni bo'lib, u bilvosita anglash va pragmatik talqin mexanizmlariga asoslanadi. Ushbu ta'sir kontekst va oldindan

mavjud bilimlarga tayanib, bevosita aytilmagan ma'nolarni anglashga imkon beradi, ya'ni tinglovchi yangi axborotni o'z bilganlari bilan solishtirib, semantik va pragmatik natijalarga keladi. Masalan, "Sardor do'konga kirdi" degan gap bevosita xarid qilish haqida axborot bermasa ham, kontekstual bilimlar asosida tinglovchi "Ehtimol, u xarid qilish uchun kirdi" degan xulosaga keladi. Inferensial ta'sir bilvosita nutq aktlari, implikatura va presuppozitsiya bilan bog'liq bo'lib, samarali kommunikatsiya va nutqiy anglash jarayonining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

INFERENTSIYA – mantiqiy xulosa chiqarish jarayoni, ya'ni so'zlovchi aytmagan ma'lumotni, tinglovchi kontekst, umumiy bilim va mantiq asosida mustaqil tarzda anglab oladi. Bu pragmatik jihatdan nutqni to'liq tushunishga xizmat qiladi. Masalan: "Bugun deraza ochiq edi." Bu gapdan inferentsiya qilib, "Ehtimol xona sovuq bo'ldi" degan xulosa chiqarish mumkin.

INFORMATIV MAZMUN – so'zlovchi tomonidan muloqot davomida tinglovchiga yetkazilayotgan axborotning asosiy mazmuniy yuki bo'lib, u muloqotning xabar berish (axborot uzatish) funksiyasini bajaradi. Informativ mazmun tinglovchiga yangi bilim, fakt, holat, hodisa yoki munosabat haqida xabar beradi va bu jarayonda semantik mazmun, kontekstual shartlar, reallikka daxldorlik va qabul qiluvchining axborot ehtiyoji muhim rol o'ynaydi. U pragmatik jihatdan so'zlovchining kommunikativ intensiyasi va nutq aktining illokutsion kuchi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi. Informativ mazmun boshqa nutqiy qatlamlar (emotiv, ekspressiv, baholoviy va boshqalar) bilan birgalikda faoliyat yuritida, muloqotning ma'lumot uzatishga qaratilgan asosiy pragmatik komponenti sifatida ajralib turadi.

INGRENT KONNOTATSIYA – til birliklarining tarkibiy semantik komponenti bo'lib, u doimiy baholovchi yoki emotsional ohangni ifodalaydi va so'zning asosiy lug'aviy ma'nosiga qo'shilgan holda yashirin tarzda mavjud bo'ladi. U so'zlovchining hissiy munosabatini, ijtimoiy bahosini yoki madaniy stereotipini o'z ichiga oladi va kontekstga bog'liq holda emas, balki doimiy semantik tarkib sifatida qaraladi. Masalan, "vatanparvar" so'zi ijobiy ingrent konnotatsiyaga ega, "xoin" esa salbiy qiymatni anglatadi. Ushbu tushuncha lingvopragmatik va semantik tadqiqotlarda so'zning baholovchi xususiyatini aniqlashda muhim rol o'ynaydi.

INKLYUZIVLIK – pragmatika doirasida muloqot ishtirokchilarini ijtimoiy maqomidan qat'i nazar teng va hurmatli tarzda muloqotga jalb etish tamoyilidir. Ushbu kontsept sotsiopragmatik yondashuvga asoslanib, jins, yosh, irq, imkoniyati cheklanganlik, til yoki madaniyatdan qat'i nazar barcha suhbatdoshlarning til orqali o'zini anglatish va tushunilish imkonini beradi. So'zlovchi tomonidan "biz" zamirining inklyuziv (ya'ni, o'zini ham, tinglovchini ham qamrab olgan) shaklda qo'llanishi yoki neytral nomlash usullaridan foydalanilishi buning yaqqol ifodasidir. Bu tamoyilga ilk asos solganlardan biri sifatida amerikalik tilshunos Robin Lakof (1975) ayollar tilidagi kamsituvchi shakllarni tahlil qilib, til va kuch o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratadi. Unga ergashgan olimalar – Debora Kameron (1995) va Janet Xolms (1995) inklyuzivlikni muloqotda ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi pragmatik ko'rsatkich sifatida baholaydi. Shunday qilib, inklyuzivlik pragmatik kompetensiyaning muhim jihatini bo'lib, u so'zlovchining kommunikativ vaziyatga mos, bag'rikeng va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli til vositalaridan foydalana olish qobiliyatini aks ettiradi. inoyali implikatura orqali fikr bildiradi.

INTENSIYA – so'zlovchining nutq orqali nimanidir nazarda tutishi, ya'ni uning ichki kommunikativ niyati bo'lib, so'zlarning literal ma'nosidan tashqari, so'zlovchining nima demoqchi bo'lganini anglatadi. Intensiya faqatgina aytilgan so'zlarning shakliy yoki grammatik tuzilishida emas, balki ularning pragmatik kontekstda qanday ma'no anglatishida namoyon bo'ladi. Bu tushuncha asosan Paul Grays tomonidan ilgari surilgan nutq maqsadlari nazariyasi (theory of speaker's meaning) doirasida muhim o'rin egallaydi. Chunki so'zlovchi ma'lum bir gapni aytish orqali o'z fikrini, his-tuyg'usini yoki harakatga da'vatini bildiradi va shu bilan birga tinglovchining bu niyatni tushunishini ham ko'zda tutadi. Masalan, "Havo sovuq ekan" degan ibora literal jihatdan ob-havo haqidagi faktni bildirsa-da, lekin so'zlovchining intensiyasi bu orqali derazani yopishni yoki issiq kiyim kiyishni anglatishi mumkin. Shu sababli, intensiya faqat semantik ma'no bilan chegaralanmaydi, balki u kontekst, situatsiya, va sotsiopragmatik omillar orqali talqin qilinadi. Tilshunoslikda intensiya tushunchasi illokutsion akt bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, aynan so'zlovchining

qanday illokutsion kuch bilan (masalan, buyruq, savol, maslahat) nutqni yuzaga keltirgani haqida tasavvur beradi.

INTERKULTURAL PRAGMATIKA (madaniyatlararo pragmatica) – turli madaniyat vakillarining o‘zaro muloqot jarayonida yuzaga keladigan nutqiy xatti-harakatlarni, ularning madaniy konvensiyalar asosida qanday shakllanishini va tushunilishini o‘rganuvchi pragmatika tarmog‘idir. Ushbu yo‘nalish til orqali ifodalanadigan illokutiv niyatlar, nutq aktlari, xushmuomalalik, imliktura (bilvosita ma’no), kinoya, presuppozitsiya kabi birliklarning madaniy tafovutlar fonida qanday qabul qilinishini tahlil qiladi. Masalan, bir madaniyatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanqid qilish odatiy hol bo‘lishi mumkin, boshqa madaniyatda esa bu xushmuomalalikka zid hisoblanadi. Interkultural pragmatika aynan mana shunday ijtimoiy-madaniy tafovutlar fonida nutq strategiyalarining muvofiqligini yoki nomuvofiqligini o‘rganadi.

INTERPRETATIV IFODA (lot. interpretari – “talqin qilish, izohlash”) – nutq ifodasining boshqa bir fikr yoki ifodaga o‘xshashligi asosida tushunilishi bo‘lib, so‘zlovchi avvalgi nutq yoki ma’lumotni talqin qiladi va qayta ifodalaydi. Bu qo‘llanilish tavsifiy qo‘llanilishdan farqli ravishda, real voqelikni emas, balki boshqa ifoda yoki fikrning ma’no jihatidan aks ettirilishini bildiradi. Pragmatik jihatdan, interpretativ qo‘llanilish nutq kontekstiga bog‘liq bo‘lib, so‘zlovchining intensional (subyektiv) ma’nolarni yaratish, boshqa birovning so‘zlarini bilvosita ifodalash, yoki xulosa chiqarish kabi kommunikativ strategiyalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, “U aytdi: “Men kelaman” tavsifiy qo‘llanilish bo‘lsa, “U kelishini aytdi” interpretativ qo‘llanilish hisoblanadi, chunki bu so‘zlovchining talqiniga asoslangan va u asl ifodani o‘z tahlili orqali yetkazmoqda.

INTERPRETATSIYA – til birliklari, nutq yoki matn mazmunini kontekstga asoslangan holda anglash, talqin qilish va tushuntirish jarayonidir. Bu faqatgina so‘zlarning yuzaki ma’nosini emas, balki so‘zlovchining niyati, muloqot vaziyati, madaniy va ijtimoiy kontekst, intonatsiya kabi omillar orqali yashirin ma’nolarni aniqlashni ham o‘z ichiga oladi. Interpretatsiya natijasida tinglovchi yoki o‘quvchi nafaqat gapning grammatik tuzilmasini tushunadi, balki uning orqasidagi pragmatik maqsadni, kinoya, istehzo, metafora yoki boshqa bilvosita ifodalarni ham anglaydi. Bu jarayon faol kognitiv faoliyat bo‘lib, har bir muloqot ishtirokchisi o‘z tajribasi

va kontekstga asoslanib, eng maqbul va mantiqan asosli ma'noni tanlaydi.

INTERSUBYEKTIV MUVOFIQLIK – muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchining tushuncha, baho hamda ma'no talqinlarining o'zaro mos kelishi, ya'ni ular o'rtasida umumiy tushunish va ma'no birligining shakllanishidir. Boshqacha aytganda, intersubyektiv muvofiqlik – muloqot ishtirokchilari bir xil ma'noni nazarda tutib, bir-birini to'g'ri anglagan holatdir. Masalan, ikki kishi “ertaga sovuq bo'ladi” deganda ikkalasi ham bu so'zni ob-havo yomonlashishini bildiruvchi ishora sifatida tushunsa, bu intersubyektiv muvofiqlik yuzaga kelganini anglatadi.

INTONATSIYA (lotincha Intono) – baland talaffuz qilaman), nutqning ohangi, uning maromiymusiqiy tomoni; tovushning navbatma - navbat ko'tarilishi va tushishi. Intonatsiya nutqning sintaktik ma'nolari (darak, so'roq, buyruq)ni ham ifodalaydi. Nutq qaratilgan obyektga bo'lgan so'zlovchining munosabati, hissiyoti so'zdagi I.da namoyon bo'ladi. Yozuvda intonatsiya qisman tinish belgilari orqali ifodalanadi. Nutqning stilistik xususi-yatlarini farqlashda, uni shakllantirishda ham ma'lum rol o'ynaydi. Pragmatik jihatdan kommunikativ niyatni aniqlash, suhbatdoshlarga qo'shimcha ma'lumot uzatish va nutq aktining illokutiv kuchini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Uning yordamida so'zlovchi nafaqat semantik ma'lumotni, balki o'zining munosabatini ham ifodalaydi, bu esa kontekstga qarab turli implikaturalarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, “Siz juda yaxshi ishladingiz” jumlasini tekis intonatsiya bilan aytilganda samimiy maqtov bo'lishi mumkin, biroq ohang o'zgarib, ta'kidlangan yoki kinoyali ohang bilan aytilsa, istehzo va tanbeh ma'nosini anglatishi mumkin. Shuningdek, intonatsiya suhbat boshqaruvchisi sifatida replikalar o'rtasidagi aloqani ta'minlab, intersubyektivlikni shakllantiradi va muloqotdagi ijtimoiy rol va ierarxiyani ham ifodalaydi. Masalan, “Siz buni bajardingizmi?” jumlasini ohangga qarab tekshiruv savoli, ayblov yoki hayrat ifodalovchi bo'lishi mumkin.

IRONIYA – yun. eironeia – mug'ambirlik, ayyorlik; bilib bilmaganga olish. Ironiya nutq figurasi bo'lib, unda so'zlovchi o'zining literal (so'zma-so'z) bayonoti bilan yashirin yoki qarama-qarshi ma'no hosil qiladi, shu bilan birga, bu ma'no kontekst va pragmatik signallar orqali anglashiladi. Lingvistik jihatdan, ironik

ifodalar ko'pincha konversatsion maksimlarning buzilishi orqali yuzaga chiqadi, ayniqsa, Graysning sifat maksimiga zid kelishi mumkin, chunki so'zlovchi literal ma'noda haqiqatni emas, balki bilvosita kontekstual xulosa chiqarishni maqsad qiladi. Sperber va Uilsonning aloqadorlik nazariyasi (Relevans nazariyasi) ironiyani dissotsiativ munosabat sifatida tushuntiradi, ya'ni so'zlovchi o'z so'zlari bilan masxara qilish, shubha bildirish yoki ijtimoiy-hisoblash elementlarini qo'shish orqali auditoriyaning kognitiv jarayonlarini ishga soladi. Ironiya implikaturalarga boy bo'lib, uning semantik interpretatsiyasi pragmatik kompetensiyani talab qiladi, ya'ni auditoriya so'zlovchining niyatini va kontekstual sharoitni to'g'ri tushunishi lozim. Misol, A: "Qanday o'tdi imtihon?" B: "Juda ajoyib! O'qituvchi mening javoblarimga shunchalik qoyil qoldiki, menga maksimal balldan eng pastini berishga qaror qildi!" Bu holatda Bning javobi ironik, chunki u literal ma'noda "maksimal balldan eng pastini" olishni ijobiy sifatida taqdim etmoqda, ammo aslida u o'z muvaffaqiyatsizligini masxara qilish yoki kinoya qilish orqali bildiradi.

K

KATAFORA – tilshunoslik va pragmatika sohasida matn yoki nutqda ilgari aytilgan so'z orqali hali keyin tilga olinadigan birlikka ishora qilish hodisasi bo'lib, u odatda olmoshlar yordamida amalga oshadi. Kataforik birliklar matnni stilistik jihatdan boyitish, e'tiborni muhim axborotga qaratish yoki gapning anglashilishini kechiktirishga xizmat qiladi. Masalan, "U menga doim yordam beradi – Jasur juda yaxshi do'st" jumlasida "u" so'zi keyin aytiladigan "Jasur"ga ishora qilgan holda kataforik vazifani bajaradi. Pragmatik nuqtayi nazardan, katafora muloqot jarayonida auditoriyaning e'tiborini boshqarish, matn tuzilmasini boshqarish va nutqning axborot oqimini tartibga solishda muhim vosita sanaladi. Bu hodisa so'zlovchining kommunikativ strategiyasi sifatida qabul qilinadi va nutqning dinamik kontekstida muhim rol o'ynaydi. Keyinchalik J.Sirl 1975-yilda illokutsion aktlarni besh toifaga ajratgan: Assertivlar – so'zlovchi biror fikrning rostligini da'vo qiladi. Masalan: "Bugun sovuq". // Direktivlar – tinglovchidan biror harakatni bajarishni so'raydi. Masalan: "Derazani yop". // Kommissivlar – so'zlovchi

kelajakda biror ishni bajarishga va'da beradi. Masalan: "Ertaga qo'ng'iroq qilaman" // Ekspressivlar – so'zlovchi o'z hissiyatini ifodalaydi. Masalan: "Kechirasiz" yoki "Tabriklayman!" // Deklarativlar – aytilgan gap real voqelikni o'zgartiradi. Masalan: "Siz er-xotin deb e'lon qilindingiz" yoki "Siz jazoga tortildingiz".

KOD MODEL – muloqot nazariyasida axborot uzatilish jarayonini tushuntiruvchi model bo'lib, unda xabar til yoki boshqa kod orqali shifrlanib (kodlanib), keyin esa qabul qiluvchi tomonidan tushunish uchun qayta ochiladi (dekodlanadi). Ushbu modelga ko'ra, agar kod uzatuvchi va qabul qiluvchi tomonidan bir xil tushunilsa va shovqin yoki boshqa omillar bilan buzilmasa, xabar mukammal uzatilishi kerak. Bu model asosan axborot nazariyasiga asoslangan bo'lib, signal, xabar, uzatuvchi va qabul qiluvchi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Masalan, tabiiy til ham kod sifatida qaralishi mumkin: so'z va uning ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlik ixtiyoriy bo'lsa ham, til kod sifatida ishlaydi. Masalan, ingliz tilida dog so'zi faqat aniq bir hayvon turini anglatadi va bu kod bir marta o'rnatilgach, ushbu tovush birikmasi barcha ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun ma'lum bir ma'noni bildiradi. Lekin bu kod ixtiyoriy bo'lib, boshqa tillarda shu ma'noni ifodalash uchun boshqa so'zlar qo'llaniladi: masalan, o'zbek tilida it, rus tilida sobaka, fransuz tilida chien. Biroq, kod modeli tushuntirib bera olmaydigan holatlar ham bor. Masalan, kimdir "Bu it qanchalik katta!" deb aytganda, so'zma-so'z kodlash orqali bu gap faqat hayvonning kattaligini bildiradi. Ammo kontekstga qarab, bu gap hayrat ifodasi yoki hatto "U juda xavfli ko'rinadi!" degan ma'noda bo'lishi mumkin. Grays shuning uchun kod modelidan farqli o'laroq, muloqotning inferensial jihatlariga e'tibor qaratib, implikaturalar orqali ma'no qanday tushunilishini tahlil qilgan.

KODLASH – muloqot jarayonida so'zlovchi (yoki muallif) tomonidan ma'lum ma'no va g'oyalarni til vositalari orqali ifodalash, ya'ni ularni so'zlar, gaplar, grammatik tuzilmalar, ohang, kontekst va madaniy ishoralar shaklida "shifrlash" jarayonidir. Kodlashda so'zlovchi o'z niyatini adresatga yetkazish uchun lingvistik va ijtimoiy vositalarni tanlaydi. Masalan, biror kishi "Havo salqin ekan" deb aytsa, bu yuzaki qaraganda oddiy kuzatuvdek tuyuladi, lekin aslida bu jumla orqali u "derazani yop" degan iltimosni kodlagan bo'lishi mumkin. Shunday qilib, kodlash – ma'noni to'g'ridan-to'g'ri

aytmasdan, uni til orqali ifodalashning kontekstga bog'liq va niyatga yo'naltirilgan shaklidir.

KOGNITIV EFFEKTLAR – inson miyasining ma'lumotni tushunish va qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan ta'sirlardir. Ular nutq yoki boshqa stimullar asosida shakllanadi va kontekstga bog'liq holda o'zgarishi mumkin. Moslik nazariyasiga ko'ra, kognitiv effektlar uch turga bo'linadi: (1) mavjud fikr yoki taxminni mustahkamlash; (2) mavjud fikr yoki taxminni rad etish; (3) mavjud taxminlar asosida yangi xulosalar chiqarish. Masalan, agar kimdir "Osmonda qora bulutlar ko'paydi" desa, tinglovchi bu gapni mavjud bilimlariga asoslanib qayta ishlaydi. U birinchi turdagi kognitiv effekt orqali "Tez orada yomg'ir yog'adi" degan taxminni mustahkamlashi mumkin. Agar kimdir "Bugun yomg'ir yog'maydi" desa, ikkinchi turdagi effekt orqali oldingi taxminini rad etishi mumkin. Uchinchi holatda esa, agar tinglovchi "Qora bulutlar yomg'ir belgisi" degan bilimiga asoslanib "Shuning uchun ko'chaga soyabon olib chiqish kerak" degan yangi xulosa chiqarsa, uchinchi turdagi kognitiv effekt shakllangan bo'ladi.

KOGNITIV LINGVISTIKA – kognitiv lingvistika qisman 1970-yillar oxiri va 1980-yillarda generativ semantika tadqiqot dasturi doirasida shakllangan bo'lib, uning ayrim asosiy tamoyillarini o'zlashtirgan. Mazkur yo'nalishda faoliyat yuritgan taniqli kognitiv lingvistlar qatoriga Jil Fokonye, Rey Gibbs, Jorj Lakoff, Ronald Langaker va Mark Tyorner kiradi. Pragmatika nuqtayi nazaridan kognitiv lingvistikadagi asosiy farazlardan biri shundaki, til semantik ehtiyojlar tomonidan boshqariladi. Masalan, Fokonye tilning "ma'no yaratish va uzatishga xizmat qilishi" haqida gapiradi. Bu funksionalizmning bir shakli sifatida ko'riladi, ammo an'anaviy funksionalistik yondashuvdan farqli ravishda, bunda tilning asosiy vazifasi fikrlarni ifodalash va uzatish deb qaraladi. Kognitiv lingvistlar uchun til va tafakkur sun'iy ravishda ajratilmasligi kerak va tilshunoslik aynan inson tafakkurining tabiiy jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda o'rganilishi lozim. Kognitiv lingvistika Sapir-Vorf gipotezasi bilan ham uyg'unlashadi. Ushbu gipoteza shuni ilgari suradiki, biz so'zlashadigan til bizning tafakkurimizni shakllantiradi yoki u qanday fikrlashimizni belgilaydi. Shunga qaramay, ba'zi kognitiv lingvistlar tilda aks etadigan ma'no faqat

cheklovchi emas, balki aql-idrokimizni ochib beruvchi, rivojlantiruvchi va ifodalovchi hodisa ekanligini ta'kidlaydi.

Kognitiv lingvistika til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganadi va til birliklarining ma'nosi faqat lug'aviy tushunchalar emas, balki kontekst va inson tafakkuri orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv tildagi metafora, metonimiya va boshqa semantik kengayish hodisalarini tushuntirishga qaratilgan bo'lib, oddiy so'z shakllari murakkab aqliy modellarni yaratishini ko'rsatadi. Masalan, "Uning ko'ngli issiq" iborasi fiziologik harorat bilan bog'liq emas, balki insonning mehribonligini bildiradi, yoki "Uning boshi aylanib ketdi" iborasi hayrat yoki dovdirash ma'nosida ishlatilishi mumkin. Kognitiv lingvistika tilni aniq grammatik va semantik cheklovlar asosida emas, balki inson tafakkurining kengroq kontekstdagi ishlashiga asoslangan holda tahlil qiladi. Kognitiv va pragmatik tilshunoslik til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiruvchi muhim yo'nalishlar hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik tildagi semantik tuzilmalarni inson ongida shakllanuvchi konseptual xaritalar sifatida o'rganadi, pragmatik tilshunoslik esa ushbu semantik tuzilmalar real nutqiy muloqotda qanday ishlatilishini tahlil qiladi. Pragmatika tilning muloqot jarayonida qanday qo'llanilishini, kontekstga bog'liq holda qanday ma'nolar hosil bo'lishini tushuntirsa, kognitiv tilshunoslik bu jarayon ortida turgan kognitiv mexanizmlarni tahlil qiladi. Masalan, Graysning hamkorlik printsiplari pragmatik jihatdan muloqotning samaradorligini ta'minlovchi tamoyillar sifatida qaralsa, kognitiv tilshunoslik ushbu tamoyillar qanday aqliy jarayonlarga asoslanganini tahlil qiladi. Metafora va metonimiya ushbu bog'liqlikning yorqin namunasidir. Kognitiv tilshunoslik bularni inson fikrlash tizimidagi konseptual sxemalar sifatida ko'rib chiqadi, pragmatika esa ushbu metaforalar va metonimiyalar real nutqda qanday qo'llanilishini o'rganadi. Masalan, "hayot yo'l" konseptual metaforasi kognitiv jihatdan inson tajribasiga asoslangan bo'lsa, pragmatik jihatdan u suhbatdoshlar orasidagi tushunish jarayonini osonlashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, kognitiv va pragmatik tilshunoslik bir-birini to'ldiruvchi yo'nalishlar bo'lib, tilning semantik va muloqotiy funksiyalarini har tomonlama o'rganishga imkon beradi. Kognitiv yondashuv tilning asosiy konseptual

strukturalarini tushuntirsa, pragmatik yondashuv ularning real kommunikativ jarayonlarda qanday qo'llanilishini tahlil qiladi.

KOGNITIV MUHIT – so'zlovchi va tinglovchining umumiy bilimlari, tajribasi va kontekst haqidagi ma'lumotlari yig'indisi bo'lib, muloqot jarayonida ma'no yaratish va tushunishga bevosita ta'sir qiladi. Pragmatik jihatdan, presuppozitsiyalar, konversatsion implikaturalar va deiksis kognitiv muhitga asoslanib shakllanadi, ya'ni so'zlovchi ma'noni to'g'ridan to'g'ri ifodalamasdan, tinglovchining mavjud bilimlariga tayangan holda ma'lumot yetkazadi. Relevansiya nazariyasiga (Dider Sperber va Diderik Uilson) ko'ra, inson har doim o'z kognitiv muhitiga mos tushuvchi eng muhim axborotni qayta ishlaydi, bu esa samarali muloqotni ta'minlaydi.

KOGNITIV TILSHUNOSLIK – til va tafakkur o'zaro bog'liq degan g'oyaga asoslangan, lingvistika, kognitiv fanlar, psixologiya va neyropsixologiya bilan chambarchas bog'liq yo'nalish bo'lib, insonning til orqali dunyoni qanday tushunishi va idrok etishini o'rganadi. Ushbu atama 1980-yillar boshida Jorj Lakoff, Ronald Langaker va Jil Fokonyer tomonidan shakllantirilgan bo'lib, Noam Xomskiy ilgari surgan generativ grammatika yondashuviga muqobil ravishda rivojlangan. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyillari til mustaqil tizim emas, balki inson tafakkurining in'ikosidir, degan g'oyaga asoslanadi. Ushbu yondashuvda metafora va metonimiya faqat poetik uslub vositasi emas, balki tafakkurning tabiiy modeli sifatida tushuniladi. Masalan, "hayot – yo'l" ("U hayotida to'g'ri yo'l tanladi") yoki "ilm – nur" ("Bilim jaholatga qarshi chiroqdir") kabi iboralar inson tafakkurining murakkab tushunchalarni oddiy vizual obrazlar orqali idrok qilishga moyilligini ko'rsatadi. Ikoniklik tushunchasi ham kognitiv tilshunoslikning muhim qismi bo'lib, unda so'z shakli va uning ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlik tushuntiriladi. Ikoniklik, odatda, "tovush-mohiyat uyg'unligi" yoki "tasviriy ifodalanish" orqali namoyon bo'ladi, masalan, "cho'qqiga chiqdi" ("muvaffaqiyatga erishdi") yoki "pastga tushib ketdi" ("omadsizlikka uchradi"). Bu hodisa inson ongining dunyoni nafaqat semantik, balki vizual va kinestetik tajribalar orqali idrok etishiga asoslanganligini ko'rsatadi.

KOLABORATIV AKT – muloqotda neytral axborot almashinuvi asosida qurilgan nutqiy akt bo'lib, unda so'zlovchi va tinglovchi o'zaro hamkorlikda bilim almashadi. Bunday aktlar xabar berish,

e'lon qilish, tushuntirish, axborot yetkazish kabi shakllarda bo'ladi. Masalan: "Seminar ertaga soat 10:00 da boshlanadi." Sinonimlari: konstativ akt, informativ akt, bayon akti, deklarativ xabar akti.

KOMISSIV AKT – so'zlovchining kelajakdagi bir harakatni amalga oshirishga nisbatan o'zini majburiyat ostiga olishi, va'da berishi yoki kafolatlashini ifodalaydigan nutqiy aktdir. Masalan: "Men albatta ertaga boraman." Sinonimlari: majburiyat akti, va'da akti, niyat akti.

KOMISSIV NUTQ AKTLARI (ing. commissive speech acts) so'zlovchining kelajakdagi harakatga nisbatan majburiyat olishini bildiradigan illokutsion aktlardir. Ushbu aktlarda so'zlovchi o'z so'zlari orqali kelajakda muayyan harakatni bajarishga yoki bajarmaslikka va'da beradi, o'z zimmasiga majburiyat oladi. Masalan, "Men ertaga kelaman", "Sizga yordam berishga va'da beraman" yoki "Qasam ichamanki, bu ishni bajaraman" kabi gaplar komissiv xususiyatga ega. O'zbek tilida bunday aktlar "va'da beraman", "qasam ichaman", "majburman" kabi fe'llar, shuningdek, "albatta", "aniq", "shubhasiz" kabi ta'kidlovchi birliklar orqali ifodalanadi. Komissiv nutq aktlari pragmatik jihatdan muhim bo'lib, ular muloqotda ishonch va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda asosiy rol o'ynaydi.

KOMMUNIKANT – muloqot jarayonida ishtirok etuvchi shaxs bo'lib, u axborotni yaratadi va uni qabul qiladi. Ya'ni so'zlovchi ham, tinglovchi ham kommunikant hisoblanadi.

KOMMUNIKATIV AKT – odamlar o'rtasida til vositalari orqali axborot uzatish va qabul qilish jarayoni. Bu jarayon fikrni ifodalash, uni kodlash, tinglovchi esa uni tushunish va yechish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

KOMMUNIKATIV BIRLIK – tilshunoslikda mustaqil ma'no ifodalovchi va muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi nutqiy struktura bo'lib, u gap, gap birikmasi yoki butun matn shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu birliklar axborot uzatish, savol berish, buyruq, istak, iltimos bildirish, tanbeh berish kabi kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi. Kommunikativ birliklar so'zlovchining nutqiy niyatini ifodalash bilan birga, tinglovchining unga qanday munosabat bildirishini ham belgilab beradi. Ular nutq aktlarining asosi sifatida til vositalarining kontekstga mos qo'llanishini ta'minlaydi va kommunikativ jarayonda semantik,

pragmatik hamda diskursiv funksiyalarni bajaradi. Tilshunos A. Nurmonovning ta'kidlashicha, "gap nutqdagi eng kichik kommunikativ birlik sifatida ijtimoiy muomala ehtiyojidan tug'iladi va uning tarkibida ma'no, vazifa va kontekst birligi mujassam bo'ladi" (Nurmonov, 2008). Shu bois, kommunikativ birliklar muloqotning asosiy konstruksiyasi bo'lib, ular orqali insonlar o'zaro fikr, his-tuyg'u, talab va ehtiyojlarini ifoda etadilar.

KOMMUNIKATIV FON – matn yoki xabar yaratilishi va qabul qilinishiga ta'sir etuvchi umumiy sharoitlar majmui. Masalan, texnologiya, auditoriya va madaniy muhit.

KOMMUNIKATIV INTENSIYA – so'zlovchining muloqot davomida ma'lum bir maqsadga erishishga qaratilgan ichki niyatidir. U til vositalari orqali boshqa ishtirokchiga axborot yetkazish, so'rov bildirish, buyruq berish, rad etish, tasdiqlash, iltimos qilish yoki baho berish kabi nutqiy harakatlarni ongli ravishda amalga oshirishga yo'naltiriladi. Kommunikativ intensiya har qanday nutq aktining pragmatik asosini tashkil etib, kontekst, ijtimoiy munosabat, ishtirokchilarning mavqei, madaniy qadriyatlar va old bilimlar asosida shakllanadi. U ostincha illokutsion kuchni belgilaydi hamda so'zlovchi qanday natijaga erishmoqchi ekanini va auditoriyadan qanday javob kutayotganini ko'rsatadi.

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA – til orqali muloqot qilish qobiliyatidir. U grammatik shakllarni bilish va ularni muloqotda qo'llash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Ushbu termin antropolog va sotsiolingvist Dell Hayms tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Bugungi kunda u amaliy tilshunoslik va til o'qitishda muhim tushuncha hisoblanadi. Til o'qitish jarayonida nafaqat grammatika va talaffuz o'rgatiladi, balki samarali muloqot qilish strategiyalari ham o'rgatiladi. Bu yondashuv tor ma'nodagi pragmatika (masalan, implikaturalar, referens tayinlash) bilan emas, balki tilning ijtimoiy konvensiyalarini o'rgatish bilan bog'liqdir.

KOMMUNIKATIV MAZMUN – so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot jarayonida shakllanadigan, til vositalari orqali ifodalanadigan va kontekst, intonatsiya, ijtimoiy munosabat hamda pragmatik niyatga asoslangan umumiy semantik va pragmatik axborot majmuasidir. U faqat lug'aviy ma'noni emas, balki so'zlovchining kommunikativ intensiyasini, implikatura, presuppozitsiya, deiksis, emotsional bo'yoq, xushmuomalalik yoki tahdid kabi nutqiy

jihatlarini ham o'z ichiga oladi. Kommunikativ mazmun auditoriyaga qanday ta'sir ko'rsatish, qanday javobni kutish va qanday muloqot muhiti yaratilishini belgilovchi asosiy omildir.

KOMMUNIKATIV NIYAT – so'zlovchi tomonidan bildirilayotgan xabarni nafaqat yetkazish, balki tinglovchining ushbu niyatni anglashini ta'minlashga qaratilgan pragmatik hodisa. Moslik nazariyasi (relevance theory) doirasida bu konsepsiya oshkora kommunikatsiya tamoyiliga asoslanadi, ya'ni so'zlovchi o'z xabarini shunday yetkazadiki, tinglovchi faqatgina informatsiyani emas, balki so'zlovchining ushbu informatsiyani yetkazish maqsadini ham tushunadi. Masalan, agar ustoz talabaga "Bu auditoriya juda sovuq" desa, bu faqatgina faktni bildiruvchi informativ niyat bo'lishi mumkin. Biroq, agar ustoz ushbu gapni talabaga qarab va oynaga ishora qilib aytsa, bu uning oynani yopish kerakligini anglatayotganligini bildiradi. Shu tariqa, kommunikativ niyat faqat gap matnida emas, balki uning kontekstual tushunilishi orqali ham shakllanadi. Bu pragmatikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, Graysning implikaturalari va oshkora kommunikatsiya tamoyili bilan bevosita bog'liq.

KOMMUNIKATIV ONG – insonning muloqot jarayonida kerakli bilim, tajriba va ko'nikmalarni qo'llay olish qobiliyati.

KOMMUNIKATIV PRESUPPOZITSIYA – suhbatda bevosita aytilmasa ham, tinglovchiga ma'lum bo'lishi kutiladigan axborot. Bu, odatda, umumiy bilim yoki kontekst orqali tushuniladi.

KOMMUNIKATIV QADAM – suhbat davomida so'zlovchining muloqotni davom ettirish yoki yo'naltirish uchun qiladigan har qanday og'zaki yoki imo-ishora harakati.

KOMMUNIKATIV SHAXS – kommunikativ ehtiyoj va malakaga ega bo'lib, vaziyatga mos til vositalarini tanlab, axborotni samarali uzatish va qabul qilish qobiliyatiga ega inson.

KOMMUNIKATIV STRATEGIYA – so'zlovchining nutqiy faoliyati davomida o'z kommunikativ niyatini amalga oshirish, axborotni samarali yetkazish, tinglovchi bilan ijtimoiy munosabatni saqlash yoki yuzaga keladigan to'siq va tushunmovchiliklarni bartaraf etish uchun ongli ravishda tanlaydigan usul va vositalar majmuasidir. Ushbu strategiyalar muloqotda samaradorlikni ta'minlaydi, til birliklarining qanday tartibda, qanday shaklda va qanday kontekstda ishlatilishini belgilaydi. Ular xushmuomalalik,

bilvosita ifoda, yuzni saqlash, e'tiborni ko'chirish, kinoya va evfemizm kabi nutqiy vositalar orqali namoyon bo'ladi. Kommunikativ strategiya pragmatik kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanib, so'zlovchining muloqotda maqsadga muvofiq, moslashuvchan va madaniy jihatdan maqbul ifodalanish imkoniyatini belgilaydi.

KOMMUNIKATIV TAGMA'NO – so'zlovchi va tinglovchining ichki maqsadlari asosida shakllangan, mazmunning yashirin yoki qo'shimcha qatlami.

KOMMUNIKATIV TAKTIKA – muloqot jarayonida so'zlovchining o'z kommunikativ maqsadiga erishish uchun tanlagan aniq, vaziyatga mos va maqsadga yo'naltirilgan nutqiy usullaridir. Ular umumiy kommunikativ strategiya doirasida shakllanadi va har bir nutqiy bosqichda (savol berish, fikrni rad etish, tanqid qilish, iltimos qilish va h.k.) alohida amaliy yechimlar sifatida ishlatiladi. Kommunikativ taktika so'zlovchining ijtimoiy roli, tinglovchiga bo'lgan munosabati, muloqotning ijtimoiy-madaniy konteksti, yuzga tahdid solmaslik zarurati, shuningdek, muomala samaradorligiga qarab tanlanadi. Masalan, rad qilishda to'g'ridan-to'g'ri "yo'q" demasdan, "Ehtimol keyinroq imkon bo'lar" deb aytish – ijobiy muloyimlik taktikasining namunasidir. Shunday qilib, kommunikativ taktika – til birliklarining tanlovi emas, balki ularning maqsadga muvofiq, samarali va madaniy mos tarzda qo'llanish shaklidir. Tilshunoslar fikricha, kommunikativ strategiya umumiy maqsadni, taktika esa bosqichma-bosqich unga erishish yo'llarini belgilaydi.

KOMMUNIKATIV TAXMIN – tinglovchining so'zlovchi haqiqatdan ham ma'lum ma'noni yetkazmoqchi ekanligiga ishonishidan iborat. Bach va Harnishning tushuntirishicha, har bir nutq akti lokutsion va illokutsion kuchga ega bo'lib, tinglovchi so'zlovchining maqsadini taxmin qilish orqali tushunadi. Masalan, do'konda xaridor sotuvchiga: "Non qolganmi?" deb so'rsa, bu nafaqat savol (lokutsion akt), balki xarid qilish istagini ifodalovchi iltimos (illokutsion akt) ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda, sotuvchi faqat javob bermasdan, "Ha, bor" deb javob berishi bilan birga, non uzatishi ham kutiladi. Bu, tinglovchining so'zlovchining maqsadini intuitiv tushunishiga asoslangan kommunikativ taxminning real misolidir.

KOMMUNIKATIV TO'SIQ – turli sabablar tufayli axborot almashinuviga halaqit beruvchi omillar. Bunga til bilmaslik, shaxsiy munosabat, madaniy tafovutlar yoki tashkiliy nomutanosiblik kiradi.

KOMMUNIKATIV VAZIYATNI MODELLASHTIRISH – muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchining qarorlarini tahlil qilish va ularning o'zaro ta'sirini tushuntirish uchun nazariy model yaratish jarayonidir. Bu yondashuv o'yin nazariyasi va pragmatika asosida shakllangan bo'lib, unda har bir ishtirokchi o'z maqsadiga erishish uchun eng samarali strategiyani tanlaydi. Ushbu model til birliklarining qanday ishlatilishi, muloqot qanday muvofiqlashtirilishi va tomonlar qanday kelishuvga erishishini tushuntirishga yordam beradi. Misol: Tasavvur qiling, restoran mijoziga ikki xil taomni taklif qiladi. Mijoz ofitsiantdan "Qaysi biri mazaliroq?" deb so'raydi. Agar ofitsiant haqiqatni aytish printsipiga amal qilsa, u mijozning didiga mos keladigan variantni tavsiya qiladi. Ammo agar u oshpazning manfaatini ko'zlasa, eng qimmat taomni tavsiya qilishi mumkin. Bu yerda so'zlovchi (ofitsiant) va tinglovchi (mijoz) qarorlari muayyan strategiyaga asoslanadi, va natija ularning manfaatlariga bog'liq bo'ladi.

KOMMUNIKATIV XULQ-ATVOR – jamiyat me'yorlariga mos holda muloqot jarayonida namoyon bo'ladigan og'zaki va noog'zaki xatti-harakatlar.

KOMMUNIKATIV-FUNKSIONAL PARADIGMA – til tizimini va nutq birliklarini ularning kommunikativ vazifalari, funksiyalariga asoslanib o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuv bo'lib, unda tilning ijtimoiy, semantik hamda pragmatik imkoniyatlari nutq jarayonida qanday amalga oshishi tahlil qilinadi. Ushbu paradigma til birliklarini faqat grammatik tuzilma sifatida emas, balki ular orqali yuzaga chiqadigan muloqot maqsadi, so'zlovchi va tinglovchining o'zaro munosabati, kontekstga moslik, yuzga tahdid, baho, niyat va sotsial rol kabi jihatlar orqali baholaydi. Kommunikativ-funksional paradigma tilshunoslikda an'anaviy struktur yondashuvga muqobil bo'lib, tilni faol ijtimoiy vosita sifatida talqin qiladi va bu yo'nalishda til birliklarining nutqiy qiymati, kontekstual qo'llanilishi, stilistik xususiyati hamda pragmatik yuklamasi markazga olinadi.

KOMPETENSIYA VA PERFORMANS FARQI – Kompetensiya insonning til qoidalarini bilish qobiliyati, performans esa shu bilimlarni amalda qo'llash jarayonidir. Masalan, bir kishi ingliz

tilining grammatik qoidalarini mukammal bilsa (kompetensiya), lekin auditoriya oldida hayajonlanib soʻzlarni chalkashtirib yuborsa yoki toʻgʻri gapira olmasa (performans), bu farq yaqqol namoyon boʻladi. Pragmatik kompetensiya esa nutqiy kontekst va muloqot qoidalarini tushunishni anglatadi, masalan, oʻqituvchiga rasmiy, doʻstga norasmiy murojaat qilishni bilish. Agar kishi rasmiy vaziyatda norasmiy uslubda gapirsa, bu pragmatik performansdagi xato hisoblanadi. Demak, kompetensiya bilim, performans esa uning real qoʻllanilishidir, va u charchoq, hayajon kabi omillar taʼsirida mukammal boʻlmasligi mumkin.

KOMPETITIV AKT – soʻzlovchi oʻz manfaatini koʻzlab tinglovchini biror harakatga undaydigan nutqiy aktdir. U savol, iltimos, talab yoki buyruq shaklida boʻlishi mumkin. Soʻzlovchi bu orqali tinglovchidan nimanidir bajarishini kutadi. Masalan: “Iltimos, eshikni yoping.” Bunday aktlar koʻpincha ijtimoiy asimmetriya yoki maʼmuriy ustunlik sharoitida yuzaga chiqadi. Sinonimlari: direktiv akt, talab akti, buyruq akti, undovchi akt.

KOMPOZITSIONALLIK – lingvistik tamoyil boʻlib, ibora yoki gapning umumiy maʼnosi uning tarkibiy qismlarining semantik mazmuni va grammatik tuzilishidan hosil boʻlishini bildiradi, masalan, “Bolalar bogʻda oʻynayapti” gapida “bolalar” subyektni, “bogʻda” joylashuvni, “oʻynayapti” esa harakatni bildiradi va bu soʻzlarning kombinatsiyasi umumiy semantik maʼnoni hosil qiladi, biroq pragmatik kontekst ushbu tamoyilga taʼsir qilishi mumkin, masalan, “Shakarli choy ichaman” jumlasida agar adresant odatda shakar qoʻshmasa, bu pragmatik jihatdan “Men odatda choyni shakar qoʻshmay ichaman, lekin hozir shakar qoʻshdim” deganyashirin maʼnoni ifodalashi mumkin, yaʼni kompozitsionallik gap tarkibidagi soʻzlarning maʼnosidan kelib chiqsa ham, pragmatika bu maʼnoni kontekst asosida kengaytirishi yoki oʻzgartirishi mumkin.

KONFLIKTIV AKT – soʻzlovchi tomonidan salbiy yoki agressiv munosabat bildiruvchi nutqiy akt boʻlib, unga haqorat qilish, tahdid etish, tanbeh berish, ayblash, laʼnatlash kiradi. Bunday aktlar muloqotda ijtimoiy yuzga tahdid solishi va ziddiyatni kuchaytirishi mumkin. Masalan: “Sendan boshqa hech qanday yaxshilik kutmayman.” Sinonimlari: impoliteness akti, salbiy baho akti, agressiv akt, tahdid akti.

KONNOTATSIYA – til birliklarining asosiy (denotativ) ma’nosidan tashqari, unga yuklangan qo’shimcha baholovchi, emotsional, stilistik yoki madaniy semantik qatlam bo’lib, u so’zlovchining munosabati, his-tuyg’usi, nutqiy pozitsiyasi va madaniy tajribasini ifodalaydi. Konnotatsiyalar doimiy (leksik) yoki kontekstual shaklda namoyon bo’lishi mumkin va ular muloqot jarayonida ijobiy yoki salbiy baho, stilistik ohang yoki yashirin ma’no hosil qiladi. Ushbu tushuncha lingvistik manbalarda qo’shimcha ma’no, baholovchi ma’no, emotiv ma’no, ekspressiv ma’no, stilistik yuklama yoki kontekstual-pragmatik ma’no kabi sinonimlar bilan ham yuritiladi. Konnotatsiya, ayniqsa, badiiy matn, reklama, siyosiy nutq va madaniyatlararo kommunikatsiyada tilning ta’sirchanlik darajasini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

KONSEPT (lot. Conceptus – “tushuncha”, “g’oya”) – tilshunoslik, psixologiya va falsafada inson ongidagi kognitiv model bo’lib, muayyan obyekt, hodisa yoki tushunchalar sinfini ifodalaydi. Konseptlar til birliklari orqali kodlanadi, biroq har doim ham aniq so’z yoki morfema bilan ifodalana olmaydi. Masalan, “mehmon-do’stlik” konsepti o’zbek madaniyatida muhim tushuncha bo’lib, uni mehmon kutish”, “dasturxon yozish”, “mehmonning hurmati” kabi iboralar orqali ifodalash mumkin, lekin bu tushunchani bitta aniq so’z bilan to’liq anglatish qiyin. Yoki “qo’shnichilik” konsepti faqat qo’shni degan so’z bilan emas, balki “qo’shnichilik-mingyillik”, “yaxshi qo’shni – yarim ota” kabi maqollar orqali yanada keng ma’no kasb etadi. Shunday qilib, konseptlar inson tajribasiga, madaniy an’analarga va tilning leksik imkoniyatlariga bog’liq bo’lib, semantik tahlilda propozitsiyalar, metaforalar va kontekst orqali kengaytiriladigan tushunchaviy birliklar sifatida o’rganiladi.

KONSEPTUAL KONNOTATSIYA – so’z yoki ibora bilan bog’liq bo’lgan ijtimoiy, madaniy, mafkuraviy yoki ideologik tushunchalar majmui bo’lib, u til birliklariga orttirilgan, barqaror va madaniyatga singib ketgan qo’shimcha ma’nolarni beradi. Bu turdagi konnotatsiya bevosita so’zlovchining hissiy holatiga emas, balki jamiyatda tarixan shakllangan umumiy tushunchalar tizimiga tayangan holda yuzaga keladi. Masalan, “oq rang” o’zbek tilida poklik, halollik bilan bog’lansa, “qora rang” ko’pincha motam yoki qayg’u ramzini bildiradi. Shu tariqa, konseptual konnotatsiya til orqali madaniy qadriyatlar, stereotiplar, ideallar va obrazlarning

ifodalanishiga xizmat qiladi va u lingvokulturologiya, semantika hamda pragmatika fanlarida muhim o'rin egallaydi.

KONSTATATIVLAR (constative, lot. constatare – “tasdiqlamoq, aniqlamoq”) – mavjud holatlar haqida xabar beruvchi, tavsiflovchi gaplar bo'lib, ular faqat mavjud voqelikni tasvirlaydi va haqiqat sharti bo'yicha baholanadi, masalan, “Toshkent O'zbekiston poytaxtidir” yoki “Bugun havo issiq” kabi gaplar dunyodagi mavjud holatni tavsiflaydi, lekin uni o'zgartirmaydi, shu bilan birga performativ gaplar esa aytilishi bilan biror real o'zgarish yasaydi, masalan, “Sizni er-xotin deb e'lon qilaman” yoki “Men kechirim so'rayman” kabi gaplar aytilishi bilan huquqiy yoki ijtimoiy ahamiyat kasb etadi, shu sababli konstatativ gaplar shunchaki tavsif beruvchi bo'lsa, performativ gaplar nutq orqali amal bajaradi.

KONSTATIV AKT – so'zlovchi tomonidan real holat, fakt yoki voqeani xolis tarzda bayon etuvchi nutqiy akt bo'lib, u rost yoki yolg'on sifatida baholanishi mumkin. Masalan: “Bugun dars bo'lmaydi.” Bu turdagi aktlar xabar, axborot berish, bildiruvni o'z ichiga oladi. Sinonimlari: deklarativ xabar akti, informativ akt, bayon akti.

KONTEKST (lotincha contextus – jips, bog'lanish, qo'shilish) – gap yoki matnning ma'nosini to'g'ri talqin qilish uchun zarur bo'lgan lingvistik, pragmatik, ijtimoiy va jismoniy omillar majmui bo'lib, u tor kontekst (indeksikal birliklarning referentlarini aniqlashga yordam beruvchi), keng kontekst (so'zlovchining niyatini tushunish uchun kerakli barcha kontekstual ma'lumotlarni qamrab oluvchi), mikrokontekst (muloqot jarayonida ishtirokchilar tomonidan shakllantiriladigan) va makrokontekst (ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillarni o'z ichiga oluvchi) shakllarida namoyon bo'ladi, shuningdek, u umumiy zamin (common ground) orqali muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi umumiy bilim va taxminlarni o'zida mujassam etadi, agar zaruriy ma'lumotlar oldindan mavjud bo'lmasa, akkomodatsiya orqali kontekstga kiritiladi, bu esa gapning semantik va pragmatik talqiniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

KONTEKSTUAL INTERPRETATSIYA – tinglovchining intensioniyani to'g'ri tushunishi uchun gapni muayyan vaziyat, ijtimoiy muhit, oldingi suhbat mazmuni va konversatsion signallar asosida talqin qilishi jarayonidir. Masalan, “Deraza ochiq” degan gap literal

ma'noda holatni bildiradi, lekin so'zlovchining intensiyasi – derazani yopish kerakligi haqidagi iltimos bo'lishi mumkin; tinglovchi esa kontekstual interpretatsiya orqali aynan shu ma'noni anglaydi. Shu bois pragmatik tahlilda ma'no nafaqat til birliklariga, balki so'zlovchining maqsadi va kontekst asosidagi tushunishga bog'liq bo'ladi.

KONTEKSTUAL TA'SIRLAR – yangi axborot tinglovchining ongida qanday qabul qilinishini tushuntiruvchi relevans nazariyasining asosiy elementi bo'lib, u uch shaklda namoyon bo'ladi: 1. Qo'llab-quvvatlovchi ta'sir (yangi axborot mavjud bilimni mustahkamlaydi, masalan, "Bugun havo salqin" degan gap oldin sezgan narsani tasdiqlaydi). 2. Inkori etuvchi ta'sir (yangi axborot avvalgi taxminni yo'q qiladi, masalan, "Bugun issiq bo'ladi" degan gap "Bugun salqin bo'ladi" degan taxminni rad etadi). 3. Inferensial ta'sir (yangi axborot mavjud bilimlar bilan bog'lanib, yangi xulosa hosil qiladi, masalan, "Hasan supermarketga kirdi" degan gapdan "U xarid qilish uchun kirdi" degan xulosa chiqariladi). Bu ta'sirlar pragmatik jihatdan muhim bo'lib, samarali kommunikatsiya uchun ma'lumotning kontekstga mos kelishini ta'minlaydi.

KONVIVIAL AKT – so'zlovchi tomonidan ijobiy kayfiyatda ifodalanadigan nutqiy akt bo'lib, unga tabriklash, taklif qilish, minnatdorchilik bildirish, kechirim so'rash kabi harakatlar kiradi. Bu aktlar jamiyatda iliq munosabatlar va o'zaro hurmat muhitini yaratadi. Masalan: "Yordam berganingiz uchun tashakkur." Sinonimlari: ijtimoiy-emosional akt, tabrik akti, taklif akti, minnatdorchilik akti.

KUCH – insonning yoki guruhning boshqalar ustidan ta'sir o'tkazish, ularni boshqarish yoki o'z xohishiga bo'ysundirish qobiliyatidir. Sotsiologiyada kuch insonlar o'rtasidagi tengsizliklar, boshqaruv munosabatlari va ijtimoiy tuzilmalarda qanday namoyon bo'lishini tahlil qilish uchun muhim tushuncha hisoblanadi. Masalan, o'qituvchi bilan o'quvchi, rahbar bilan xodim, hukumat bilan xalq o'rtasidagi munosabatlar kuchga asoslangan bo'ladi. Bu kuch har doim zo'ravonlik shaklida bo'lmasligi mumkin – u ko'pincha ko'rinmas, ya'ni odamlar o'z xatti-harakatlarini o'z ixtiyori bilan emas, balki atrofdagi ijtimoiy me'yorlar, qoidalar yoki mutaxassislar fikriga bo'ysungan holda amalga oshiradi. Tanqidiy diskurs tahlilchilari matnlar va til orqali qanday qilib kuch yaratilishini, saqlanishini va unga qarshilik qilinishini o'rganadilar. Ular, shuningdek, kuch qanday qilib "normal" deb ko'rsatilishini – ya'ni

hech kim savol bermaydigan holga aylanishini tahlil qiladilar. Shuni unutmaslik kerakki, kuch har doim salbiy emas. Ba’zida u ijtimoiy tartibni saqlash, bilim berish yoki jamiyatga foyda keltirish vositasi bo’lishi mumkin. Masalan, o’qituvchining o’quvchi ustidan kuchi – o’rgatish orqali ijobiy natija beradi. Bu holatni ijobiy diskurs tahlili o’rganadi.

L

LEKSIK MODULYATSIYA – so’zning ma’nosi kontekstga qarab o’zgarishi, torayishi yoki kengayishi jarayoni bo’lib, u relevansiya nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. Bunda so’zning lug’aviy ma’nosi saqlanib qoladi, lekin turli kontekstlarda yangi semantik qirralarga ega bo’lishi mumkin. Ma’no kengayishi holatida so’zning qo’llanilishi kengroq ob’ektlar to’plamini qamrab oladi, masalan, “Bu bolalar artist ekan!” gapida “artist” so’zi faqat professional san’atkorni emas, balki aktyorlik qobiliyatiga ega shaxsni ham anglatadi. Ma’no torayishi esa aksincha, so’z ma’nosining aniqroq va cheklangan tushunchaga aylanishi bilan bog’liq, masalan, “Menga suv olib kel” gapida “suv” faqat ichimlik suvi ma’nosida tushuniladi.

LEKSIK NOANIQLIK – bir xil lingvistik shaklga ega yoki o’xshash bo’lgan, lekin turli semantik strukturalarga ega bo’lgan so’zlar yoki iboralarning biror nutq kontekstida ma’nosi noaniq bo’lib qolishi hodisasidir. Ushbu noaniqlik, asosan, omonimiya, polisemiya va paronimiya hodisalari natijasida yuzaga keladi. Omonimlar bir xil talaffuz va yozuvga ega bo’lib, mutlaqo bog’liq bo’lmagan ma’nolarga ega bo’lsa, polisemantik so’zlar esa o’zaro bog’liq, lekin kontekstga qarab farqlanadigan turli ma’nolarga ega bo’ladi. Paronimlar esa fonetik jihatdan o’xshash bo’lib, chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin. Leksik noaniqlik tabiiy tillarning ko’p ma’nolilik va soddalashishga intilish xususiyatidan kelib chiqib, tildan foydalanishda pragmatik kontekstning ahamiyatini ta’kidlaydi. Shu bois, bu fenomen lingvistik semantika va pragmatika chorrahasida tahlil qilinadi. Leksik noaniqlik til tizimidagi o’ziga xos “tushunishning sinov maydoni” bo’lib, u muloqot jarayonida qabul qiluvchi tomonidan kontekstual analiz, pragmatik taxmin va semantik ajratish orqali bartaraf etiladi. Ushbu noaniqlik nutqning har ikki tomoniga – so’zlovchi va tinglovchiga – yuqori darajadagi

interpretatsiya mas'uliyatini yuklaydi. Agar til deterministik (aniq) bo'lsa va unda leksik noaniqlikning yo'qligi muloqotning mexanik bo'lishiga olib kelgan bo'lardi, ammo bunday dinamik elementlar tildagi ifodaviylik va stilistik imkoniyatlarni boyitadi. Noaniqlik ba'zan tushunmovchilik keltirib chiqarsa ham metafora, kinoya, yumor va kontekstual moslashuv kabi lingvistik vositalar aynan shu xususiyat hisobiga rivojlangan. Shunday qilib, leksik noaniqlik tilning faqat "kamchilik" jihati emas, balki uning evolyutsion pragmatik moslashuvining tabiiy natijasi bo'lib, u muloqotda kontekst va nutqiy strategiyalar muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi.

LEKSOPRAGMATIKA – tilshunoslikda leksik birliklarning nutq jarayonidagi kontekstual va kommunikativ vazifalarini o'rganuvchi yo'nalish bo'lib, so'zlarning faqat lug'aviy ma'nosi emas, balki ularning pragmatik ahamiyati, qo'llanish sharoiti, ijtimoiy va nutqiy niyatga bog'liqligi tahlil qilinadi. Ushbu yo'nalish doirasida sinonimiya, evfemizm, disfemizm, metafora, ironik ifodalar, kinoya, tabular kabi leksik vositalarning yuzaga chiqaradigan pragmatik effektlari o'rganiladi. Masalan, "Vafot etdi" va "ko'z yumdi" iboralari bir xil denotativ ma'noni bersada, ularning qo'llanishi so'zlovchining yumshoqlik yoki rasmiylik niyatiga qarab tanlanadi. Shunday qilib, leksopragmatika so'z tanlash orqali yuzaga keladigan ta'sir, ijtimoiy munosabat va axborot yetkazish usulini izohlaydi.

LINGVISTIK NOANIQLIK – gapning lingvistik shakli uning to'liq ma'nosini aniqlash uchun yetarli emasligini bildiruvchi pragmatik tushuncha bo'lib, tinglovchi so'zlovchining niyatini tushunish uchun kontekst, vaziyat va umumiy bilimlarga tayanishga majbur bo'ladi. Masalan, kimdir "U hozir keladi" desa, bu "u" kim ekani, "hozir" qaysi aniq vaqtni bildirayotgani kontekstsiz noma'lum qoladi; ya'ni bu gapdagi ko'rsatkich so'zlar (indexikallar) ma'noni aniq belgilamaydi. Shu sababli, gapda kodlangan lingvistik ma'no – ya'ni grammatik va lug'aviy shakl – har doim ham yetarli bo'lmaydi; muloqotda ma'no kontekst orqali to'ldiriladi. Lingvistik noaniqlik nazariyasi aynan shu tafovutni izohlaydi va u pragmatikaning asosiy masalalaridan biridir.

LISONIY VOSITALAR – muloqotda to'g'ridan-to'g'ri til birliklari orqali axborot yetkazish, fikr bildirish, emotsiyani ifodalash yoki ijtimoiy munosabatni o'rnatishda qo'llaniladigan vositalardir. Ular og'zaki va yozma shaklda namoyon bo'ladi va asosan so'z, ibora, gap, urg'u, grammatik shakllar, stilistik vositalar

kabi unsurlarni o'z ichiga oladi. Ushbu vositalar ba'zan quyidagi nomlar bilan ham yuritiladi: verbal vositalar (ya'ni til orqali ifodalangan vositalar), til birliklari (fonetik, leksik, grammatik vositalarni qamrab oladi), hamda lingvistik vositalar (ilmiy tilda til vositalarining umumiy atamasi sifatida qo'llanadi). Lisoniy vositalar so'zlovchining fikrini aniq, mantiqiy va kontekstga mos ifodalash imkonini beradi.

LITERAL MA'NO – lokutsion akt doirasida yuzaga keladigan pragmatik hodisa bo'lib, unda so'zlovchi tomonidan kodlangan semantik ma'no hech qanday figurativ, metaforik yoki kinoyaviy o'zgarishsiz ishlatiladi va tinglovchi bu ma'noni to'g'ridan to'g'ri dekodlaydi. Bunday holatda so'zlar o'zining lug'aviy tizimidagi birlamchi ma'nosida qo'llanadi va ularni tushunish uchun qo'shimcha kontekstual inferensiya talab etilmaydi. Masalan, "U derazani ochdi" degan jumlada fe'l ham, obyekt ham o'zining bevosita, kodlangan ma'nosida ishlatilgan bo'lib, bu nutq birligi literal ma'no asosida qurilgan. H.P. Grays tomonidan ilgari surilgan Kooperativ prinsip va uning tarkibidagi maksimalar nazariyasiga ko'ra, bunday holat ayniqsa sifat (rostlik) maksimasi ("aytganingiz rost bo'lsin") va munosiblik maksimasi ("gapirgan gapingiz mavzuga oid bo'lsin") bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki literal ma'no orqali ma'lumot bergan so'zlovchi aynan rost, aniq va mavzuga to'g'ri xabarni etkazishni maqsad qilgan bo'ladi. Masalan, "Bugun soat uchda uchrashamiz" degan jumla literal ma'noda ishlatilgan bo'lib, unda so'zlovchi aynan ma'lum vaqt va harakatni bildiruvchi aniq informatsiyani yetkazmoqda, va bu holat Grays 'ning maksimalariga to'liq mos keladi. Shu tarzda, literal ma'no nutqdagi rostgo'ylik, tushunarlilik va relevans kabi asosiy pragmatik prinsiplarni ta'minlaydi.

LOKUTIV HARAKAT (LOKUTIV AKT) – so'zlovchining til birliklari orqali ma'lum bir mazmunni ifoda etishi, ya'ni grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan va semantik jihatdan aniq ma'noga ega bo'lgan gapni aytish jarayonidir. Bu tushuncha Jon Ostinning nutq aktlari nazariyasiga oid bo'lib, uch bosqichdan birinchisi – lokutiv akt deb yuritiladi. Lokutiv harakatda asosiy e'tibor nima aytilgani emas, balki qanday ifodalangani, ya'ni gap tuzilishi, leksik tanlov, sintaktik qurilish va tovush vositalarining qo'llanishiga qaratiladi. Masalan, "Iltimos, derazani yoping" degan jumla lokutiv harakat

sifatida grammatik tuzilgan, aniq ifoda va tovush shakliga ega. Bu harakatda hali buyrug' yoki niyat (illokutiv kuch) emas, aynan aytilgan gapning o'zi muhim hisoblanadi. Lokutiv harakat fonetik (tovush chiqarish), fonologik (tovushlarning tizimli tuzilishi) va semantik (mazmunni ifodalash) tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Shu sababli, lokutiv harakat nutqning tashqi shakli va lingvistik strukturasini tashkil etuvchi asosiy bosqich hisoblanadi.

M

MADANIY ASPEKT – til va muloqot hodisalarini muayyan xalqning urf-odatlar, qadriyatlar, dunyoqarashi, mentaliteti va ijtimoiy hayoti bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga yo'naltirilgan yondashuvdir. Til faqat aloqa vositasi emas, balki madaniyatning ifodasi, tashuvchisi va aks ettiruvchisidir. Shuning uchun har qanday til birligi yoki nutqiy akt ortida ma'lum bir madaniy kontekst mavjud bo'ladi. Masalan, muomala shakllari, salomlashuv, murojaat, minnatdorchilik yoki uzr bildirish kabi nutqiy strategiyalar har bir madaniyatda o'ziga xos usulda amalga oshadi va bu holat madaniy aspektni talab qiladi. Madaniy aspekt ayniqsa madaniyatlararo muloqot, tarjima nazariyasi, til o'qitish metodikasi, sotsiolingvistika va pragmatika sohalarida muhim ahamiyatga ega. Chunki til vositalari har doim ham boshqa madaniyat vakiliga o'zbek madaniyatidagi kabi ta'sir qilmaydi. Bu esa tushunmovchilik, noto'g'ri interpretatsiya yoki madaniy nomoslashuvga olib kelishi mumkin. Madaniy aspektni inobatga olgan holda tilni o'rganish va o'rgatish esa muloqotning samaradorligini oshiradi va madaniy anglashuvni mustahkamlaydi.

MADANIY TO'SIQLAR – turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot jarayonida yuzaga keladigan tushunmovchiliklar, noto'g'ri talqinlar yoki noqulayliklar bo'lib, ular til, qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy me'yorlar va muloqot uslublaridagi farqlar sababli yuzaga keladi. Bunday to'siqlar, masalan, bir madaniyatda odobli hisoblangan ifoda yoki xatti-harakat boshqa madaniyatda nojo'ya yoki hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi, yoki metaforalar, hazillar, imo-ishoralar turlicha talqin qilinishi mumkinligi tufayli kelib chiqadi. Madaniy to'siqlar muloqot samaradorligini pasaytirishi, xushmuomalalik strategiyalarini noto'g'ri qo'llashga olib kelishi

mumkin, shu bois xalqaro yoki ko'p madaniyatli muloqotlarda ular til va pragmatik kompetensiyaning muhim tekshiruv obyektidir.

MADANIYATLARARO MULOQOT – turli madaniy muhitga mansub shaxslar yoki guruhlar o'rtasida yuzaga keladigan axborot almashinuvidir. Bunday muloqotda til vositasidan tashqari, ijtimoiy qadriyatlar, nutq uslubi, tana tili, kontekstga sezgirlik kabi jihatlar ham muhim rol o'ynaydi. Har bir madaniyatning o'ziga xos nutq odatlari va hurmat ifodalovchi shakllari mavjud bo'lib, ular noto'g'ri talqin qilinsa, tushunmovchilik yoki madaniy ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida rasmiy “siz”lash shakli boshqa madaniyatlarda norasmiy “sen” shakli bilan almashtirilsa, bu hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin.

MAKON DEYKSISI – nutqda fazoviy (joy) munosabatlarni ifodalovchi til birliklaridir. Ular orqali so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi joylashuv aniqlanadi yoki tasvirlanadi. Bunday deyksis birliklar so'zlovchi nuqtayi nazaridan turib makonni bildiradi va ular nutq kontekstiga bog'liq holda o'zgaradi. Masalan, “bu yerda” va “u yerda” degan iboralar so'zlovchining joylashuviga qarab har xil joyni anglatishi mumkin. “Bu yerda juda issiq” jumlasidagi “bu yerda” iborasi ayni paytda so'zlovchi turgan joyga ishora qiladi. Makon deyksisiga kiruvchi birliklar qatoriga olmoshlar (bu, u), fazoviy ko'rsatkichlar (bu yerda, u yerda, bu yoqqa, u yoqqa), ba'zan fe'l va fe'l birikmalari (kel, bor) ham kiradi. Ushbu deyksis turlari pragmatik jihatdan nutq ishoralarini, ya'ni real vaziyatdagi joylashuvga mos axborotni aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

MAKROMATN (macrotext, yun. makros – “katta” va lot. textus – “matn, to'qima”) – matn yoki nutqning keng kontekstual tizimi bo'lib, u diskursning umumiy mazmunini, ijtimoiy, madaniy va pragmatik omillarni o'z ichiga olgan holda global darajada ma'no hosil qilish jarayonini ta'minlaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan, makromatn ayrim gaplar yoki matn bo'laklarining to'liq talqin qilinishiga imkon beradigan umumiy kontekst bo'lib, u nutq ishtirokchilarining fon bilimlari, matnning janri, diskursiv strategiyalar va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Masalan, Tohir Malikning “Shaytanat” asarida Asadbek obrazi qanday talqin qilinadi? degan savolni tushunish uchun faqat bitta jumla yoki paragrafni emas, butun asarning syujetini, muallifning stilistik

yondashuvini va ijtimoiy kontekstni hisobga olish kerak bo'ladi, ya'ni bu makromatn darajasidagi tahlilni talab qiladi.

MAKSIMA-TAMOYILLAR – muloqot davomida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlovchi, nutqning samaradorligi va mantiqiyligini belgilovchi asosiy pragmatik mezonlardir. Ular ingliz faylasufi Pol Grays tomonidan 1975-yilda taklif qilingan va uning mashhur Hamkorlik tamoyili bilan bevosita bog'liq. Graysga ko'ra, odamlar muloqot qilayotganda o'zaro tushunishni ta'minlash uchun ma'lum qoidalarga ongli yoki ongsiz ravishda rioya qiladilar. U bu qoidalarni to'rtta asosiy maksimaga ajratgan: birinchi – miqdor maksimasi, ya'ni keraklicha ma'lumot berish (ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan ma'lumot noto'g'ri tushunishga olib keladi); ikkinchi – sifat maksimasi, bu rostgo'ylikni talab qiladi (so'zlovchi yolg'on yoki dalilsiz gaplardan saqlanishi lozim); uchinchi – moslik yoki aloqadorlik maksimasi, bunda gap mavzuga tegishli bo'lishi kerak; to'rtinchi – uslub maksimasi, ya'ni gapni tushunarli, tartibli, qisqa va aniq shaklda ifodalash zarur. Bu maksimalar nutq samaradorligining poydevori hisoblanadi. Ammo real hayotda ular doim ham to'liq bajarilmaydi. Ayrim hollarda so'zlovchi ataylab maksimalarni buzib, bilvosita ma'no (implikatura) yaratadi. Masalan, "Men bu filmni tomosha qildim" deyilganida, ohang yoki kontekstga ko'ra film yomon deb baholanayotgan bo'lishi mumkin. Shunday implikaturalar muloqotga konnotativ, kinoyaviy yoki ironik ma'nolar olib kiradi. Grays maksimalari pragmatikaning nazariy asoslaridan biri sifatida nutq aktlarini, kontekstda anglash jarayonini va bilvosita muloqot strategiyalarini tushuntirishda muhim vosita sanaladi. Ular zamonaviy lingvistik pragmatika, sotsiopragmatika, nutq aktlari nazariyasi, diskurs tahlili kabi sohalarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, bu maksima-tamoyillar har qanday tilshunoslikda, ayniqsa kommunikativ kompetensiyani baholashda zarur tushuncha hisoblanadi.

MA'NO TORAYISHI – leksik pragmatika doirasidagi hodisa bo'lib, so'zning lug'aviy jihatdan keng ma'nosi nutq kontekstida torroq, ixtisoslashgan ma'noda qo'llanilishi bilan tavsiflanadi. Pragmatik jihatdan, bu jarayon so'zlovchining niyatini aniq yetkazish va tinglovchining uni to'g'ri talqin qilishi uchun xizmat qiladi; ya'ni, kontekst, ijtimoiy bilimlar va vaziyatga asoslanib,

soʻzning maʼnosi toraytiriladi. Masalan, “U ichadi” degan gap spirtli ichimlik isteʼmolini anglatadi, garchi “ichish” soʻzi har qanday suyuqlikni qamrab olsa-da. Maʼno torayishi relevans nazariyasi nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir, chunki tinglovchi har doim eng dolzarb, kontekstga mos maʼnoni izlaydi. Bu hodisa semantik soddalashtirish, ijtimoiy stereotiplar, nutq aktlari va hatto metaforik ifodalarda ham uchrab, nutqning moslashuvchan va tejamkorlik tabiatini ifodalaydi.

MATN (ing.text) – til birliklarining strukturaviy va semantik jihatdan uzviy bogʻlangan majmuasidir. U muloqot davomida maʼno hosil qilish, uzatish va tushunishni taʼminlovchi asosiy kommunikativ birlik hisoblanadi. Matn nafaqat grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilgan gaplar ketma-ketligi, balki muayyan ijtimoiy, madaniy va kontekstual holatlarda paydo boʻladigan maʼno birligidir. Matnning mavjudligini taʼminlovchi belgilarning yetti talqini matnni oddiy yozma forma emas, balki murakkab muloqot hodisasi sifatida talqin etadi. Ular – bogʻliqlik, izchillik, niyatga yoʻnaltirilganlik, qabul qilinuvchanlik, informativlik, vaziyatga moslik va matnlararo aloqadorlik – matnni tildan tashqari omillar bilan bogʻlaydi va uni diskurs maydoniga olib chiqadi. Matn, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarning aks sadosi boʻlib, u ijtimoiy kuchlar, mafkura va hokimiyat munosabatlarini ham aks ettirishi mumkin. Masalan, diskurs tahlili nuqtayi nazaridan matn – shunchaki tildagi birlik emas, balki madaniy-belgilovchi tizimlar orqali ijtimoiy voqelikni tashkil etadigan vositadir. Bernshteyn (1990) uni “ijtimoiy munosabatlarning shakliga” tenglashtiradi, Talbot (1995) esa “diskurslar roʻyobga chiqadigan toʻqima” deb ataydi. Matnning mavjudligi va tahlili faqat grammatik vositalarga asoslanmaydi; aksincha, pragmatik va semiotik jihatlar ham matnni shakllantiradi. Matn orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki insonlar oʻz oʻrnini belgilaydi, ijtimoiy rollarni anglaydi va madaniy kodlarni faollashtiradi. Shu sababli, matnni tushunish bu tilni emas, balki til orqali yaratiladigan maʼnaviy va ijtimoiy makonni anglashdir.

MATN ATRIBUTSIYASI – matnning muallifini aniqlash yoki uning muayyan shaxsga tegishli emasligini isbotlash jarayoni. Ushbu amaliyot lingvistik kriminalistika, mualliflik huquqini himoya qilish va manbashunoslik tadqiqotlarida qoʻllanadi, bunda matnning leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

MATN KORPUSI – muayyan til, uslub yoki mavzuga oid yozma yoki og‘zaki matnlarning tizimli va elektron shaklda jamlangan, tartiblangan hamda lingvistik tadqiqotlar uchun mo‘ljallangan to‘plamidir. Matn korpusi til birliklarining real nutqiy qo‘llanishini tahlil qilish, statistik modellar tuzish, leksik va grammatik qonuniyatlarni aniqlash, so‘zlarning kontekstda ishlatilishini o‘rganish hamda kompyuter lingvistikasi tadqiqotlarini olib borish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda har bir matn aniq belgilangan formatda saqlanadi, ko‘pincha morfologik, sintaktik va semantik belgilanishlar (annotatsiyalar) bilan boyitilgan bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilining zamonaviy matn korpusi orqali so‘zlarning qo‘llanish chastotasi, kollokatsiyalari, sinonimik variantlari va stilistik xususiyatlari aniqlanishi mumkin. Matn korpusi tilshunoslik, tarjima nazariyasi, pragmatika, stilistika va sun‘iy intellekt sohalarida keng qo‘llaniladi.

MATN PRAGMATIKASI – matnning nafaqat semantik va strukturaviy xususiyatlarini, balki u orqali amalga oshiriladigan kommunikativ maqsad, so‘zlovchi va o‘quvchi (yoki tinglovchi) o‘rtasidagi pragmatik munosabat, matnning sotsiomadaniy kontekstdagi funksiyasi va ta’sirchanlik darajasini o‘rganadigan yo‘nalishdir. Matn pragmatikasi matn yaratuvchisining intensionalligi (ya’ni maqsadli nutq niyati), presuppozitsiyalar, implikaturalar, diskursiv strategiyalar, matnning sath osti (implicit) ma’nolari va stilistik vositalarning kommunikativ yukini tahlil qiladi. Bu yo‘nalishda matn ichida yuz beradigan yuzga tahdid, muloqot pozitsiyasi, adresant va adresat orasidagi ijtimoiy masofa va kommunikativ rollarning ifodalanishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy matnlar, reklama, publitsistik, siyosiy va diniy nutqlar matn pragmatikasining asosiy tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi.

MATN PROYEKSIYASI – ma’lum bir matnni o‘qish yoki tinglash jarayonida retsipyent ongida hosil bo‘ladigan, matnning semantik va sintaktik mazmunini aks ettiruvchi ichki model. Bu model individual bo‘lib, o‘quvchi yoki tinglovchining tajribasi, bilimlari va kontekst haqidagi tushunchalariga bog‘liq ravishda shakllanadi.

MAVZU – gap yoki matnda so‘zlovchining e’tibor markazida turgan va tinglovchi uchun tanish bo‘lgan axborot bo‘lagi bo‘lib, u

gapning yoki nutqning nima haqida ekanini belgilaydi. U axborot oqimini tartibga soladi va muloqot ishtirokchilari o'rtasida umumiy tushunishni ta'minlaydi. Mavzu gap darajasida ham, matn yoki nutq darajasida ham yuzaga chiqib, muloqot kontekstiga qarab dinamik tarzda shakllanadi. Pragmatik nuqtayi nazardan, mavzu muloqotning relevantligini, presuppozitsiyasini va kommunikativ niyatini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OIDLIK TAMOYILI – Pol Greysning Hamkorlik tamoyili doirasidagi uchinchi kommunikativ maksima bo'lib, muloqot ishtirokchilari nutq davomida faqat suhbat mavzusiga bevosita aloqador bo'lgan fikrlarni bildirishi kerakligini taqozo etadi. Bu tamoyilga ko'ra, har bir javob, izoh yoki savol muloqot kontekstiga mos va dolzarb bo'lishi lozim. Tamoyil qisqacha quyidagicha ifodalanadi: "Suhbat uchun dolzarb bo'lgan narsani ayt." Ushbu tamoyil pragmatikada nutqning izchilligi va muloqotning mantiqiy rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, agar kimdir sizdan: "Bugun dars bo'ldimi?" deb so'rasa, sizning "Ha, dars kechki soat uchda bo'ldi" kabi javobingiz mavzuga oidlik tamoyiliga muvofiqdir. Ammo "Men bugun bozordan olma oldim" kabi mavzuga aloqasiz javob bu tamoyilning buzilganidan dalolat beradi.

"MAQTOV" MULOQOT STRATEGIYASI – suhbatdoshning shaxsiy sifatlari yoki faoliyati natijalarini ijobiy baholash orqali muloqot jarayonini iliqlashtirish va ijobiy muhit yaratishga qaratilgan nutqiy strategiya. Bu strategiya ko'pincha motivatsiya berish, ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy yaqinlikni oshirish vositasi sifatida qo'llanadi.

MELIORATIV BIRLIKLAR – obyektga nisbatan ijobiy munosabatni ifodalaydigan baholovchi leksik birliklardir. Ular orqali so'zlovchi maqtov, e'tirof, iliqlik yoki hurmat bildiradi. Bunday birliklar, odatda, ijobiy yuzga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy yaqinlikni mustahkamlash, iliq muhit yaratish maqsadida qo'llanadi. Misollar: mehribon, fidokor, jasur, donishmand, hurmatli. Sinonimlari: ijobiy baho aktlari, meliotiv birliklar, iltifot ifodalovchi birliklar.

MENTAL AKT– tilshunoslik va pragmatika doirasida mental akt so'zlovchi va tinglovchi ongida kechadigan idrok jarayonini ifodalaydi. M. Hakimov ta'rifiga yaqin yondashuvda, bu hodisa so'zlovchining kommunikativ niyati bilan tinglovchi ongida hosil bo'ladigan tasavvurning o'zaro mos kelishini anglatadi. Bunda

verbal ifoda vositalari orqali tinglovchi tasavvuriga ma'no yetkazish jarayoni yuz beradi. Mental akt nafaqat lingvistik shaklning o'zini, balki uning ortidagi ma'no, muloqot sharoiti, va ijtimoiy-madaniy kontekstni ham qamrab oladi. U pragmatik tahlilda, ayniqsa, muloqot samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

MENTAL MAYDONLAR–diskurs davomida real vaqt rejimida shakllanadigan va o'zgarib boradigan kognitiv tuzilmalar bo'lib, ular so'zlovchining qisqa muddatli xotirasida saqlanadi. Jan Faukonye va Mark Turner tomonidan kognitiv tilshunoslikka kiritilgan ushbu tushuncha konseptual integrallashuv nazariyasi va mental maydonlar nazariyasining markaziy elementi hisoblanadi. Mental maydonlar nutq jarayonida turli bilim segmentlarini vaqtincha faollashtirib, ma'no yaratish, metafora hosil qilish, kontekstga mos tushunchalarni bog'lash imkonini beradi. Ular dinamik xususiyatga ega bo'lib, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro idrok jarayonida doimiy ravishda yangilanadi va moslashadi.

METAFORA – tilshunoslikda va pragmatikada keng o'rganiladigan obrazli ifoda vositasi bo'lib, u orqali bir narsa yoki hodisaning xususiyati boshqa narsa bilan qiyosiy yoki ramziy ravishda ifodalanadi. Metafora odatda so'zlovchining literal ma'noni chetlab o'tib, bilvosita, kontekstual ma'noda o'z fikrini yetkazish istagi bilan yuzaga keladi. Masalan, "Hayot bir daryo" degan jumlada hayotning davomiyligi, o'zgaruvchanligi va to'xtovsiz oqimi nazarda tutiladi – esa real daryo emas, balki tasavvuriy asosga ega. Tilshunoslikda metaforalar ikki asosiy turga bo'linadi: ijodiy (yangi) va o'lik (leksiklashgan) metaforalar. Ijodiy metaforalar yangi kontekstda yuzaga kelib, tinglovchining e'tiborini tortuvchi va o'ziga xos interpretatsiyani talab qiluvchi ifodalar bo'lsa, o'lik metaforalar kundalik tilga singib ketgan, literal ma'nodagi ifodalar singari idrok etiladigan birikmalardir (masalan, "yurak og'ridi" iborasi emotsional azobni bildiradi). Bunday metaforalar uzoq vaqt davomida ishlatilganligi bois o'zining obrazlilik kuchini yo'qotgan bo'ladi. Pragmatik nuqtayi nazardan esa, metafora so'zlovchining kommunikativ niyatini anglashda muhim vosita hisoblanadi. Graysning hamkorlik prinsipiga ko'ra, metafora so'zlovchining rostgo'ylik maksimasini yuzaki buzgandek tuyulsa-da, aslida u implicatura vositasi orqali yangi, kontekstga mos ma'no beradi.

Masalan, “U kitob qurti” degan gapda “kitob o‘qishni yaxshi ko‘radi” degan implikatura yotadi.

METALINGVISTIK INKOR – gapning mazmunini emas, balki uning lingvistik shaklini (so‘z tanlovi, grammatik qurilishi, urg‘usi yoki talaffuzi) noo‘rin deb topish va to‘g‘rilash hodisasidir. U oddiy inkordan farqli ravishda aytilgan fikrning mazmunini emas, balki uni qanday shaklda aytilganini tanqid qiladi. Masalan, kimdir “Ular bu narsani analiz qildi” desa, javoban “Yo‘q, ‘tahlil qildi’ deb aytiladi” deyilsa – metalingvistik inkor hisoblanadi. Bunday inkor tilda aniqlik, adabiy me‘yor va to‘g‘ri ifodani ta‘minlashda muhim pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi.

METALINGVISTIKA – tildan foydalanib tilning o‘zi haqida mulohaza yuritish jarayonidir. Bunday holatda nutq ishtirokchisi so‘zlar yoki gaplar orqali tashqi dunyo haqida emas, balki aynan til birliklarining shakli, tuzilishi, imlosi yoki ma‘nosi haqida so‘z yuritadi. Bu holat asosan so‘z ma‘nosini aniqlashtirish, talaffuzni tuzatish, yoki gapdagi grammatik xatoga e‘tibor qaratish orqali yuzaga chiqadi. Masalan, kimdir: “*Baraka degani nima bo‘ladi?*” deb so‘rsa, u bu so‘zning ishlatilishidan ko‘ra, uning lug‘aviy yoki semantik jihatiga e‘tibor qaratmoqda. Shuning uchun bu holat metatilshunoslik hodisasi hisoblanadi. Tilshunos Roman Yakobson bunday til holatini tilning metalingvistik funksiyasi sifatida ko‘rsatgan bo‘lib, bu funksiyaning asosiy vazifasi tildagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish, aniqlik kiritish va tilni tahlil qilishdan iboratdir.

METONIMIYA – biror shaxs, obyekt yoki hodisaga u bilan bog‘liq boshqa bir birlik orqali ishora qilish vositasi bo‘lib, pragmatik jihatdan u kontekstga asoslangan bilvosita referensiya (ya‘ni ishora) vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Metonimik ifoda orqali so‘zlovchi o‘z fikrini bevosita emas, balki tinglovchi bilan o‘rtadagi umumiy bilim, madaniy tajriba va konversatsion kontekst asosida yetkazadi. Masalan, “Qovurdoq 3-stolga bordi” deganda, taom emas, uni buyurtma qilgan mijoz nazarda tutiladi. Yoki “Mahalla bugun hokimiyatga bordi” deganda, butun mahalla emas, balki uning vakillari nazarda tutiladi. Pragmatik jihatdan metonimiya nutqning tejamliligini ta‘minlaydi, referensiyani soddalashtiradi, muloqotni ijtimoiy mazmun bilan boyitadi va muloqot ishtirokchilari o‘rtasida kognitiv yaqinlik hosil qiladi. Bu

uni til va tafakkurda nafaqat stilistik, balki funksional-kommunikativ jihatdan ham yuqori darajada ahamiyatli strategiyaga aylantiradi.

MIKROMATN (microtext, yun. mikros – “kichik” va lot. textus – “matn, to‘qima”) – nutq yoki matnning ichki kontekstual tizimi bo‘lib, u gaplar orasidagi bog‘lanish, indekslibirliklar, resuppozitsiyalar va implikaturalarning talqiniga asoslangan holda semantik hamda pragmatik ma‘no hosil qilish jarayonini tashkil etadi, ya‘ni tinglovchi yoki so‘zlovchi matndagi referentlarni aniqlash va diskursda mavjud semantik strukturalarni anglash orqali uni tushunadi, masalan, “U bugun kelmaydi, chunki kasal” gapida “u” indekslibirlik bo‘lib, uning referenti mikromatn doirasida oldingi gaplar yoki kontekst orqali aniqlanadi, shuningdek, “chunki kasal” iborasi presuppozitsiyaga asoslangan bo‘lib, faqat mikromatn ichidagi axborotlar yordamida talqin qilinadi, shu sababli mikromatn pragmatik interpretatsiyaning lokal darajadagi shakllanish jarayonini ta‘minlaydi va muloqotning samarali kechishiga yordam beradi.

MILLIY-MADANIY PRESUPPOZITSIYA – presuppozitsiya faqat lingvistik emas, balki ekstralingvistik – ya‘ni madaniyat, urf-odat, mentalitet, tarixiy tajriba kabi omillarga asoslanadi. U ko‘pincha ko‘chma ma‘nodagi ifodalar, metaforalar, frazeologik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. So‘zlovchi aytgan gapda yashirin holda shu xalqning tarixiy, madaniy tajribasi yotadi. Masalan, “Qo‘shnichilik – ming yillik” degan gapda “qo‘shni” so‘zining faqat yon-atrofda yashovchi odam emas, balki ijtimoiy jihatdan yaqin, mehr-oqibatli munosabatdagi inson degan madaniy presuppozitsiyasi yashirin. Shu jihatdan, bu turdagi presuppozitsiyani to‘g‘ri tushunish uchun madaniy kontekstni ham bilish zarur bo‘ladi.

M-IMPLIKATURA – Steven Levinson tomonidan ishlab chiqilgan M-prinsip asosida shakllangan bo‘lib, Graysning uslub maksimasi (ya‘ni, “aniq bo‘l” qoidasi) bilan bog‘liq hisoblanadi. Bu prinsipi asosida so‘zlovchi eng oddiy, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda o‘rniga murakkabroq yoki noan‘anaviy shakldagi ifodani tanlaganida, bu shakl ortida maxsus yoki yashirin ma‘no borligi taxmin qilinadi. Ya‘ni, nutqning o‘zi emas, qanday aytilganligi diqqat markazida bo‘ladi. Masalan, kimdir “Kitob bir muallif tomonidan yozilgan” desa, tinglovchi “Muallif kitob yozgan” degan sodda shakl o‘rniga bunday

shakl tanlanganiga qarab, muallif o'rniga boshqasi yozgan, yoki bu ish topshirilgan, yoki texnik vosita orqali yozilgan bo'lishi mumkin degan odatdan tashqari (nooddiy) taxminlar qiladi. Bunday implikatsiyalar parafraz, murakkab sintaktik konstruktsiyalar, leksik stilizatsiyalar yoki intonatsion urg'ular orqali hosil bo'ladi. M-implikatura nutqiy vositaning tanlovi orqali tinglovchini kengroq kontekstga yo'naltiradi, ya'ni bu oddiy axborot uzatishdan ko'ra murakkabroq ijtimoiy, psixologik yoki madaniy ma'nolarni yetkazishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham M-implikatura, ayniqsa, badiiy adabiyot, nutqiy strategiyalar, ironik ifodalar yoki muqobil bayonlarda ko'p uchraydi va pragmatik kompetensiyani tahlil qilishda muhim hisoblanadi.

MIQDOR TAMOYILI – Pol Grays tomonidan ilgari surilgan nutq maksimalaridan biridir va u Hamkorlik tamoyilining asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, so'zlovchi tinglovchiga zarur bo'lganicha ma'lumot berishi kerak: na ortiqcha, na yetarlicha bo'lmagan tarzda. Ya'ni, aytilayotgan fikr muloqot maqsadi uchun kerakli va yetarli bo'lishi lozim. Bu tamoyil nutqdagi lo'ndalik, mantiqiylik va aniqlikni ta'minlaydi. Masalan, kimdir so'rsa: "Bugun kimlar keldi?" – deb, javob: "Sherzod keldi," – deyilsa, bu yetarli. Ammo "Sherzod, Bahrom, Xurshid, Murod, Safar, yana ko'pchilik keldi" deyish ortiqcha ma'lumot bo'lib, miqdor tamoyilini buzadi. Aksincha, "Kimdir keldi" deyish esa yetarli emas, chunki u aniq javob bermaydi. Miqdor tamoyili buzilganda, muloqot ishtirokchilari noto'g'ri yoki chalg'ituvchi tushunishga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu tamoyil pragmatikaning asosiy prinsipi sifatida muloqot mazmunining samaradorligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

MODULLILIK – inson ongining yoki til tizimining bir butun bo'lmay, turli ixtisoslashgan kognitiv modullardan tashkil topgan murakkab tuzilma ekanligini ifodalaydigan nazariy yondashuvdir. Ushbu yondashuvga ko'ra, til tizimi ham avtonom ishlovchi bo'limlardan iborat bo'lib, har bir modul (masalan, fonologik, morfologik, sintaktik, semantik, pragmatik) o'z funksiyasini mustaqil va tezkor tarzda amalga oshiradi. Modullilik til hodisalarini ongda qayta ishlash, idrok etish va ishlab chiqishning tizimli va avtomatik xususiyatlarini tushuntirishda muhim metodologik asos hisoblanadi.

MORFOPRAGMATIKA – morfologik vositalarning, ya'ni qo'shimchalar, affikslar, yasalma birliklarning muloqot jarayonidagi kommunikativ vazifalarini, nutqdagi ijtimoiy, psixologik va pragmatik ta'sirini o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishidir. Ushbu soha so'zlovchining illokutsional maqsadi, muloqotdagi ijtimoiy masofa, ehtirom darajasi, baholovchanlik, muloyimlik yoki emotsional munosabat kabi unsurlarni grammatik vositalar orqali qanday ifodalashini tahlil qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi "-lar" ko'plik affiksi nafaqat grammatik ko'plikni, balki hurmat va ehtiyotkorlikni ham bildirishi mumkin: "Otasi keldi" bilan "Otalari keldi" gaplari o'rtasidagi pragmatik tafovut aynan morfologik vosita orqali yuzaga chiqadi. Morfopragmatika aynan shunday holatlarni aniqlash va ularning nutqdagi kommunikativ ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu yo'nalish morfologik shakllarning kontekstga, ijtimoiy vaziyatga va so'zlovchining strategik tanlovlariga bog'liq ravishda qanday ma'no va ta'sir kasb etishini chuqur o'rganadi.

MULOQOT JUFTLIGI – suhbat jarayonida ketma-ket keladigan bog'liq nutq birliklari bo'lib, biri ikkinchisiga javob vazifasini bajaradi. Ular odatda savol-javob (Siz bugun darsga keldingizmi? – Ha, keldim), salomlashish (Assalomu alaykum! – Va alaykum assalom!), minnatdorchilik va javob (Rahmat! – Arzimaydi!), taklif va qabul qilish yoki rad etish (Choy ichasizmi? – Ha, ichaman yoki Yo'q, rahmat) kabi shakllarda bo'ladi. Bu juftliklar ijtimoiy va pragmatik normalar asosida shakllanadi hamda suhbatning izchil davom etishini ta'minlaydi.

MULOQOT NORMALARI – ijtimoiy-madaniy hamjamiyat tomonidan qabul qilingan, muloqot ishtirokchilarining bir-biri bilan muomala qilishda amal qilishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalari, til etiketi, nutqiy andozalar va ijtimoiy kutishlar tizimidir. Bu normalar muloqotning samaradorligini ta'minlaydi, nutqiy xatti-harakatlarni tartibga soladi, so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Muloqot normalari til vositalarining rasmiy-norasmiy shakllarini tanlash, salomlashish, murojaat qilish, so'rash, rad etish, iltimos bildirish, tanbeh berish kabi vaziyatlarda muomala mezonlarini belgilaydi. Ular madaniyatga, ijtimoiy kontekstga, yosh, jins, kasb, mavqe, til uslubi va rasmiylik darajasiga qarab farqlanadi. Masalan, o'zbek tilida

yoshi ulug' kishi bilan gaplashganda sizlash, hurmat shakllaridan foydalanish, ohangni pasaytirish – muloqot normalarining asosiy talablaridan hisoblanadi. Bu normalarning buzilishi esa tinglovchi tomonidan tahqir, hurmatsizlik yoki yuzga tahdid sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu sababli, muloqot normalariga amal qilish tilning nafaqat lingvistik, balki sotsiopragmatik jihatdan ham to'g'ri qo'llanilishini ta'minlaydi.

MULOQOT STRUKTURASI – ikki yoki undan ortiq ishtirokchi o'rtasida axborot almashinuvi, ijtimoiy munosabatlar o'rnatish yoki saqlash maqsadida amalga oshadigan nutqiy faoliyatning ichki tarkibiy tuzilmasidir. Bu struktura odatda kommunikativ intensiya, so'zlovchi va tinglovchi roli, mavzu (tema), kontekst, verbal va neverbal vositalar, nutq aktlari, javob reaksiyasi, interaktiv strategiyalar va muloqotning pragmatik va madaniy komponentlaridan iborat bo'ladi. Muloqot strukturasi nafaqat axborot uzatishni, balki ijtimoiy rollarni ifodalash, ijtimoiy masofani belgilash, yuzni saqlash yoki strategik ta'sir o'tkazishni ham o'z ichiga oladi. U ketma-ketlik, navbat bilan almashinuv (turn-taking), qo'shimcha izohlar (feedback), va kontekstual moslik orqali tashkil topadi. Muloqotning strukturaviy yaxlitligi, ishtirokchilarning kommunikativ kompetensiyasiga, til vositalarini ongli tanlashi va muloqot maqsadlariga muvofiq harakat qilishi bilan bevosita bog'liq.

MULOQOTNING BEVOSITA TALQIN NAZARIYASI – yondashuvga ko'ra, tinglovchi nutq ma'nosini tushunish uchun so'zlovchining niyatini tahlil qilishi yoki yashirin ma'nolarni izlashiga hojat yo'q, balki aytilgan so'zlarning bevosita ma'nosi asosida anglaydi. Masalan, kimdir "Qaychi gilam ustida turibdi" desa, tinglovchi bu ma'lumotni so'zlovchining niyatiga e'tibor bermasdan, fakt sifatida qabul qiladi, xuddi qaychini o'z ko'zi bilan ko'rgandek. Bu nazariya pragmatikada xulosa chiqarish va muloqotning niyatga asoslangan talqinidan ko'ra, bevosita sezgi va qabul qilish muhimroq ekanini ta'kidlaydi.

MUNOSABAT O'RNATUVCHI FUNKSIYASI – til vositalari orqali so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida ijtimoiy-psixologik aloqani o'rnatish va mustahkamlashga xizmat qiluvchi kommunikativ funksiyadir. Ushbu funksiya salomlashish, xayrlashish, kechirim so'rash, minnatdorchilik bildirish, hol so'rash kabi ijtimoiy muomala vositalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu turdagi nutqiy aktlar

sotsiopragmatik jihatdan o'zaro hurmat, ijtimoiy masofa va til odatlariga asoslanadi. Sinonim terminlar – fatik funksiya (R. Yakobson modeli), kommunikativ aloqa o'rnatish funksiyasi.

MUROJAAT SHAKLLARI – odatda otlardan iborat bo'lgan va odamlarni nomlashda ishlatiladigan so'zlardir. Ular turli ijtimoiy hodisalarni ifodalaydi. Ba'zilar murojaatdagi rasmiylik darajasini bildiradi. Masalan, ingliz tilida “Mr”, “Mrs”, “Sir”, “Dr” kabi faxriy unvonlar hurmat va masofa ifodalaydi va rasmiy kontekstlarda qo'llaniladi. Boshqalari esa, masalan “darling”, “love”, “mate”, “dude” kabi so'zlar norasmiy munosabatlarni bildiradi. Demak, murojaat shakllari xushmuomalalikning turli ko'rinishlarini, shuningdek, murojaatchi bilan tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy masofani ifodalaydi. Ular orqali insonlar o'zaro munosabat darajasini belgilab, ijtimoiy kontekstga mos ravishda hurmat, do'stona yaqinlik yoki masofani bildiradi. O'zbek tilida bunga misol bo'lib “aka”, “opa”, “domla”, “jonim”, “bolam”, “ukam”, “xola” kabi murojaat birliklarini keltirish mumkin. Bu so'zlar yordamida so'zlovchi tinglovchining yoshi, ijtimoiy mavqei yoki yaqinligini hisobga olgan holda tilni moslashtiradi.

MUTLAQ SOTSIAL DEYKSIS – turdagi deyksisda sotsial statuslar qat'iy aniqlangan va doimiy bo'lib, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy masofa oldindan belgilangan lisoniy vositalar orqali ifodalanadi. Bu holatlarda til birligi so'zlovchining tinglovchiga yoki boshqa bir shaxsga nisbatan aniq ijtimoiy maqomini aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilida “siz” va “sen” murojaat shakllari so'zlovchi va tinglovchi orasidagi ijtimoiy maqom, yosh, hurmat darajasi yoki rasmiylikka asoslangan farqni ko'rsatadi. Yoki ierarxik munosabatlarda “janob prezident”, “muallim”, “ustoz” kabi unvonlar orqali ijtimoiy pozitsiya mutlaq tarzda belgilanadi.

N

NEYTRAL BIRLIKLAR – baholovchi komponentga ega bo'lmagan, ya'ni so'zlovchining subyektiv munosabatini aks ettirmaydigan leksik birliklardir. Ular axborotni xolis yetkazishga xizmat qiladi. Biroq kontekstga qarab, ular emotsional ohang orqali baholovchi tus olishi mumkin. Misollar: daftar, qalam, stol, devor,

o'qituvchi. Sinonimlari: nol qiymatli birliklar, bahosiz leksik birliklar, betaraf nomlar.

NISBIY SOTSIAL DEYKSIS – turdagi deyksisda ijtimoiy munosabatlar va maqomlar kontekstdan kelib chiqib baholanadi. Ya'ni, so'zlovchi o'zining ijtimoiy mavqeyi va munosabatini aynan tinglovchining yoki uchinchi shaxsning holatiga nisbatan belgilaydi. Bu nisbiylik til birligining tanlanishida, ohangda yoki uslubda namoyon bo'ladi. Masalan, bir do'stlar davrasida ishlatiladigan "aka", "opa" kabi murojaatlar shunchaki hurmat ifodasi bo'lishi mumkin, biroq rasmiy muhitda ular boshqa ijtimoiy konnotatsiyani bildiradi. Bu turdagi sotsial deyksis odatda madaniy kontekst, nutq vaziyati va suhbat ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari bilan belgilanadi.

NOANIQLIK (ambiguity) – til birliklarining bir nechta talqinga ega bo'lishi bo'lib, u leksik va strukturaviy shakllarda namoyon bo'ladi. Leksik noaniqlik so'zning turli semantik ma'nolarni anglatishidan kelib chiqadi, masalan, "Uning qog'ozi tugabdi" gapida qog'oz yozish uchun material yoki rasmiy hujjat sifatida tushunilishi mumkin. Strukturaviy noaniqlik esa gapning sintaktik tuzilishi sababli yuzaga keladi, masalan, "Shifokor bemorni ukasi bilan ko'rdi" gapida shifokor bemorning ukasi bilan ko'rishgani yoki shifokor bemor va uning ukasini ko'rgani aniq belgilanmagan. Noaniqlik semantik va pragmatik kontekst yordamida hal etiladi, chunki nutq vaziyati aniq talqinni aniqlashga yordam beradi.

NOLISONIY VOSITALAR – so'zsiz tarzda, ya'ni til birliklarisiz amalga oshadigan, ammo muloqot jarayonida muhim rol o'ynaydigan ifoda vositalaridir. Ular mimika (yuz ifodalari), gesture (imo-ishoralar), tana holati, nigoh, pauza, intonatsiya, ovoz balandligi, tana masofasi (proksemika) kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Bu vositalar ko'pincha hissiy holatni, munosabatni yoki yashirin niyatni ifodalashda ishlatiladi. Ular quyidagi atamalar bilan ham yuritiladi: noverbal vositalar (tilga asoslanmagan vositalar), ekstralingvistik vositalar (til tizimidan tashqaridagi ifoda vositalari) va paralingvistik vositalar (tilning fonetik, intonatsion yoki pauzali jihatlarini ifodalovchi yordamchi elementlar). Nolisoniy vositalar ko'pincha lisoniy vositalarni to'ldiradi, kuchaytiradi yoki ularga zid pragmatik signal beradi.

NONIERARXIK MUNOSABAT esa ishtirokchilar teng maqomda bo'lgan, yaqinlikka asoslangan holatlarda kuzatiladi. Bunday muloqotda so'zlovchi til vositalarini erkinroq tanlaydi, rasmiylik darajasi past bo'ladi va nutqda soddalik, o'zaro tushunuvchanlik ustuvorlik qiladi. Masalan, tengdosh do'stlar o'rtasidagi "Nima gap?" kabi ifodalar nonierarxik muloqotga misoldir. Pragmatik jihatdan ierarxik va nonierarxik munosabatlar muloqotdagi yuzga tahdid, xushmuomalalik strategiyalari va nutq aktlarining tanlanishini belgilovchi muhim omillardandir.

NOVERBAL VOSITA – muloqotda tilga asoslanmagan, ya'ni so'zsiz tarzda amalga oshiriladigan ifoda shakllari bo'lib, mimika, imo-ishoralar, tana holati, nigoh, pauza, tana masofasi (proksemika), ohang (intonatsiya) va ritm kabi vositalarni o'z ichiga oladi. Noverbal vositalar so'zlovchining emotsional holati, munosabati yoki ijtimoiy roli haqida axborot beradi va ko'pincha verbal ifodani to'ldiradi, kuchaytiradi yoki unga zid bo'lgan signallarni bildiradi. Ular muloqotning sotsiopragmatik talqinida alohida ahamiyatga ega.

NUTQ AKTI – muloqot jarayonida bajariladigan ijtimoiy funksiyalarga ega bo'lgan nutq birliklaridir. Ya'ni, odamlar so'zlash orqali nafaqat ma'lumot yetkazadi, balki iltimos qiladi, salom beradi, ogohlantiradi, maslahat beradi, shikoyat qiladi yoki biror narsaga majbur qiladi.

NUTQ AKTINING BAJARILMASLIGI –nutq aktining tilshunoslik va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatsiz kechishi holatidir. J.L.Ostinning ta'kidlashicha, har qanday nutq akti faqatgina ma'lum shartlar (muvaffaqiyat shartlari) bajarilgandagina to'laqonli sodir bo'ladi. Agar bu shartlar buzilsa, aytilgan gap tashqi dunyoda hech qanday kuchga ega bo'lmaydi va natijada nutq akti amalga oshmaydi. Bu shartlar quyidagilardan iborat: (1) nutq akti an'anaviy rasmiy tartibga asoslangan bo'lishi va vaziyat hamda ishtirokchilar ushbu tartibga mos bo'lishi kerak; (2) nutq akti to'liq va to'g'ri bajarilishi kerak. Masalan, nikoh marosimida imom yoki FHDY xodimi bo'lmagan kishi "sizlarni er-xotin deb e'lon qilaman" desa, bu bayonot hech qanday huquqiy kuchga ega bo'lmaydi – ya'ni nutq akti bajarilmaydi. Yoki biror kishiga "sen ishdan bo'shatilding" deyish uchun, so'zlovchi tegishli vakolatga ega bo'lishi zarur; aks holda bu nutqiy aktning bajarilmasligi hisoblanadi.

NUTQ AKTINING BUZILISHI –nutq aktining muvaffaqiyatsiz bo'lishining ikki usulidan biri hisoblanadi. Nutq aktining buzilishi nutqiy aktning muayyan shartlarga javob bera olmagan yoki uning ishtirokchilari kutilgan xatti-harakatlarni bajarmagan natijasida yuzaga keladi. Masalan, agar so'zlovchi "Men sizning uyingizni bo'yashga va'da beraman" deb aytsa-yu, lekin bu ishni bajarish niyati bo'lmasa yoki niyati bo'lsa-yu, lekin amalda bajarmasa, bu abuse hisoblanadi. Shuningdek, kimdir garov o'ynab, lekin pul to'lash niyatida bo'lmasa ham abuse sodir bo'ladi. Agar u yutib ketsa, bu abuse hech qachon sezilmasligi ham mumkin.

NUTQ OBYEKTI – nutqiy faoliyat davomida so'zlovchi tomonidan til vositalari orqali ifoda etilayotgan shaxs, hodisa, predmet yoki tushuncha bo'lib, u nutq subyeksi tomonidan fikr yuritish, ta'riflash, baholash yoki unga nisbatan munosabat bildirish uchun tanlanadi. Boshqacha aytganda, nutq obyekti bu – so'zlovchining e'tibor markazida turgan, til birliklari orqali ifodalanayotgan ma'no markazi hisoblanadi. Nutq subyeksi mazmunni ishlab chiqadi, uni kommunikativ maqsadga yo'naltiradi, nutq obyekti esa ushbu mazmunning yo'nalgan nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "U bugun kechikdi" gapida nutq subyeksi – so'zlovchi shaxs, nutq obyekti esa "u" so'zida ifodalangan shaxsdir. Nutq obyekti ko'pincha shaxs olmoshlari, ismlar, terminlar, predmet nomlari yoki mavhum tushunchalar orqali ifodalanadi.

NUTQ SUBYEKTI – muloqot jarayonida til vositalaridan foydalanib, ma'lum bir mazmunni ifoda etuvchi va uni boshqa kishiga yetkazuvchi shaxsdir. U nafaqat axborotni yetkazuvchi, balki muloqotdagi pozitsiyani belgilovchi, kommunikativ vazifani bajaruvi va nutq jarayonining faol ishtirokchisi sifatida maydonga chiqadi. Nutq subyeksi o'zining ijtimoiy roli, bilimi, kommunikativ niyati, hissiy holati va pragmatik maqsadlariga qarab til vositalarini tanlaydi va ularni kontekstga mos holda qo'llaydi. Shuningdek, nutq subyeksi nafaqat so'zlovchi, balki ba'zan yozuvchi, eslatuvchi, hikoya qiluvchi yoki bahslashuvchi shaklida ham namoyon bo'ladi. Tilshunoslikda nutq subyeksi masalasi semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilinib, u "men" pozitsiyasi orqali ifodalangan shaxs sifatida o'rganiladi.

NUTQIY ETIKET – muloqot jarayonida so'zlovchilar o'zaro hurmat, o'dob va ijtimoiy me'yorlarni saqlagan holda foydalanadigan

til birliklari va nutqiy xatti-harakatlar majmui. U jamiyatning madaniy qadriyatlari, an'analari va ijtimoiy tuzilishidan kelib chiqadi. Nutqiy etiketga salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash, tabriklash kabi kommunikativ vazifalarni bajaruvchi iboralar kiradi. Bu birliklar muloqotning rasmiy yoki norasmiy bo'lishiga, suhbatdoshlarning yoshi, mavqei, ijtimoiy munosabatlariga qarab tanlanadi. Nutqiy etiket til va madaniyatning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi hamda xushmuomalalik strategiyalarining amaliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

NUTQIY INTENSIYA – so'zlovchining maqsadi yoki kommunikativ niyati bo'lib, u nutq aktining pragmatik jihatini belgilaydi. Nutqiy intensiya faqat grammatik va semantik jihatlarga emas, balki kontekst, suhbat ishtirokchilari va ijtimoiy vaziyatga ham bog'liq bo'lib, lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. U bevosita (ochiq ifodalangan) yoki bilvosita (kontekst orqali anglashiladigan) bo'lishi mumkin. Masalan, "Eshikni yoping!" degan gap bevosita buyruq yoki talab qilish intensiyasiga ega bo'lsa, "Xona juda sovuq" degan jumla bilvosita tarzda eshik yoki derazani yopishni anglatishi mumkin. Nutqiy intensiya so'zlovchining kommunikativ strategiyasini belgilab, uning maqsadini tinglovchiga yetkazishga xizmat qiladi, shu sababli uni to'g'ri talqin qilish muloqot samaradorligini oshiradi.

NUTQIY KOMPONENT – til tizimining kommunikativ jarayonda ishtirok etuvchi funksional va tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u fonetik, leksik-semantik, grammatik, pragmatik va diskursiv darajalarda namoyon bo'ladi. Har bir komponent mazmunli va maqsadga yo'naltirilgan nutqni hosil qilishda o'ziga xos rol o'ynaydi: fonetik komponent tovushlar va intonatsiyani, leksik-semantik komponent so'z va ularning ma'nolarini, grammatik komponent tuzilma va morfologiyani, pragmatik komponent esa nutqning kontekstga mosligi va kommunikativ maqsadini ifodalaydi, diskursiv komponent esa matn yaxlitligi va izchilligini ta'minlaydi. Nutqiy komponentlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ular til vositalarining mazmunli qo'llanishini va muloqot jarayonining samarali amalga oshirishini ta'minlaydi.

OMMAVIY IDENTIKLIK (PUBLIC IDENTITY)- pragmatik nuqtayi nazardan, shaxsning til orqali ijtimoiy guruhga mansubligini namoyon etuvchi va muloqot jarayonida tan olinadigan ijtimoiy identiklik shaklidir. U insonning gapirish uslubi, soʻz tanlovi, murojaat shakllari, mavqega mos til birliklari orqali ifodalanadi va muloqot ishtirokchilarining uni qanday qabul qilishiga bevosita taʼsir qiladi. Pragmatik jihatdan, ommaviy identiklik interaktiv diskurs orqali shakllanadi va muloqot davomida soʻzlovchining oʻzini qanday tutishi, qanday sotsial rolni namoyon qilishi bilan aniqlanadi. Masalan, oʻzini muallim, dindor, ishchi sinf vakili yoki ayol sifatida tutuvchi kishi oʻz identikligini nafaqat bevosita aytish orqali, balki tilning kontekstual, ijtimoiy jihatlari orqali bildiradi. Shunday qilib, ommaviy identiklik – til orqali ijtimoiy oʻzini namoyon qilish boʻlib, u har doim muloqot kontekstiga, auditoriyaga va ijtimoiy meʼyorlarga mos holda shakllanadi. Bu identiklikni pragmatik tahlil qilish orqali biz insonlarning qaysi ijtimoiy guruhlarga mansub ekanini, qanday til vositalari orqali oʻz oʻrnini belgilashini va bu identiklik qanday tan olinayotganini aniqlashimiz mumkin.

P

PERFORMATIV FORMULALAR – soʻzlovchining gap aytish orqali muayyan harakatni bevosita amalga oshiradigan nutqiy birliklaridir. Bunday formulalarda soʻzlovchining nutqi nafaqat biror voqeani taʼriflaydi, balki shu voqeani yuzaga keltiradi. Performatif formulalar Jon Ostinning nutq aktlari nazariyasida asosiy tushunchalardan biri boʻlib, “aytish bu – qilish” (saying is doing) tamoyiliga asoslanadi. Masalan, “Men sizga vaʼda beraman”, “Men aybdor deb topaman”, “Sizga ogohlantirish eʼlon qilaman”, “Men seni tabriklayman” kabi gaplarda soʻzlovchi aynan shu soʻzlarni aytish orqali vaʼda beradi, hukm chiqaradi, ogohlantiradi yoki tabriklaydi. Bunday formulalar koʻpincha birinchi shaxs birlikdagi feʼl (beraman, eʼlon qilaman, tayinlayman), rasmiy-uslubiy kontekst va maʼlum ijtimoiy maqom (masalan, sudya, oʻqituvchi, rahbar) bilan bogʻliq boʻladi. Performatif formulalar aniq illokutiv kuchga ega boʻlib, ularning pragmatik samarasi faqat aytilish jarayonida yuzaga chiqadi. Ular nutq aktining faollik jihatini bildiradi va aynan aytish

harakati orqali ijtimoiy-huquqiy, axloqiy yoki emotsional oqibatlariga olib keladi. Shu bois, performativ formulalar lingvopragmatik tahlil, rasmiy diskurs, institutlangan muloqot va madaniyatlararo kommunikatsiya doiralarida alohida ahamiyat kasb etadi.

PERFORMATIV – J.L.Ostinning nutq aktlari nazariyasiga ko'ra, illokutiv kuchga ega bo'lgan va bajarilayotgan nutq aktini bevosita bildiruvchi lingvistik tuzilma. Bunday performativlarda gapda ishlatilgan fe'l so'zlovchining bajarayotgan harakatini nomlaydi va shu orqali nutq aktini amalga oshiradi. Masalan: "Men sizni kechiraman" → Bu joyda "kechirish" harakati so'zlovchi tomonidan aynan bajarilmoqda. "Men sizni ushbu lavozimga tayinlayman" → "Tayinlayman" fe'li bilan nutq akti bajarilmoqda. Biroq, har bir nutq akti ekspressiv performativ bo'lavermaydi. Masalan, "Men seni haqorat qilaman" deyish haqoratga sabab bo'lmaydi, chunki haqorat qilish illokutiv harakat sifatida kontekst va intonatsiyaga bog'liq. Shu sababli, ekspressiv performativlarning mavjudligi fe'lning bevosita performativ kuchga ega bo'lishi bilan bog'liq va ular asosan huquqiy, rasmiy va institutsional nutq aktlarida uchraydi.

PERIFRAZA (yun. periphrasis – tasviriy ibora; kinoya, istiora) – borliqdagi narsa va voqealarning nomini to'g'ridan-to'g'ri atamasdan, ularni bilvosita, ya'ni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar bilan ifodalash; majoziy ifodalardan biri (mas, "sher" o'rnida "hayvonlar shohi"; "paxta" o'rnida "oq oltin"). Perifraza pragmatika nuqtayi nazaridan ma'lum bir tushunchani to'g'ridan-to'g'ri ifodalash o'rniga, bilvosita, murakkab yoki ortiqcha so'z ishlatish orqali yetkazish strategiyasidir. U xushmuomalalik (Braun & Levinson, 1987) va implikatura (Grays, 1975) tamoyillariga asoslanib, salbiy va ijobiy yuzni saqlash, bilvosita nutq aktlarini hosil qilish, evfemizm yaratish va suhbat maksimalarini buzish orqali tinglovchining kognitiv jarayoniga ta'sir qiladi. Perifraza kontekstga bog'liq bo'lib, u orqali so'zlovchi bevosita aytishdan qochib, suhbatdoshning interpretatsiyasiga yo'naltirilgan ma'no hosil qiladi, bu esa relevansiya nazariyasi (Sperber & Vilson, 1986) doirasida tushunish jarayonini faollashtiradi. Masalan, biror kishi "U qashshoq" demaslik uchun "U hayotning murakkab yo'llaridan o'tmoqda" desa, bu perifrazaning xushmuomalalik strategiyasiga asoslangan misolidir. Shuningdek, "U juda yomon qo'shiq kuyladi"

o'rniga "Uning ijrosi o'ziga xos va takrorlanmas bo'ldi" deyish orqali bilvosita istehzo (ironiya) ham hosil qilinishi mumkin.

PERLOKUTIV AKT – so'zlovchining aytgan gapi tinglovchiga qanday ta'sir qilganini, ya'ni nutq natijasida tinglovchining ruhiy holati, hissiy reaksiyasi yoki xatti-harakatidagi o'zgarishni bildiruvchi nutqiy harakat turidir. Ushbu tushuncha Jon Ostinning nutq aktlari nazariyasida uchinchi bosqich sifatida ko'rsatiladi: lokutiv akt (gapning lingvistik tuzilishi), illokutiv akt (so'zlovchining niyati), perlokutiv akt esa (gapning tinglovchiga ta'siri). Bunda asosiy e'tibor so'zlovchining emas, balki tinglovchining nutqqa bo'lgan real javobiga qaratiladi. Masalan, agar so'zlovchi "Hozir bu joydan chiqib ket!" desa va tinglovchi haqiqatan ham chiqib ketsa yoki o'zini xafa tutsa, bu perlokutiv akt yuzaga kelganini bildiradi. Yoki "Siz menga juda yordam berdingiz" degan gap tinglovchida minnatdorlik, quvonch yoki ijobiy hissiyot uyg'otsa, bu ham perlokutiv ta'sirdir. Perlokutiv aktlar, odatda, prognoz qilib bo'lmaydigan, kontekstga va tinglovchining psixologik holatiga bog'liq bo'lgan noaniq natijalardir. Shu bois, ular muloqotda kutilmagan yoki turlicha talqin qilinadigan pragmatik oqibatlariga olib kelishi mumkin.

PEYORATIV BIRLIKLAR – obyektga nisbatan salbiy munosabatni ifodalaydigan leksik vositalardir. Ular orqali so'zlovchi tanqid, mensimaslik, hafsala pir qilish yoki nafrat kabi hissiyotlarni ifoda etadi. Ko'pincha yuzga tahdid (FTA) strategiyalarida qo'llanadi. Misollar: dangasa, ahmoq, surbet, yolg'onchi, razil. Sinonimlari: salbiy baho aktlari, derogativ birliklar, tahqiriy birliklar.

PODTEKST – matn yoki nutqda ochiq aytilmagan, ammo kontekst, intonatsiya yoki situatsiyaviy vositalar orqali anglashiladigan yashirin ma'no yoki mazmuniy qatlamdir. Bu vosita orqali so'zlovchi o'z fikrini bilvosita yetkazadi. Masalan: "Bu yerda juda jim..." degan gap ostida "Bu hol menga yoqmayapti" degan fikr yotishi mumkin. Pragmatik jihatdan, bu turdagi ma'no tinglovchining sharoitga va umumiy bilimiga asoslanib to'g'ri anglashiga tayanadi.

PRAGMALINGVISTIKA – tilshunoslikning pragmatika va umumiy lingvistika bo'limlarini birlashtiruvchi mustaqil yo'nalish bo'lib, til birliklarining real muloqot jarayonida qanday ishlatilishini,

so'zlovchi va tinglovchining kommunikativ munosabatlarini, ularning intensionalligi, ijtimoiy rollari va nutqiy faoliyatdagi strategik tanlovlarini o'rganadi. Pragmalingvistika til birliklarini faqat tizimli va strukturaviy nuqtayi nazardan emas, balki ular orqali amalga oshiriladigan maqsadli harakat – ya'ni so'zlovchining istagi, maqsadi va vaziyatga mos ravishda qanday nutqiy vositalarni tanlashini o'rganadi. Ushbu soha muloqotning intersub'yektiv xususiyatini, tilning funksional imkoniyatlarini, til va jamiyat o'rtasidagi dinamik aloqalarni ham chuqur tahlil etadi. Bu yo'nalishda kontekst, ijtimoiy masofa, kommunikantlar o'rtasidagi kuch munosabati, presuppozitsiya va implikatura kabi pragmatik birliklar asosiy tadqiqot obyekti bo'ladi.

PRAGMASEMANTIKA – bu semantika (ma'no haqidagi fan) va pragmatika (tilning ishlatilish sharoiti haqidagi fan) kesishgan nuqtasida joylashgan ilmiy yo'nalish bo'lib, til birliklarining ma'nosini ularning qo'llanilish konteksti, nutqiy holat, so'zlovchining niyati, ijtimoiy munosabatlar va nutq ishtirokchilarining kompetensiyasi bilan bog'lab o'rganadi. Pragmasemantika doirasida til birliklarining referensial, konnotativ, ekspressiv va illokutsional funksiyalari, shuningdek, ularning kontekstda qanday semantik yuklama bilan ishlatilishi tahlil qilinadi. Bu yo'nalish, ayniqsa, ko'p ma'noli so'zlar, kinoya, metafora, nutq o'yinlari, presuppozitsiyalar va semantik ko'chishlarning pragmatik asoslarini ochib berishga xizmat qiladi.

PRAGMASINTAKTIKA – tilshunoslikning sintaksis va pragmatika yo'nalishlari kesishgan sohasi bo'lib, unda gapning grammatik tuzilmasi (ya'ni sintaktik shakli) bilan uning nutqiy vazifasi (ya'ni pragmatik maqsadi) o'rtasidagi munosabat o'rganiladi. Boshqacha aytganda, pragmasintaktika so'zlovchining maqsadi, ijtimoiy munosabatlar, kontekst va kommunikativ vaziyatga qarab tanlangan gap tuzilmalari qanday semantik va pragmatik yuklama kasb etishini tahlil qiladi. Masalan, "Suv olib ber" kabi oddiy buyruq shakli bevosita imperativ bo'lsa, "Suv olib bera olasanmi?" shakli grammatik jihatdan so'roq gap bo'lsa-da, u iltimos ma'nosini anglatadi – holat pragmasintaktik transformatsiyaning yaqqol namunasi hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek tilida "Agar iloji bo'lsa, suv olib bersangiz..." kabi yumshatilgan, murakkab sintaktik qurilmalar orqali ham muloqot strategiyasi sifatida ehtiyotkorlik, hurmat yoki ijtimoiy masofa saqlanishi mumkin. Pragmasintaktika aynan shunday

holatlarda gapning tashqi shakli bilan uning kommunikativ vazifasi orasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, sintaktik variantlarning muloqotdagi interaktiv samarasini ochib beradi.

PRAGMASTILISTIKA – stilistika va pragmatika chorrahasida shakllangan ilmiy yo'nalish bo'lib, til birliklarining stilistik variantlarini tanlash, qo'llash va interpretatsiya qilishda pragmatik omillar qanday rol o'ynashini o'rganadi. Bu yo'nalish uslubiy vositalarning emotsional, baholovchi, ekspressiv yuklamalarini va ularning kommunikativ kontekstdagi maqsadga muvofiqligini tahlil qiladi. Pragmastilistika doirasida uslubiy ko'rsatkichlarning ijtimoiy ahamiyati, tinglovchiga qaratilgan ta'siri, muloqotning strategik jihatlari, ijtimoiy masofa va kuch muvozanati bilan bog'liqligi muhim o'rinni egallaydi. Jumladan, rasmiy va norasmiy uslubdagi ifodalar tanlovi, yuzga tahdidni kamaytirish yoki oshirishga qaratilgan stilistik yechimlar, xushmuomalalik va hurmatsizlik strategiyalarining stilistik qoplamalari ushbu yo'nalishda tahlil qilinadi.

PRAGMATIK ASSOTSIATSIYALAR – til birliklarining o'zaro bog'lanishi ularning semantik ma'nosidan tashqari, jamiyatdagi ijtimoiy va hissiy baholash mezonlariga asoslangan bo'ladi. Bunda so'zlar o'ziga xos ijobiy yoki salbiy pragmatik belgilar orqali juftliklar hosil qiladi. Masalan, *fidoyi – beparvo, pokiza – iflos, adolatli – zolim* kabi qarama-qarshi juftliklar so'zlovchining voqelikka nisbatan munosabatini ifodalaydi. Bunday assotsiatsiyalar til foydalanuvchilarining dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari va kommunikativ ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir.

PRAGMATIK BAHO – so'zlovchining nutq jarayonida bildirayotgan subyektiv munosabati, qadriy yondashuvi yoki ijtimoiy-psixologik pozitsiyasini ifodalovchi pragmatik birlik bo'lib, u til vositalari orqali tinglovchiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishni maqsad qiladi. Pragmatik baho nafaqat axborotni yetkazish, balki u orqali kommunikativ maqsadni kuchaytirish, auditoriyani yo'naltirish, ijtimoiy rolni mustahkamlash yoki bahsli holatlarda o'z pozitsiyasini anglatish uchun xizmat qiladi. Bu baho odatda baholovchi sifatlar, kuchaytiruvchi birliklar (masalan: juda yaxshi, nihoyatda xunuk), kinoya, metafora, ironik ohang, shuningdek, presuppozitsiya va implikaturalarda yashiringan tarzda namoyon bo'ladi. Pragmatik baho nutqdagi xushmuomalalik, tahdid,

ijtimoiy masofa, kuch va solidar birliklarni ifodalovchi strategik vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

PRAGMATIK KOMPETENSIYA – Soʻzlovchining tilni real hayotiy muloqot kontekstida mazmunli, ijtimoiy jihatdan mos, kontekstual, maqsadga yoʻnaltirilgan holda qoʻllay olish qobiliyatidir. Boshqacha aytganda, bu til foydalanuvchisining soʻzlovchining niyatini anglay olish, bilvosita maʼno va kontekstual ishoralarni tushuna olish, hamda ijtimoiy va madaniy meʼyorlarga mos til birliklarini tanlay bilish koʻnikmalarini qamrab oladi. Ushbu atama ilk bor Dell Xayms (Hymes, 1972) tomonidan “kommunikativ kompetensiya” konsepsiyasi doirasida tilga olingan. Noam Xomski faqat grammatik kompetensiyani asosiy deb bilgan boʻlsa, Xayms unga javoban “biror gapni grammatik jihatdan emas, balki qachon, qayerda, kim bilan va qanday aytish kerakligini bilish ham kommunikativ qobiliyatning muhim qismi” deb taʼkidlagan. Keyinchalik Bachman (1990) pragmatik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi deb ataydi va uni lingvistik bilim, sotsiolinguistik bilim va pragmatik bilim deb uchga ajratadi. Pragmatik kompetensiya esa oʻz ichiga nutq aktlarini anglash, implikaturani tushunish, presuppozitsiyani ajratish, deysisni toʻgʻri qoʻllash va xushmuomalalik strategiyalarini tanlashni oladi.

PRAGMATIK KOMPONENTLAR – til birliklarining muloqot jarayonidagi kommunikativ funksiyasini, yaʼni ularning qanday kontekstda, kim tomonidan, kimga nisbatan va qanday maqsadda ishlatilishini belgilab beruvchi semantik-mazmunli qatlamlardir. Pragmatik komponentlar nutqdagi maʼno, illokutiv kuch, presuppozitsiya, implikatura, soʻzlovchining niyati, tinglovchiga qaratilgan taʼsir va ijtimoiy munosabatni oʻz ichiga oladi. Bu komponentlar nafaqat lugʻaviy birliklarga, balki intonatsiya, urgʻu, nutqning stilistik vositalari va kontekstual holatlarga ham bogʻliqdir. Masalan, “Derazani ochish mumkinmi?” degan jumla grammatik jihatdan soʻroq gap boʻlsa-da, aslida u orqali soʻzlovchi tinglovchidan biror amalni bajarishni (yaʼni derazani ochishni) soʻrayapti. Bu yerda pragmatik komponent – gap ortidagi iltimos ifodasi, yaʼni illokutiv kuchdir. Pragmatik komponentlar til birliklarining real kommunikativ vazifasini ochib berishga xizmat qiladi va ularni tahlil qilish orqali soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi yashirin yoki

oshkora sotsiopragmatik munosabatlar aniqlanadi. Tilshunoslikda bunday komponentlar nutqiy strategiyalarni, yuzga tahdid darajasini, sotsiomadaniy normalarni tushunishda muhim vosita hisoblanadi.

PRAGMATIK MA'NO – til birligining kontekstda anglashilgan, so'zlovchi niyati, tinglovchi reaksiyasi, vaziyat va kommunikativ strategiyalar bilan bog'liq holda shakllanuvchi ma'no qatlamidir. U semantik darajadagi ma'nodan farqli ravishda, aynan nutqiy jarayonda yuzaga keladi va yuzaki shaklda emas, balki presuppozitsiya, implikatura, illokutiv kuch kabi hodisalarda namoyon bo'ladi. Pragmatik ma'no til birliklarining funksional yukini, ularning muloqotdagi rolini belgilaydi. Sinonimlari – illokutiv ma'no, kontekstual ma'no, kommunikativ ma'no.

PRAGMATIK MAQSAD – so'zlovchining muloqot jarayonida erishmoqchi bo'lgan kommunikativ niyati yoki rejasidir. Bu atama orqali so'zlovchining nima sababdan gapirayotgani, qanday ta'sir ko'rsatmoqchi ekani, kimga murojaat qilayotgani va qanday natijani kutayotgani tushuntiriladi. Pragmatik maqsad gap mazmuni ortida turgan illokutiv kuchni belgilaydi, ya'ni bu orqali so'zlovchi buyruq bermoqdami, maslahat bermoqdami, iltimos qilyaptimi yoki tanbeh beryaptimi – bular aniqlanadi. Ushbu termin ko'pincha kommunikativ niyat, kommunikativ maqsad, illokutiv maqsad kabi atamalar bilan sinonim tarzda ishlatiladi. Pragmatik maqsad, shuningdek, kontekst, tinglovchining ijtimoiy roli va muloqotning umumiy vaziyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

PRAGMATIK MAYDON – biror tilda nutq jarayonida amalga oshadigan, o'zaro pragmatik funksiyaga ega bo'lgan til birliklari va nutq strategiyalarining tizimli birligidir. Boshqacha aytganda, bu maydon so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqotda yuzaga keladigan ma'no, illokutsion kuch, kontekst, yuzni saqlash, ijtimoiy masofa, maqsad va madaniy konvensiyalarni inobatga olgan holda qo'llaniladigan pragmatik birliklar majmuasidir. Pragmatik maydon doirasiga nutq aktlari (so'rash, buyurish, rad etish, va'da berish), bilvosita ifodalar, implicaturalarning hosil bo'lishi, presuppozitsiya, deiksis, xushmuomalalik strategiyalari, yuzga tahdid soluvchi harakatlar, sotsiopragmatik va pragmalingsvistik kompetensiyalar, madaniyatga xos kommunikativ qadriyatlar kiradi. Ushbu birliklar o'zaro bir kontekstda mazmunli ishlaydi, ular ichki paradigmatic va

sintagmatik munosabatda bo'ladi, ya'ni ular bir-birini to'ldiradi, almashtiradi yoki kombinatsiyalanadi. Pragmatik maydon, ayniqsa, muloqotning dinamik, kontekstual va ijtimoiy xususiyatini hisobga olgan holda nutqning qanday tashkil topishini tushunishga xizmat qiladi.

PRAGMATIK MUVAFFAQIYATSIZLIK – muloqot jarayonida so'zlovchining til birliklarining ma'no va vazifalarini kontekstga mos ravishda ishlata olmasligi natijasida yuzaga keladigan xatolik bo'lib, muloqotning samaradorligini pasaytiradi yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi.

PRAGMATIK PARAMETRLAR – tilning ma'lum bir ijtimoiy vaziyatda qanday qo'llanishini belgilovchi asosiy omillar bo'lib, ular kommunikativ strategiya tanlash jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning uchta asosiy turi mavjud: kuch (muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy iyerarxiyadagi mavqei va bir-biriga ta'sir darajasi), ijtimoiy masofa (suhbatdoshlar o'rtasidagi yaqinlik yoki uzoqlik darajasi) va ko'rsatkich/xarajat-foyda (gap yoki harakatning suhbatdosh uchun ahamiyat yoki qiyinchilik darajasi). Bu parametrlar nutq shakli va strategiyasini tanlashda kontekstning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

PRAGMATIK POTENSIAL – til birliklarining muloqot jarayonida kontekstga qarab turli ma'no va kommunikativ funksiyalarni ifodalash imkoniyatidir. Ya'ni, pragmatik potensial deganda so'z yoki ifodaning nafaqat lug'aviy ma'nosi, balki u orqali bildiriladigan niyat, munosabat, baho, kinoya, maslahat, tahdid yoki boshqa illokutiv kuchlar tushuniladi. Har bir til birligi o'zining pragmatik potensialiga ega bo'lib, bu ularning turli muloqot vaziyatlarida qo'llanish doirasini belgilaydi. Masalan, "Sen hozir bu ishni qildingmi?" degan oddiy savol gap, intonatsiya va kontekstga qarab hayrat, tanbeh, shubha yoki norozilik ma'nolarini ifodalashi mumkin. Bu esa til birligining pragmatik imkoniyatlarini ko'rsatadi. Pragmatik potensial atamasi, ayniqsa, nutq strategiyalari, yuzga tahdid nazariyasi, illokutsional aktlar va kontekstual interpretatsiya bilan bevosita bog'liq bo'lib, muloqotning samara va ta'sirchanligida muhim o'rin tutadi.

PRAGMATIK TO'SIQ – kommunikatsiya jarayonida ma'no uzatilishiga yoki qabul qilinishiga halal beradigan har qanday omil. Masalan, texnik nosozlik sababli telefon orqali gapni eshitmaslik, til

bilmaslik, yoki soʻzning maʼnosini boshqa madaniyat vakili boshqacha tushunishi pragmatik toʻsiq hisoblanadi. Bu toʻsiqlar nutq mazmunini noaniqlashtiradi va muloqot sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

PRAGMATIK XUSHMUOMALILIK – strategiya tanlangach, uni til vositalari orqali amaliy ifodalash jarayonidir. Bunda xushmuomalilikning lingvistik realizatsiyasi – hurmat bildiruvchi soʻzlardan foydalanish, modal feʼllar bilan yumshatish, tinglovchining yuziga tahdidni kamaytiradigan iboralarni qoʻllash kabi usullar qoʻllanadi. Sotsiopragmatik xushmuomalilik strategiyani tanlash mezonlariga urgʻu bersa, pragmatik xushmuomalilik uni til shakllari orqali qanday amalga oshirishga eʼtibor qaratadi. Shunday qilib, bu ikki tushuncha bir-biriga bogʻliq boʻlsa-da, biri “qaysi strategiyani tanlash”, ikkinchisi esa “uni qanday ifodalash” bosqichini ifodalaydi.

PRAGMATIKA – tilshunoslikning bir sohasi boʻlib, tilning muloqotdagi vazifalarini, yaʼni odamlar qanday qilib til orqali oʻzaro aloqa qiladi va bu aloqa qanday kontekstda amalga oshishini oʻrganadi. Pragmatika, asosan, tilning qanday ishlatilishini va odamlar til orqali qanday maʼno hosil qilishini tahlil qiladi. U, ayniqsa, til va muloqotni kontekstda oʻrganishga eʼtibor qaratadi. Pragmatika baʼzan nutq aktlari nazariyasi, xushmuomalilik nazariyasi, suhbat tahlili va interaktiv sotsiolingvistika kabi boshqa yoʻnalishlar bilan kesishadi. Pragmatika tilning maʼno jihatiga alohida eʼtibor qaratadi – yaʼni odamlar soʻzlar, gaplar va iboralar orqali qanday qilib tushuncha hosil qilishini oʻrganadi. Tilni toʻgʻri tushunish uchun biz grammatik qoidalar, soʻzlarning lugʻaviy maʼnosi va ularning qanday talaffuz qilinishini bilishimiz zarur. Ammo pragmatika bundan tashqariga chiqadi – u tilning aynan qayerda, kim tomonidan, qanday ohangda, qanday sharoitda aytilganini hisobga olib, bu omillarning maʼno hosil qilishga taʼsirini tahlil qiladi. Shuningdek, pragmatika soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi munosabatni, gap qachon va nima sababdan aytilganini, va qanday qilib biz ikki maʼnoli yoki noaniq ifodalarni tushunishimizni ham oʻrganadi. Masalan, ingliz tilidagi “Can you pass the salt?” degan savol bevosita “Tuzni uzata olasanmi?” degan grammatik maʼnoni bildiradi. Biroq bu gap ovqat vaqtida, suhbatchilardan biri tuzga yaqinroq boʻlgan odamga aytganda, bu

savol aslida so'rov sifatida anglanadi – ya'ni "Tuzni uzat, iltimos." Gapning asl ma'nosi grammatik tuzilmasidan emas, balki vaziyat va kontekstdan kelib chiqadi.

PREDIKATIV AKT – voqea-hodisalarga nisbatan taxmin, gumon yoki ehtimollikni ifodalovchi nutqiy aktdir. So'zlovchi bu orqali o'z munosabatini bildiradi. Masalan: "U ehtimol, bugun kelmaydi." Sinonimlari: modal akt, epistemik akt, bashorat akti.

PREDIKATSION STRATEGIYALAR – ijtimoiy guruh yoki shaxslarga nisbatan ma'lum xususiyat, sifat yoki bahoni yuklash orqali ularni muayyan maqsadda tasvirlash strategiyasidir. Ular odatda sifatdoshlar, fe'llar, ravishlar, metaforalar, sinonimik birikmalar yoki aniqlovchi gaplar orqali ifodalanadi. Bunday strategiyalar, ayniqsa, kamsituvchi yoki salbiy konnotatsiyali nutqlarda ishlatiladi. Ular orqali ijtimoiy pozitsiyani asoslash, adovatni oqlash yoki ayrim guruhlarni jamiyatdan begonalashtirishga urinishadi. Masalan, o'zbek tilidagi quyidagi gapda predikatsion strategiya mavjud: "Hozirgi yoshlar – faqat telefon quchib yotadigan, hech narsa o'qimaydigan avlod." Bu yerda "telefon quchib yotadigan" va "hech narsa o'qimaydigan" iboralari yosh avlodga umumlashtiruvchi, salbiy baho beruvchi predikatsiyalar hisoblanadi. Ular barcha yoshlarni bir xil tarzda tasvirlab, jamiyatdagi avlodlararo ishonchsizlik yoki tanqidni kuchaytirishga xizmat qiladi.

PREDMET DEYKSISI – nutqda aniq obyekt yoki narsalarga ishora qilish vositasi bo'lib, u suhbat kontekstiga bog'liq holda amalga oshadi. Masalan, *mana bu kitob, o'sha uy, shu odam* kabi ifodalar predmet deyksisiga kiradi. U tinglovchiga nutqda tilga olinayotgan obyektни aniq tushunishga yordam beradi va muloqotning mazmunini aniqligini ta'minlaydi.

PRESUPPOZITSIYA – tilshunoslik va pragmatika doirasida qaraladigan tushuncha bo'lib, u gap yoki nutq aktining to'liq va mantiqiy tushunilishi uchun oldindan mavjud bo'lishi shart bo'lgan, ammo ochiq aytilmagan ma'lumotni bildiradi. Presuppozitsiya so'zlovchining yoki yozuvchining muayyan fikr yoki holatni haqiqat deb qabul qilgan holda bayonot qurishidir. U kontekstdan anglashiladi va ko'pincha nutqning inkor shaklida ham o'z kuchini saqlaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan, presuppozitsiyalar kommunikatsiyada yashirin ma'lumotlar oqimini shakllantiradi,

tinglovchidan yoki o'quvchidan muayyan bilim yoki dunyoqarashni bo'lishishini talab qiladi, hamda matn ichidagi bilvosita ma'nolarni anglashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, presuppozitsiya – muloqotda til birliklarining ijtimoiy va kognitiv aspektlarini tushunishda muhim vosita sanaladi.

PRETSEDENT ISM (NOM) – madaniy xotirada mustahkam o'rnashgan, til ishtirokchilari tomonidan umumiy qabul qilingan, muayyan shaxs, voqea, joy yoki matn nomidir. Bunday ismlar milliy ong, tarixiy tajriba, adabiy meros yoki diniy ramzlar bilan bevosita bog'liq bo'ladi va ular tinglovchida muayyan konnotatsiya, baho yoki assotsiatsiyani uyg'otadi. Pretsedent ismlar til tizimida yagonaligi va umumtanilganligi bilan ajralib turadi, ya'ni ular muloqot ishtirokchilari o'rtasida ortiqcha tushuntirishsiz anglanadi. Pragmatik nuqtayi nazardan, pretsedent ismlarning ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, ular muloqotning chuqur semantik qatlamlarida namoyon bo'ladi. Chunki bunday ismlar faqat oddiy toponim yoki antroponim emas, balki ular orqali ko'p qatlamli konnotativ va illokutsional ma'no yetkaziladi. So'zlovchi nutqda pretsedent ismni qo'llaganida, uning ortidagi madaniy, tarixiy yoki ijtimoiy assotsiatsiyalarni bilvosita yoki ongli ravishda eslatadi. Bu esa tinglovchining fon bilimiga tayanadi va kuchli kommunikativ effekt beradi. Masalan, “Yana bir Alpomish chiqibdi” degan ifoda orqali jasorat, qahramonlik, fidoyilik kabi tushunchalar anglashiladi. Bu birlik nafaqat semantik, balki baholovchi, emotsional va ekspressiv pragmatik yuklamani ham bildiradi.

PROPOZITSIYA – gapning mantiqiy-semantik mazmunini ifodalovchi, haqiqat (rost yoki yolg'on) qiymatiga ega bo'lgan ma'lumotli birlikdir. Tilshunoslik va pragmatika nuqtayi nazaridan, propozitsiya gap orqali ifodalangan fikrning mazmuniy yadrosidir va u so'zlovchining niyatidan (illokutiv kuchidan) mustaqil holda mavjud bo'ladi. Propozitsiya odatda subyekt (kim?) va predikat (nima qiladi?) elementlari asosida quriladi hamda voqelik haqidagi biror fakt, holat yoki hodisani tasvirlaydi. Masalan, “Anvar derazani yopdi” degan gapda propozitsiya – “Anvarning derazani yopganligi” haqidagi axborotdir. Bu mazmun nafaqat bildiruv (deklarativ) gapda, balki so'roq (“Anvar derazani yopdimi?”) yoki buyruq (“Anvar, derazani yop!”) gaplarda ham saqlanadi, ya'ni propozitsiya – gapning illokutsional funksiyasidan mustaqil semantik asosidir.

Propozitsiya faqat haqiqatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan ifodalarni o'z ichiga oladi; emotsional ifodalar yoki so'roq-belgi ma'nosini o'z ichiga olmaydi. Propozitsiya tushunchasi semantika, mantiqiy tilshunoslik, nutq aktlari nazariyasi va diskurs tahlilida markaziy o'rin tutadi. U gap tarkibidagi asosiy axborot birligi bo'lib, turli pragmatik komponentlar (presuppozitsiya, implikatura, yuzga tahdid va boshqalar) aynan propozitsiyaga nisbatan tahlil qilinadi. Shu sababli, propozitsiya til birliklarining mazmuniy yadrosini tashkil etadi va muloqotda nima haqda fikr bildirilayotganini aniqlashga xizmat qiladi.

PROPOZITSIYA (lot. propositio – “bayon qilish, taklif qilish”) – gapning semantik mohiyati bo'lib, u sintaktik shakldan mustaqil holda rost yoki yolg'onligi baholanishi mumkin bo'lgan fikrni ifodalaydi, masalan, “Bugun yomg'ir yog'moqda”, “Yomg'ir yog'moqda bugun”, “Bugun havo nam, chunki yomg'ir yog'moqda” kabi gaplar grammatik tuzilishi jihatdan farq qilsa ham, bir xil propozitsiyaga ega, chunki ularning semantik mohiyati bir xil, ya'ni yomg'ir yog'ayotganligi haqidagi haqiqat sharti baholanishi mumkin, shu bilan birga “Suv 100°C da qaynaydi” va “Suv bugun ertalab 100°C da qaynadi” gaplari turli propozitsiyalarga ega, chunki biri umumiy ilmiy haqiqatni, ikkinchisi esa ma'lum bir vaqtga bog'liq hodisani ifodalaydi, shu sababli propozitsiya gapning sintaktik shakliga emas, balki uning asosiy semantik mazmuniga bog'liq.

PROSODIYA – og'zaki nutqning ohang, urg'u, ritm, balandlik va intonatsiya kabi segmentdan yuqori darajadagi fonetik xususiyatlariga nisbatan ishlatiladigan atama. Ushbu xususiyatlar so'zlovchining hissiy holati, kayfiyati yoki kommunikativ niyatini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, ovoz balandligi so'zlovchining hissiyotini ko'rsatishi mumkin, intonatsiyaning ko'tarilishi esa gapning savolmi yoki bayonot ekanligini farqlashga xizmat qiladi.

PROTSEDURAL MA'NO (procedural meaning, lot. procedere – “oldinga yurish, harakat qilish”) – lingvistik birliklarning axborotni qanday tushunish va talqin qilish kerakligini ko'rsatadigan semantik xususiyatidir. Konseptual ma'no so'zning obyekt yoki hodisani bevosita ifodalashiga asoslangan bo'lsa, protsedural ma'no nutq oqimini boshqarib, gap yoki iborani qanday tushunish kerakligini aniqlaydi. Protsedural ma'noni ifodalovchi birliklar turli tillarda

bog'lovchilar, modal birliklar, olmoshlar va muloqotdagi ko'rsatkich elementlar orqali ifodalanadi. Masalan, lekin, ammo, biroq, esa, bo'lsa, shunday qilib, demak, xullas va boshqashu kabi birliklar protsedural ma'noga ega bo'lib, ular axborotning qanday o'zarobog'lanishini yoki qanday talqin qilinishini bildiradi. Misol uchun, "U juda aqlli,lekin sust" degan gapda "lekin" bog'lovchisi birinchi fikrga qarama-qarshi yoki uni cheklovchi axborot kelayotganini bildirsa, "Shunday qilib, u g'olib bo'ldi" iborasida "shunday qilib" bog'lovchisi oldingi fikr asosida xulosa chiqarilishini ko'rsatadi.

PSIXOPRAGMATIKA – insonning nutqiy faoliyatini psixologik omillar asosida o'rganadigan pragmatikaning yo'nalishi bo'lib, u so'zlovchining emotsional holati, psixik kechinmalari, niyati va shaxsiy xususiyatlarining nutqdagi ifodasini tahlil qiladi. Ushbu yo'nalish orqali so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikatsiyada yuzaga keladigan psixologik ta'sirlar, xususan, qo'rquv, ishonchsizlik, xijolat, g'azab yoki samimiyat kabi holatlarning nutq strategiyalariga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Psixopragmatika til vositalari orqali shaxsning ichki dunyosini anglashga va nutqdagi psixik motivlarni tushuntirishga xizmat qiladi. Bu atama asosan psixolingvistika va pragmatika fanlari kesishgan joyda qo'llaniladi.

Q

QABUL QILISH QULAYLIGI – ma'lumot yoki til birliklarining xotiradan qanchalik tez va oson esga tushirilishi yoki anglab olinishi darajasi. Bu jarayon diqqat taqsimoti, xotira tashkil etilishi, so'zlarning tez-tez ishlatilishi va ularning so'nggi qo'llanilishiga bog'liq. Masalan, agar biror so'z yoki ibora suhbatda ko'p ishlatilsa, keyingi gaplarda uni tushunish osonlashadi. Yaqinda eshitilgan yoki yuqori chastotada qo'llanilgan so'zlar tezroq qabul qilinadi va qayta ishlash uchun kamroq kognitiv kuch talab etadi.

QO'SHIMCHA MA'NO – til birliklarining asosiy lug'aviy (denotativ) ma'nosidan tashqari, so'zlovchi yoki jamiyat tomonidan unga yuklangan emotsional, baholovchi, sotsiomadaniy va stilistik yuklamalardir. Bunday ma'no asosan kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlovchining munosabati va madaniy stereotiplarga bog'liq holda

yuzaga chiqadi. Konnotatsiyalar leksik birlikning ta'sirchanligini oshiradi, matnga baholovchi rang kiritadi va ijtimoiy munosabatni bildiradi. Sinonimlari – stilistik yuklama, baholovchi ma'no, konnotativ ma'no

QO'SHMA (MURAKKAB) NUTQIY HARAKATLAR esa bir vaqtning o'zida bir nechta illokutiv maqsadlarni o'z ichiga oladi yoki ketma-ketlikda sodir bo'ladi. Masalan: "Iltimos, darsga kech qolmang, bu muhim!" jumlasida ham iltimos, ham ogohlantirish, ham tushuntirish mavjud. Bunday murakkab tuzilma muloqotdagi kontekst, tinglovchining statusi, vaziyat va maqsadga qarab shakllanadi. Qo'shma harakatlar ko'proq rasmiy, ijtimoiy jihatdan murakkab yoki hissiy konnotatsiyalarga ega muloqotda uchraydi. Pragmatik tahlilda ular alohida e'tibor talab qiladi, chunki har bir komponent o'z kontekstual yuklamasini olib yuradi.

R

RATSIONAL (INTELLEKTUAL) BAHOLASH – muloqot jarayonida so'zlovchining aql-idrok, mantiq, bilim va tajriba asosida voqelikni tahlil qilib, unga obyektiv, asosli va xolis baho berishidir. Ratsional baholashda hissiyotlar ikkinchi o'rinda turadi; bunda asosan fikrning aniqligi, dalillarga asoslanganligi va mantiqiy asoslanganlik muhim hisoblanadi. Masalan: "Ushbu loyiha iqtisodiy jihatdan samaraliroq", "Bu qaror qonunchilikka zid emas", kabi ifodalar so'zlovchining aqliy tahlilga tayangan holda bildirgan bahosini anglatadi. Pragmatik nuqtayi nazardan, bu baholash turi illokutiv akt sifatida ko'riladi, ya'ni so'zlovchi o'z fikrini ifodalabgina qolmay, uni asoslashga, tinglovchini ishonchga keltirishga harakat qiladi. Ratsional baholashlar ko'pincha rasmiy uslubda, hujjatli muloqotda, bahs-munozaralarda va axborot uzatishda qo'llaniladi. Shuningdek, ular kommunikatsiyada ijtimoiy maqom va nutqning rasmiy darajasini belgilovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

REFERENSIAL MOSLASHUV – so'zlovchining muloqot jarayonida narsa, shaxs yoki hodisani ifodalashda kontekst, suhbatdoshning bilim darajasi va vaziyat talablariga qarab til birliklarini moslashtirish jarayonidir. Bunda bir xil referent turli vaziyatlarda har xil nomlar bilan ifodalanadi. Masalan, talaba o'qituvchisi haqida rasmiy vaziyatda "professor Karimov" desa,

norasmiy suhbatda “ustoz” yoki “Karimov aka” deb murojaat qilishi referensial moslashuvning yaqqol misolidir.

REFERENSIAL TAGMA’NO – soʻzlovchining nutqida maʼlum obyekt, hodisa yoki shaxsga ishora qilish jarayonida yuzaga keladigan qoʻshimcha, kontekstga bogʻliq maʼno qatlamidir. U soʻzlovchining ichki maqsadi, kommunikativ niyati va kontekstual sharoit bilan chambarchas bogʻliq boʻladi. Masalan, *“O’sha inson yana keldi”* jumlasida *“o’sha inson”* biror aniq shaxsga ishora qiladi, lekin shu bilan birga soʻzlovchining unga nisbatan hissiy yoki baholovchi munosabatini ham sezdirishi mumkin. Shu tariqa, referensial tagma’no oddiy ishoradan tashqari, nutqiy vaziyat va soʻzlovchining subyektiv pozitsiyasini ham aks ettiradi.

REFERENSIYA – til birliklarining, ayniqsa otlar va olmoshlar orqali tashqi dunyodagi muayyan obyekt, shaxs yoki hodisaga boʻlgan ishora munosabatidir. Bu munosabat muloqotning aniqligi va mazmunini taʼminlovchi asosiy pragmatik mexanizmlardan biri hisoblanadi. Referensiya orqali soʻzlovchi oʻz fikrini aniq obyektga qaratadi va tinglovchi bu ishorani kontekst (yaʼni, nutq voqealigi, aytilayotgan gapning vaziyati) va fon bilim (tinglovchining oldindan mavjud dunyo haqidagi bilimi) asosida angelaydi. U endoforik (matn ichidagi boshqa birlikka qaratilgan ishora), ekzoforik (matndan tashqaridagi, yaʼni real hayotdagi obyektga qaratilgan ishora), anaforik (avval tilga olingan birlikka qaytuvchi ishora) va kataforik (keyinroq tilga olinadigan birlikka ishora) shakllarda boʻlishi mumkin. Referensiya har doim pragmatik interpretatsiyani (mazmunni kontekst va nutq ishtirokchilarining niyatlariga qarab tushunishni) talab qiladi, chunki u nafaqat til tizimi, balki muloqot konteksti, ishtirokchilar oʻrtasidagi bilim almashuvi va nutq vaziyatiga ham bogʻliq boʻladi.

REFERENT – til birliklari orqali ishora qilinadigan obyekt, shaxs yoki hodisa boʻlib, u lugʻaviy shakl bilan real dunyo oʻrtasidagi bogʻlanishni ifodalaydi. Pragmatika doirasida referent doimiy va mustahkam maʼno emas, balki muloqot kontekstiga, soʻzlovchi va tinglovchi orasidagi fon bilimlariga, nutq vaziyatiga bogʻliq boʻlgan oʻzgaruvchan hodisa sifatida qaraladi. Soʻzlovchi maʼlum bir til birligi orqali oʻz fikrini aniq obyektga yoʻnaltiradi, tinglovchi esa ushbu obyektни kontekst asosida angelaydi. Bu jarayon referensiya orqali amalga oshadi va u anaforik (matn oldidagi birlikka ishora),

kataforik (matndan keyingi birlikka ishora), ekzoforik (matndan tashqaridagi obyektga ishora) va endoforik (matn ichidagi ishoraviy bog'lanish) ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Referentni to'g'ri aniqlash muloqotning samarali kechishi, xatoliklarning oldini olish va til birliklarining kontekstual ma'nosini to'g'ri tushunishda muhim vosita hisoblanadi.

RELEVANSIYA NAZARIYASI - Sperber va Uilson (1986) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u Grays (Grays) ning kooperativlik tamoyiliga asoslangan pragmatik yondashuviga tayanadi. Ushbu nazariyada suhbat jarayonida aytilgan har bir gap tinglovchi tomonidan ma'noli deb qabul qilinishi uchun uning kontekstdagi ahamiyatli (dolzarb) bo'lishi zarur, degan g'oya ilgari suriladi. So'zlovchi tomonidan bildirilgan ma'lumot tinglovchining fikricha yetarli darajada dolzarb bo'lishi kerak, aks holda uni qayta ishlashga arziydigan deb hisoblanmaydi. Relevansiya tushunchasi suhbatdoshlar o'rtasidagi umumiy bilim, shaxsiy tajriba va ijtimoiy kontekstga tayanadi. Masalan, so'zlovchi bevosita savolga javob bermasa ham, agar tinglovchi kontekstda yashirin ma'noni anglab olsa, bu holat relevansiya talabini qondiradi. Shunday qilib, relevansiya nazariyasi muloqotni tushunish jarayonida ishoraviylik, implikasiya va kontekstual tafakkurni izohlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

RELEVANSIYANING KOGNITIV TAMOYILI – inson tafakkuri doimiy ravishda eng muhim va foydali axborotni tanlab, uni qayta ishlashga harakat qiladi, ya'ni kognitiv foydasi yuqori va qayta ishlash narxi kam bo'lgan ma'lumotlarga ustunlik beradi. Masalan, kimdir “Bugun sovuq” desa, bu oddiy bayonot bo'lsa ham, sizning kognitiv muhitga mos tushgan holda “Derazani yopish kerakmi?” yoki “Qalinroq kiyinaymi?” kabi xulosalar chiqarishingiz mumkin. Xuddi shunday, agar kimdir “Do'konlar allaqachon yopildi” desa va siz non sotib olishni o'ylayotgan bo'lsangiz, ushbu axborot siz uchun juda muhim bo'ladi. Reklamalar ham shu tamoyilga asoslanadi – agar siz yangi telefon sotib olishni rejalashtirsangiz, smartfon reklamalari siz uchun odatdagidan ko'ra qiziqroq tuyuladi. Kundalik hayotda ham inson miyasi o'qish yoki qaror qabul qilish jarayonida eng muhim va kontekstga mos axborotga e'tibor qaratadi, masalan, talabalarga murakkab ilmiy tushunchalarni misollar orqali tushuntirish relevansiyaning oshiradi, shu bois relevansiyaning

kognitiv tamoyili inson tafakkurining axborotni saralash va qayta ishlash jarayonlari qanday ishlashini ko'rsatib, ma'no tushunish, nutq interpretatsiyasi va qaror qabul qilishning samaradorligini ta'minlaydi.

RELEVANSNING KOMMUNIKATIV TAMOYILI – nutqiy jarayonda implikatura hosil bo'lishi bilan chambarchas bog'liq. So'zlovchi o'z xabarini iloji boricha samarali va auditoriya uchun tushunarli qilib yetkazishga harakat qiladi, tinglovchi esa uni eng maqbul (optimal) ma'noda talqin qiladi. Bu jarayon konversatsion inferensiya (muloqotdagi xulosa chiqarish) orqali amalga oshadi. Masalan, kimdir "Bugun parkda juda ko'p odam bor edi" desa, bu faqat faktik ma'lumot emas, balki bilvosita sababni tushuntirishni talab qiluvchi xabar hamdir. Tinglovchi relevans tamoyiliga ko'ra, "Havo yaxshi bo'lgani uchun" degan xulosaga keladi, chunki bu gap kontingent bog'liqlik tamoyiliga asoslangan holda tushuniladi. Pragmatik jihatdan, bu tamoyil samarali kommunikatsiyani ta'minlash uchun ishlaydi va Graysning muhokama maksimlaridan relevantlik maksimalarini qo'llab-quvvatlaydi.

RELEVANTLIK – axborotning muayyan kontekstda foydalilik va ahamiyatlilik darajasini ifodalovchi tushuncha bo'lib, Sperber va Vilsonning Relevantlik nazariyasi (Relevance Theory) asosida izohlanadi. Bu nazariyaga ko'ra, axborot qanchalik kam kognitiv resurs talab etsa va qanchalik ko'p yangi bilim yoki foydali natija berishga xizmat qilsa, shunchalik relevant hisoblanadi. Masalan, suhbatdoshingiz "Havo qanday?" deb so'rasa, "20 daraja issiq" javobi relevant bo'ladi, chunki u aniq va kerakli axborotni beradi, lekin "Men bugun ko'k ko'ylak kiyganman" deyish irrelevant bo'ladi, chunki u suhbat mavzusiga mos emas. Relevantlik kommunikatsiyada axborotning foydalilik darajasi va qabul qilish samaradorligi bilan belgilanadi.

REPREZENTATIVLAR – so'zlovchi (adresant) tomonidan voqea, holat yoki fakt haqidagi ma'lumotning haqiqiyligiga bo'lgan ishonchini ifodalovchi nutqiy aktlar turidir. Ular odatda xabar berish, tasvirlash, tushuntirish, taxmin qilish kabi maqsadlarda ishlatiladi. Masalan, "*Bugun yomg'ir yog'adi*" jumlasini so'zlovchining hodisa haqidagi ishonchini bildiradi.

RESEPTORNING PRAGMATIK MUNOSABATI – tinglovchi yoki o'quvchining nutqdagi ma'no, niyat va bahoni qanday qabul

qilishi, talqin qilishi hamda unga qanday kommunikativ reaksiya bildirishini ifodalovchi tushunchadir. Bu munosabat til birliklarining faqat semantik mazmuniga emas, balki ularning pragmatik yuklamasiga – ya’ni soʻzlovchining niyatiga, kontekstga, nutqning vaziyatiga va yuzaga tahdid darajasiga asoslanadi. Reseptorning pragmatik munosabati har doim faollikni talab qiladi: u presuppozitsiyani anglaydi, implikaturani ajratadi, yuzaki shaklda aytilgan gap ortidagi yashirin ma’no va bahoni sezadi. Masalan, “Bugun ham juda erta keldingiz-da...” degan kinoyaviy ifodani reseptor ijobiy ma’no deb qabul qilsa, noto’g’ri talqin qiladi; lekin agar u soʻzlovchining ohangi, kontekstdagi ishora va oldingi tajribalarga tayansa, bunda salbiy baho borligini anglaydi. Shunday qilib, reseptorning pragmatik munosabati muloqotning qanchalik to’g’ri va samarali amalga oshishini belgilab beruvchi muhim sotsiopragmatik mezon hisoblanadi. U tinglovchining fon bilimlari, madaniy kompetensiyasi va pragmatik sezgirligiga tayanadi.

S

SEMANTIK PRESUPOZITSIYA – muloqot jarayonida mazmunning to’g’ri talqin qilinishi uchun tinglovchi ongida oldindan mavjud bo’lishi zarur bo’lgan, yashirin tarzda ifodalangan bilim yoki hukm. U, odatda, gapning grammatik yoki leksik tuzilishidan kelib chiqadi va muloqotning semantik asosini tashkil etadi. Masalan, “Men yana maqola yozdim” jumlasida “oldin ham maqola yozilgan” degan ma’lumot shartli ravishda mavjud bo’lib, bu presupozitsiya sifatida tinglovchi ongida faollashadi. Bu muloqot samaradorligini oshiradi, chunki ortiqcha tushuntirishsiz ma’no uzatishni ta’minlaydi.

SEMANTIK TO’SIQLAR – til birliklarining semantik qamrovi va konnotativ ma’nosi tinglovchi tomonidan noto’g’ri talqin qilinishi yoki umuman tushunilmasligi natijasida yuzaga keladigan muloqotdagi xalaqitlar. Bu holat ko’pincha polisemiya (ko’p ma’nolilik), metafora, argo, jargon, madaniy konnotatsiya yoki tagma’no sababli yuzaga keladi. Masalan, “U bugun uchdi” degan jumla samolyotda uchish yoki lavozimidan ketish ma’nolarida talqin qilinishi mumkin. Agar soʻzlovchi bu iborani ko’chma ma’noda ishlatgan bo’lsa-yu, tinglovchi uni bevosita fizik harakat sifatida

tushunsa, semantik to'siq yuzaga keladi. Bu muloqotning mazmuniy uzviyligini buzadi va kommunikativ samaradorlikni pasaytiradi.

SIFAT TAMOYILI – Pol Grays tomonidan ilgari surilgan to'rtta asosiy kommunikativ maksimumdan biridir va Hamkorlik tamoyilining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tamoyilga ko'ra, so'zlovchi faqat o'zi rost deb hisoblagan, yetarli asosga ega bo'lgan axborotni bayon qilishi kerak. Ya'ni, yolg'on yoki dalilsiz ma'lumot berish orqali muloqotni buzmaslik talab qilinadi. Sifat tamoyili quyidagi ikki qoida bilan ifodalanadi: 1) rost bo'lmagan narsani aytma; 2) yetarli asosga ega bo'lmagan narsani aytma.

SITUATIV TUSHUNCHA – so'z yoki iboraning muayyan vaziyatda yangi, vaqtinchalik ma'no kasb etishi. Masalan, agar kimdir juda sekin ishlasa, rahbari unga "Sen toshbaqa ekansan!" deb aytishi mumkin. Bu yerda toshbaqa so'zi hayvon sifatida emas, balki "sekin harakat qiluvchi" tushunchasini ifodalaydi. Shuningdek, kimdir raqibini tezda yengsa, "U uni yer bilan bitta qildi!" degan ibora "mutlaq g'alaba qozonish" ma'nosida qo'llanadi. Bu jarayonda so'zlarning faqat muhim xususiyatlari ajratib olinib, kontekstga mos ma'no hosil qilinadi.

SODDA NUTQIY HARAKATLAR – faqat bitta illokutiv maqsadni ifodalovchi, ya'ni so'zlovchining yagona kommunikativ niyati asosida yuzaga keladigan nutqiy birliklardir. Masalan, "Eshikni yoping" degan jumla faqat buyruqni ifodalaydi va bitta aniq illokutiv funktsiyani bajaradi. Bunday harakatlar bir maqsad, bir kommunikativ yo'nalishda amalga oshadi va ularning pragmatik talqini ham odatda soddaligi bilan ajralib turadi.

SOTSIAL DEYKSIS (YOKI IJTIMOY DEYKSIS) – nutqdagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi deyiktik vositalardir. U so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy rol, maqom, masofa kabi omillarni ifoda qilishda xizmat qiladi. Ushbu termin Charlz Fillmor (1975) tomonidan ilgari surilgan deyksis turlaridan biri sifatida tanilgan va shaxs, makon, zamon deyksislari qatorida turadi. Sotsial deyksis asosan muomala shakllari, murojaat birliklari, grammatik formasiyalar (masalan, siz/sen, janob/hurmatli, -siz/-san qo'shimchalari) orqali namoyon bo'ladi. Charlz Fillmor o'z tadqiqotlarida sotsial deyksisni nutqdagi ijtimoiy rollarning ifodasi sifatida talqin qiladi. Stiven Levinson (1983) esa sotsial deyksisni

maqom (status) va faoliyatdagi rol (role-relationships) orqali nutqdagi ijtimoiy tuzilmani belgilovchi omil deb ta'riflaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "siz" va "sen" murojaatlari yoki "domla", "aka", "opam" kabi ijtimoiy unvonlar so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy masofani bildiradi. Yanxua Xan (2007) sotsial deyksisni ijtimoiy identifikatsiyaning lingvistik ifodasi sifatida ko'rsatib, so'zlovchining kommunikativ niyati va ijtimoiy maqomi nutqda qanday ifodalanishini yoritadi. Shuningdek, Elinor Kinan (1974) tadqiqotlarida sotsial deyksisning madaniyatlararo farqlari, ijtimoiy maqom, jins, yoshi kabi omillar til shakllarida qanday aks etishi tahlil qilinadi. O'zbek tilida "siz keldingizmi?" va "sen keldingmi?" jumalari bir xil zamon va harakatni bildirsa-da, sotsial deyksis jihatidan har xil bo'lib, "siz" shakli rasmiy, hurmatga asoslangan masofani, "sen" esa norasmiy, yaqin yoki kichik yoshdagi shaxsga murojaatni bildiradi.

SOTSIOLINGVISTIKA – tilshunoslikning ijtimoiy jihatlarini o'rganadigan tarmog'i bo'lib, u tilning jamiyatda qanday ishlatilishini, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida til qanday farqlanishini, shuningdek, ijtimoiy omillar (yosh, jins, kasb, ta'lim darajasi, ijtimoiy mavqe) tilga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi. Bu yo'nalish til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga intiladi. Masalan, qanday qilib bir hududda ayollar va erkaklar tilni boshqacha ishlatishi yoki qaysi ijtimoiy qatlamlar muayyan lahja yoki jargonlardan foydalanishini sotsiolingvistika o'rganadi. Sotsiopragmatika esa pragmatikaning ijtimoiy o'lchamiga e'tibor qaratadi. U til vositasida bajariladigan nutq aktlari (buyruq, iltimos, rad etish, tanqid, tabrik, taklif va h.k.)ni ijtimoiy kontekstda qanday tushunish va ishlatishni o'rganadi. Sotsiopragmatika shuningdek, madaniyatlararo tafovutlar, ijtimoiy masofa, kuch va mavqe kabi omillarning til ishlatishga ta'sirini tahlil qiladi. Masalan, biror taklif qanday uslubda aytilishi (ravon, nozik, yumshoq yoki rasmiy tarzda) – sotsiopragmatikaning o'rganish obyekti hisoblanadi.

SOTSIOPRAGMATIK KOMPETENSIYA – til foydalanuvchisining ijtimoiy-madaniy kontekstga mos ravishda nutqiy strategiyalarni ongli tanlay olish va qo'llay bilish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya orqali shaxs so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy masofa, rol, maqom, jins, yosh,

madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va kommunikativ konventsionalarni hisobga olgan holda muloqot yuritadi. Bu atama tilshunos J.Tomas tomonidan pragmatik kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida taklif etilgan bo'lib, u pragmalingsvistik kompetensiyadan farqli o'laroq, til vositalarini qanday ishlatishdan ko'ra, ularni qachon va kimga nisbatan ishlatishni aniqlaydi. Sotsiopragmatik kompetensiyaga ega bo'lgan shaxs madaniy moslikni saqlagan holda yuz (face) tushunchasiga e'tibor beradi, xushmuomalalik va hurmat me'yorlariga amal qiladi, nutqda bilvosita vositalardan samarali foydalanadi va kontekstual noziklikni hisobga olib harakat qiladi. Bu kompetensiya, ayniqsa, madaniyatlararo muloqotda til xatolarini kamaytirish, ijtimoiy noqulayliklarning oldini olish va nutq strategiyalarini to'g'ri tanlash uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bois, sotsiopragmatik kompetensiya zamonaviy pragmatikaning ajralmas qismi hisoblanib, til o'rganuvchilar uchun kommunikativ muvaffaqiyat garovi sanaladi.

SOTSIOPRAGMATIK MUVAFFAQIYATSIZLIK – pragmatik muvaffaqiyatsizlikning ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liq turi bo'lib, unda so'zlovchi kuch, ijtimoiy masofa, rasmiylik darajasi kabi madaniy-me'yoriy parametrlarni noto'g'ri baholaydi va natijada muloqot ijtimoiy jihatdan mos kelmaydi.

SOTSIOPRAGMATIK O'ZGARUVCHANLIK – tilning ijtimoiy va pragmatik jihatlari turli madaniy muhitlarda, ijtimoiy guruhlar o'rtasida yoki konkret vaziyatlarda qanday farqlanishini ifodalaydi. Bu tushuncha muloqotda ishtirokchilarning til vositalarini tanlashi va ulardan foydalanish usullari ijtimoiy kontekstga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Masalan, katta yoshli inson bilan rasmiy muhitda suhbatlashishda ishlatiladigan til shakllari, yaqin do'st bilan norasmiy muhitdagi muloqot shakllaridan farq qiladi. Ushbu farqlanishlar muloqotning samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy me'yorlarni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

SOTSIOPRAGMATIK XUSHMUOMALILIK – J. Leech tomonidan "nisbiy xushmuomalilik" sifatida izohlangan tushuncha bo'lib, strategiyani tanlashda ijtimoiy kontekstning, ya'ni suhbatdoshlarning yoshi, jinsiy mansubligi, ijtimoiy mavqei, o'zaro munosabatlari, vaziyatning rasmiylik darajasi kabi omillarning hisobga olinishi tushuniladi. Bu yondashuvda asosiy urg'u qanday strategiya tanlash masalasiga qaratiladi, masalan, rasmiy

uchrashuvda to'g'ridan-to'g'ri talab o'rniga yumshatilgan iltimos strategiyasini tanlash.

SUHBAT MAKSIMALARI – Suhbat maksimalari (Conversational Maxims) tushunchasi Pol Grays (Paul Grays , 1975) tomonidan pragmatikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida ishlab chiqilgan. U bu maksimalarni suhbatdagi hamkorlik tamoyili (Cooperative Principle) bilan bog'lab, so'zlovchi va tinglovchilar qanday qilib samarali muloqot olib borishini izohlash uchun ishlab chiqqan. Graysga ko'ra, samarali kommunikatsiya uchun suhbat ishtirokchilari rational (mantiqiy) bo'lishi va maqsadga muvofiq ravishda gaplashishi lozim. Ular ongli ravishda yoki intuitiv ravishda ma'lum qoidalariga amal qiladi. Ushbu qoidalar suhbat maksimalari deb ataladi. Grays suhbat maksimalarini to'rt guruhga ajratgan: miqdor, sifat, aloqadorlik va uslub maksimalari. Ular samarali muloqotni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan.

1. **Miqdor maksimasiga** rioya qilish (Quantity Maxim) – so'zlovchi kerakli miqdorda axborot berishi kerak. Kerakligidan ortiqcha ma'lumot bermasligi lozim.

Misol: A: Erkaklar o'rtasidagi final qachon bo'ladi?

B: Yakshanba kuni. (Maksimaga rioya qilingan, chunki javob aniq va to'g'ri.)

B: Yakshanba kuni, soat 18:00 da, "Bunyodkor" stadionida, kirish bepul, ob-havo iliq bo'ladi. (Kerakligidan ortiq ma'lumot berilgan, bu esa muloqotni samarasiz qiladi.) Miqdor maksimasining buzilishi tinglovchiga ortiqcha yoki yetarli bo'lmagan ma'lumot berilishiga sabab bo'lishi mumkin.

2. **Sifat maksimasiga** rioya qilish (Quality Maxim) – so'zlovchi faqat haqiqatni aytishi kerak. Ishonchsiz yoki yolg'on gapirmasligi lozim.

Misol: A: Anvar ishga kelibdimi?

B: Ha, men uni ko'rdim. (Haqiqatni bildirgan javob.)

B: Ha, u kelgan bo'lishi mumkin. (So'zlovchi aniq bilmasa ham, taxminni fakt sifatida bildirgan, bu sifat maksimasiga zid.)

B: Ha, u ishxonada, hatto bugun yangi mashina ham sotib oldi! (Agar bu yolg'on bo'lsa, maksimalar buziladi.) Sifat maksimasining buzilishi ishonchsizlik yoki noto'g'ri tushunish keltirib chiqarishi mumkin.

3. **Aloqadorlik maksimasiga** rioya qilish (Relation Maxim) – so'zlovchi mavzudan chetga chiqmasligi, gap dolzarb bo'lishi kerak.

Misol: A: Sizning shaxsiy mashinangiz bormi?

B: Men bugun kechqurun kinoga boraman. (Aloqasiz javob, tinglovchiga kerakli axborot bermaydi.)

B: Yo'q, hozircha mashinam yo'q. (Mavzuga mos javob.) Agar aloqadorlik maksimasiga rioya qilinmasa, suhbat mantiqsiz yoki chalkash bo'lib ketishi mumkin.

4. **Uslub maksimasiga** rioya qilish (Manner Maxim) – so'zlovchi mavhum va noaniq gapirmasligi kerak. Tartibli va aniq bo'lishi lozim.

Misol: A: Rahmatulloning bugungi chiqishi qanday bo'ldi?

B: U o'z nutqida turli xil elementlarni birlashtirib, zamonaviy falsafa, san'at va tarixni muvofiqlikda qo'lladi. (Juda mavhum javob, aniq emas.)

B: U juda yaxshi nutq so'zladi, tinglovchilar uni qarsaklar bilan olqishladi. (Qisqa va lo'nda javob.)

Uslub maksimasining buzilishi tinglovchini ortiqcha o'ylashga majbur qiladi va tushunish jarayonini qiyinlashtiradi. Maksimalarning buzilishi va implikatura hosil bo'lishi Graysga ko'ra, so'zlovchi ba'zan maksimalarga ochiqdan-ochiq rioya qilmasligi mumkin. Bunday holatda implikatura, ya'ni bilvosita ma'no yuzaga keladi.

Misol: A: Sizning kurs ishingiz qanday kechyapti?

B: Men juda bandman. (Implikatura: B kurs ishini hali tugatmagan yoki unga vaqt ajratolmayapti.)

Ba'zi tilshunoslar va tadqiqotchilar Grays maksimalariga quyidagi tanqidlarni bildirganlar:

1. Madaniy cheklovlar – barcha jamiyatlarda Grays maksimalari ishlayvermaydi. Masalan, Madakaskar madaniyatida odamlar ortiqcha ma'lumot bermaslik odatiy holat bo'lib, bu miqdor maksimasiga zid.

2. Maksimalarning yetarli emasligi – Grays faqat to'rtta maksima taklif qilgan, lekin muloqot jarayoni bundan murakkabroq.

3. Xushmuomalalik prinsipi (Leech, 1983) – Xushmuomalalik ba'zan maksimalarni buzishni talab qiladi. Masalan, "Sen juda yaxshi gapirding!" deyish odobli, lekin to'g'ri bo'lmasligi mumkin.

4. Relevans nazariyasi (Sperber & Wilson, 1986) – Ushbu nazariya Graysning maksimalaridan voz kechib, faqat bitta asosiy prinsip – relevans (dolzarblik) yetarli deb hisoblaydi.

T

TAG MA'NO – til birliklarining chuqur, yashirin yoki kontekstga bog'liq ma'no qatlamini ifodalaydigan tushuncha bo'lib, u faqat yuzaki (lug'aviy) ma'nogina emas, balki so'zlovchining niyati, kommunikativ vaziyat, tinglovchining interpretatsiyasi va ijtimoiy kontekstga qarab yuzaga chiqadigan semantik mazmunni ham qamrab oladi. Tagma'no nutq jarayonida shakllanadi va ko'pincha pragmatik, referensial yoki kvaziimplikativ ma'no ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan, "Barakalla!" so'zi kontekstga qarab chin dildan berilgan maqtov ham, kinoya bo'lishi mumkin, ya'ni bu yerda asosiy ma'no ostida yashirin tagma'no mavjud. Tagma'no til birliklarining tafakkur va ijtimoiy voqelik bilan o'zaro munosabati orqali yuzaga keladi va bu uning chuqur semantik mohiyatini belgilaydi.

TAQVIMLI BELGILAR – nutq yoki matnda vaqtga oid aniq sanalar, oy nomlari, kunlar, fasllar kabi kalendarga asoslangan birliklardir. Ular pragmatikada deydik xususiyatga ega bo'lib, so'zlovchi va tinglovchining umumiy kontekstual bilimiga tayangan holda ma'no kasb etadi. Taqvimli belgilar yordamida voqea-hodisalar vaqt jihatidan joylashtiriladi, rejalilik, intensionallik va ijtimoiy tajriba ifodalanadi. Masalan, "1-sentyabrda maktablar ochiladi" jumlasida sananing o'zi nafaqat vaqtni bildiradi, balki o'sha sana bilan bog'liq ijtimoiy va madaniy mazmunni ham faollashtiradi. Pragmatik jihatdan bu birliklar muloqotning kontekstual aniqligini, tushunarligini va ishora darajasini oshiradi.

TASHQI PRAGMATIK BELGILAR – til birliklarining yoki nutq strukturasi unsurlarining muloqot jarayonidagi tashqi kontekst bilan bog'liq bo'lgan, kommunikativ vaziyat, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi ijtimoiy munosabat, muhit, madaniy fon kabi omillar orqali shakllanuvchi belgilardir. Ushbu belgilar nutqning qanday sharoitda, kim tomonidan, kimga nisbatan va qanday vazifada qo'llanilayotganini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Tashqi pragmatik belgilar muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy statusi, sotsial masofa, rasmiylik darajasi, muloqotning vaqti, joyi va maqsadi kabi omillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, nutqning shakli va uslubini belgilashga ta'sir qiladi. Masalan, biror murojaat shaklining

rasmiy yoki norasmiy uslubda tanlanishi, salomlashuvdagi variantlar, siz-sen zamirlarining qo'llanishi, iltimos va buyruq shakllari aynan tashqi pragmatik belgilar asosida tanlanadi. Bu belgilar tilning sotsiopragmatik tabiatini ochib beradi va muloqotda tilning kontekstga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

TILNING FUNKSIYALARI – tilning asosiy qo'llanish shakllari va maqsadlari. Tilning asosiy vazifasi muloqotdir degan fikr funksionalizmning negizidir. Ko'pgina falsafiy tadqiqotlar tilning axborotni yetkazish va haqiqat holatlarini ifodalash uchun ishlatilishiga qaratilgan. Nutq aktlari nazariyasi esa tilning boshqa funksiyalariga ham e'tibor qaratadi. Strukturalist tilshunos Roman Yakobson tilning olti funksiyasi borligini ilgari surgan: 1. Referensial (axborot yetkazish) – ma'lumot yetkazish va kontekstga bog'liq bo'lish. 2. Ekspressiv (ifoda qilish) – so'zlovchining hissiyotlarini ifodalash. 3. Konativ (ta'sir ko'rsatish, chaqiruvchi) – tinglovchiga ta'sir qilish va nutq orqali uni yo'naltirish. 4. Fatkik (muloqotni saqlash) – aloqa kanalini o'rnatish va davom ettirish. 5. Metalingvistik (tilni tushuntirish) – tilning o'zini izohlash va tushuntirish. 6. Poetik (badiiy nutq)- tilning estetik jihat va badiiy ifodalari. Yakobson ushbu funksiyalarni aloqa modeli asosida ishlab chiqdi, unda jo'natuvchi, qabul qiluvchi, xabar, aloqa kanali, kod va kontekst asosiy komponentlar sifatida qaraladi. Referensial funksiya ma'lumot yetkazish va kontekst bilan bog'liq, ekspressiv funksiya esa so'zlovchining hissiyotlarini ifodalashga qaratilgan. Konativ funksiya tinglovchiga yo'naltirilgan, fatkik funksiya esa muloqotni saqlashga xizmat qiladi. Metalingvistik funksiya tilni o'zini tushuntirishga mo'ljallangan bo'lsa, poetik funksiya uning estetik va badiiy jihatlariga urg'u beradi.

TINGLOVCHI– nutq aktining qabul qiluvchisi bo'lib, gaplovchining xabarini bevosita yoki bilvosita tushunadigan shaxsdir. An'anaviy tilshunoslikda bu tushuncha faqat og'zaki nutqni tinglovchi shaxsga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, zamonaviy pragmatika bu atamani kengaytirib, yozma nutq, imo-ishora tili va noverbal belgilar orqali axborotni qabul qiluvchilarni ham qamrab oladi. Tinglovchi va murojaat qilingan shaxs farqi pragmatika tadqiqotlarida muhim o'rin tutadi. Murojaat qilingan shaxs nutqning bevosita qabul qiluvchisi bo'lsa, tinglovchi esa har qanday qabul qiluvchi bo'lishi mumkin, jumladan, tasodifan eshitib qolgan shaxs

ham unga kiradi. Shu bois, tinglovchilar to'g'ridan to'g'ri tinglovchi, tasodifiy tinglovchi va konversatsion kuzatuvchi kabi toifalarga ajratiladi. Tinglovchining nutqni tushunish darajasi sotsial munosabatlar, pragmatik taxminlar va madaniy konvensiyalar bilan chambarchas bog'liq. Uning gaplovchining niyatini anglash qobiliyati, kontekstni qay darajada tushunishi va pragmatik inferensiyalar hosil qilishi nutqning to'g'ri yoki noto'g'ri interpretatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin, stahu bois tinglovchi tushunchasi pragmatik intensionallik, kommunikativ samaradorlik va ijtimoiy o'zaro ta'sir kabi masalalarda markaziy ahamiyat kasb etadi.

U

UMUMIY BILIM – nutq qatnashchilarining o'zaro tushunishiga xizmat qiladigan, oldindan mavjud bo'lgan va birgalikda qabul qilingan bilimlar majmuasi bo'lib, uni birinchi bo'lib Robert Stalnaker (1978) ilmiy muomalaga kiritgan. Ushbu tushuncha pragmatika va til falsafasida muloqotning samaradorligini oshirish uchun muhim hisoblanadi, chunki u suhbat davomida presuppozitsiyalar, implikaturalar va kontekstual anglashuvni shakllantiradi. Masalan, suhbat davomida biri "Ertaga 8:00 da uchrashamiz" desa va ikkinchi kishi "Ha, kutaman" deb javob bersa, ular sanani, joyni va vaqt tizimini umumiy bilim sifatida tushunishadi. Xuddi shuningdek, o'qituvchi 'Birinchi prezident haqida gapiramiz' desa, talabalar darhol O'zbekistonning birinchi prezidenti – Islom Karimov haqida so'z ketayotganini tushunishadi. Umumiy bilim pragmatik va kognitiv yondashuvlarda asosiy ahamiyat kasb etib, nutq qatnashchilarining samarali muloqotini ta'minlaydi.

V

VAZIFADOSH DEYKTIK BIRLIKLAR – tilning faqat aniq nutq vaziyatida ishora (deyxis) funksiyasini bajaruvchi, lekin bu vazifasi kontekstdan tashqarida yo'qoladigan birliklaridir. Ular ma'nosini faqat so'zlovchi va tinglovchining umumiy muloqot sharoiti, vaqt va makon koordinatalari ta'minlaydi. Bunday birliklar, masalan, "bu

yer”, “shu yer”, “hozir”, “shu kishi”, “mana bu” kabi soʻzlar boʻlib, ular kontekst mavjud boʻlganda aniq obyekt, joy yoki vaqtga ishora qiladi, biroq kontekstdan ajratilganda ularning referensial maʼnosi noaniq boʻlib qoladi.

VERBAL VOSITA – insonlar oʻrtasidagi muloqotda toʻgʻridan-toʻgʻri til birliklari (soʻz, ibora, gap) orqali amalga oshiriladigan ifoda shakllaridir. Verbal vositalar ogʻzaki va yozma nutqda ishtirok etib, axborot uzatish, savol berish, buyruq, istak yoki baho bildirish kabi turli kommunikativ maqsadlarni bajaradi. Ular grammatik, leksik, semantik va pragmatik jihatdan shakllanadi hamda muloqotning asosiy vositasi hisoblanadi.

VERDIKATIVLAR – nutqiy aktlar orqali soʻzlovchi muayyan shaxs yoki hodisaga nisbatan baho beradi, hukm chiqaradi yoki rasmiy fikr bildiradi. Bu turdagi aktlar koʻpincha sud, yigʻilish, muhokama kabi ijtimoiy kontekstlarda qoʻllanilib, soʻzlovchining ijtimoiy mavqeini, muhokama yuritish huquqiga egaligini bildiradi. Shuningdek, bu aktlar performativ feʼllar yordamida ifodalanadi: “Men seni aybdor deb bilaman”, “Men seni ogohlantiraman”, “Siz buni tushuntirishingiz kerak”.

VOLYUNTATIV FUNKSIYASI – soʻzlovchining tinglovchiga nisbatan harakatga undovchi, uni biror amalni bajarishga yoki bajarmaslikka yoʻnaltiruvchi nutqiy niyatini ifodalovchi funksiyasidir. Ushbu funksiya orqali iltimos, buyruq, maslahat, ogohlantirish kabi illokutsional nutq aktlari amalga oshiriladi. Volyuntativlik direktiv gaplar, modal feʼllar, nutqiy andozalar orqali ifodalanadi va bu til birliklarining pragmatik kuchini namoyon qiladi. Sinonim sifatida buyruq-maqsad funksiyasi yoki direktiv funksiya atamalari ishlatiladi.

X

XARAKTER VA MAZMUN TAFOVUTI – tilshunoslik va mantiqiy semantika doirasida soʻzlarning kontekstga qarab qanday oʻzgarishini tushuntiradigan tushunchadir. David Kaplan taʼkidlaganidek, soʻzning xarakteri uning doimiy, lingvistik maʼnosini ifodalaydi, yaʼni u har qanday kontekstdan qatʼi nazar, umumiy qoida sifatida mavjud boʻladi. Mazmun esa ushbu soʻzning aniq nutq holatida qanday maʼno kasb etishini bildiradi. Masalan,

“ertaga” so‘zi har doim kelasi kungi vaqtni bildiruvchi xarakterga ega, lekin uning mazmuni bugunning sanasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Agar bugun 10-fevral bo‘lsa, “ertaga” so‘zi 11-fevralni anglatadi, lekin 15-martda ushbu so‘z 16-martni nazarda tutadi. Shuningdek, “bu” kabi indeksli so‘zlar ham xarakteri jihatidan umumiy bo‘lsa-da, ularning mazmuni kontekstga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Masalan, “Bu kitob juda qiziqarli” gapida “bu kitob” iborasi kontekstsiz tushunarsiz bo‘lishi mumkin, chunki uning mazmuni suhbat davomida ishora qilingan aniq kitobga bog‘liq. Ushbu farqlanish deysis va indeksik ifodalar tadqiqotida muhim ahamiyat kasb etadi.

XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASI – muloqot jarayonida so‘zlovchi tomonidan tinglovchining ijtimoiy maqomini, shaxsiy chegarasini va ijtimoiy munosabatlarni hurmat qilgan holda til vositalarini tanlab qo‘llashga asoslangan pragmatik tamoyildir. Bu kategoriya P. Braun va S. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan yuz nazariyasi (*Face Theory*) asosida chuqur izohlangan bo‘lib, bunda har bir inson “yuz” (obro‘, sha’n, mustaqillik) degan ijtimoiy obrazni saqlab qolishga intilishi ta’kidlanadi. Xushmuomalalik strategiyalari aynan shu "yuz"ga tahdidni kamaytirish, uni qo‘llab-quvvatlash yoki himoya qilishga xizmat qiladi. Ular tilning tanlovi, nutqning shakli, ohang, oraliq masofa, murojaat shakllari, kinoya, istihola, bilvosita ifoda kabi vositalar orqali amalga oshiriladi. Xushmuomalalik, shuningdek, ijtimoiy rollar, madaniyatlararo tafovutlar va kommunikativ kontekstga mos ravishda yuzaga chiqadi. Pragmatika doirasida bu kategoriya muloqotning samaradorligini, ziddiyatlarning oldini olishni va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlovchi muhim vosita sifatida talqin qilinadi.

XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASI TAMOYILLARI – muloqot jarayonida odoblilik, hurmat va nazokat asosida munosabat bildirishni ta’minlovchi lingvomadaniy hamda pragmatik hodisa bo‘lib, suhbatdoshning “yuz”ini saqlash va ijtimoiy muvozanatni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. J.Lich tomonidan ishlab chiqilgan ushbu kategoriya tamoyillari oltita asosiy qoidani o‘z ichiga oladi: 1) nazokatlilik tamoyili – suhbatdosh manfaatlarini ehtiyotkorlik bilan inobatga olib, odob doirasidan chiqmagan holda mulohaza yuritish, masalan, “Agar sizga qulay bo‘lsa, bu masalani birgalikda ko‘rib chiqamiz” kabi yumshoq ifodalar; 2) saxovat

tamoyili – tinglovchi uchun qulaylik yaratish va uni noqulay holatga solmaslik, masalan, “Agar xohlasangiz, men bu vazifani o‘zim bajarib qo‘yaman” kabi yordam taklif etish; 3) ma‘qullash tamoyili – suhbatdosh fikrlarini qo‘llab-quvvatlash va ijobiy baholash, masalan, “Sizning yondashuvingiz juda foydali ekan” kabi e‘tirof bildiruvchi gaplar; 4) kamtarlik tamoyili – o‘zini ortiqcha maqtashdan tiyilish, masalan, “Bu ish faqat mening emas, jamoamizning mehnati” kabi o‘z rolini kamaytiruvchi ifodalar; 5) rozilik tamoyili – ziddiyatlardan qochish va suhbatdosh bilan kelishishga intilish, masalan, “Men sizning fikringizga qo‘shilaman, ammo qo‘shimcha sifatida shuni aytmoqchimanki...” kabi kelishuv ohangidagi jumlar; 6) xush yoqish tamoyili – suhbatdoshda ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘otish, masalan, “Siz bilan ishlash men uchun katta sharaf” kabi iliq munosabat ifodalovchi iboralar. Ushbu tamoyillar birgalikda muloqotning samimiy, konstruktiv va ijobiy kechishiga zamin yaratadi.

XUSHMUOMALALIK NAZARIYASI – insonlarning jamiyatda ijtimoiy uyg‘unlikni qanday o‘rnatishi va saqlab qolishini o‘rganadi. Masalan, bu turli verbal va noverbal strategiyalarni qo‘llash yoki ijtimoiy nizoga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan gaplardan qochish orqali amalga oshiriladi (Braun va Levinson, 1987). Til orqali ifodalangan xushmuomalalik falsafiy tilshunoslar face (ya‘ni ijtimoiy obro‘) deb ataydigan tushuncha bilan chambarchas bog‘liqdir (qarang: salbiy yuz (negative face), ijobiy yuz (positive face)). Lich (1983) Grays (1975) ilgari surgan Hamkorlik prinsipi (Cooperative Principle) ga o‘xshash tarzda Xushmuomalalik printsipini ilgari suradi. Ushbu printsip muloyimlik, saxiylik, ma‘qullash, kamtarlik, rozi bo‘lish va hamdardlik kabi maksimlarni o‘z ichiga oladi. Xushmuomalalik, shuningdek, kuch (power) va ijtimoiy hokimiyat munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun muloqot jarayonida, odatda, kuchsizroq mavqega ega bo‘lgan insonlar ko‘proq xushmuomalalik shakllaridan foydalanishini kutish mumkin. Biroq, jamiyat ijtimoiy tuzilmasining qat‘iy chekkasida joylashgan odamlar ba’zida jamiyatning xushmuomalalik me’yorlariga amal qilmasligi mumkin. Xushmuomalalik mezonlari esa madaniyatlar yoki mintaqalar orasida farq qilishi mumkin.

YOLG'ON – pragmatik hodisa bo'lib, so'zlovchi o'zi rost emas deb bilgan ma'lumotni ongli ravishda aytadi va tinglovchini noto'g'ri xulosaga olib kelishni maqsad qiladi; bu holat Grays tomonidan ilgari surilgan haqiqatlilik maksimining buzilishi sifatida izohlanadi. Yolg'on semantik jihatdan rostdek tuyulishi mumkin, lekin uning yolg'onligi so'zlovchining niyati va kontekst orqali aniqlanadi. Masalan, o'quvchi vazifasini bajarmagan bo'lsa-da, "Uyda unutib qoldim" desa, bu – ataylab aytilgan yolg'onidir. Pragmatik nuqtayi nazardan, yolg'onning salbiy tomoni – u ishonchga putur yetkazadi, ijtimoiy munosabatlarga tahdid soladi va yuzga (face) zarar yetkazuvchi akt hisoblanadi. Ammo ayrim kontekstlarda yolg'onning ijobiy tomoni ham bo'lishi mumkin: masalan, yolg'on orqali birovning ko'nglini og'ritmaslik, ijtimoiy muvozanatni saqlab qolish yoki noqulay vaziyatni yumshatish mumkin. Shu sababli, yolg'on – faqat axloqiy muammo emas, balki kontekstga bog'liq bo'lgan murakkab kommunikativ strategiyadir.

YUZ – xushmuomalalik nazariyasida, inson jamiyat a'zosi sifatida ega bo'lgan nufuz, hurmat yoki qiyofa "yuz" (face) deb ataladi. Evring Goffman (1966) birinchilardan bo'lib "yuz" (face)ning inson hayotidagi ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslab bergan. Bu yuz inson tana a'zosini emas, balki muloqotda inson tomonidan doimo himoya qilinishi kerak bo'lgan ijobiy o'ziga xoslik, xarakter, obro' va imij ma'nosini anglatuvchi lingvistik termindir. Braun hamda Levinson tomonidan taklif qilingan yuz tushunchasini to'laligacha ma'qullaydilar. Ular yuzni ikki turga ajratdilar: 1) ijobiy yuz; 2) salbiy yuz. O'zbek tilshunosligida A.Shomahmudova, H.Turdiyeva tadqiqotlarida yuz ("face") "hurmat" termini bilan tadqiq etilgan. H.Turdiyeva Braun va Levinson nazariyasiga asoslanib, ular negativ o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji (negative self – respect needs) deganda bosim o'tkazmaslikka bo'lgan ehtiyojdir, pozitiv o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji (positive self-respect needs) deganda ma'qullashga bo'lgan ehtiyoj nazarda tutiladi deya izohlaydi. A.Shomahmudova esa "Ijobiy" hurmat suhbatdoshning ijobiy qiyofasini mustahkamlashga xizmat qiladi, ya'ni so'zlovchi suhbatdoshiga bo'lgan samimiyligini e'tirof etgan holda, u bilan hamfikr ekanligini ifodalaydi.

Samimiyat, iltifot ko'rsatish, ijtimoiy guruh ichidagi vaziyatni hisobga olgan holda konstruktiv muhit yaratish va nizolardan qochish kabi jihatlarni "ijobiy" hurmat namunalari sifatida tavsiflash mumkin. "Salbiy" hurmat esa shaxs avtonomiyasini, ya'ni adresatning shaxsiy makoni va chegaralarining daxlsizligini saqlash zaruratiga urg'u beradi. Nutqiy muloqotda ijtimoiy masofa va noqulaylik mavjudligiga ishora qiladigan, og'ir-bosiqlik, vazminlik, rasmiyatchilik va xushmuomalalik ifodalari "salbiy" hurmat namunalariidandir" deb izohlaydi.

Ko'pincha salbiy yuz terminini tushunishda chalkashliklar bor. Salbiy yuz – bu erkinlik tushunchasi. Ijobiy yuz – o'z-o'zini qadrlash, ma'qullash va yoqtirish tushunchasini ifodalaydi. Salbiy yuz tushunchasini tushunish biroz qiyinroq. Braun va Levinson salbiy yuzni shaxsning o'zining asosiy huquq va erkinliklariga *boshqalar tomonidan to'sqinlik qilmaslik istagi* sifatida belgilaydi.

Z

ZAMON DEYKSISI – harakat yoki voqeaning nutq vaqtiga nisbatan sodir bo'lgan vaqtini belgilovchi kontekstga bog'liq til birliklaridir. U o'tmish, hozirgi yoki kelajakdagi vaqtni bildiruvchi fe'l zamon shakllari va vaqt ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi (masalan: "kecha", "bugun", "ertaga", "hozir"). Pragmatika nuqtayi nazaridan zamon deyksisi nutqdagi voqealar zanjiri va harakatlarning vaqt oralig'ini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. So'zlovchining zamonga nisbatan tutgan nuqtayi nazari orqali xabar berishdagi kommunikativ niyat, vaziyatga mos ma'lumot uzatish va muloqot kontekstida aniq tushunishga erishiladi. Masalan, "Men hozir ketyapman" jumlasini aynan hozirgi vaqtga bog'liq bo'lib, zamon deyksisi orqali so'zlovchining real harakati ifodalanadi. Tilshunos Charlz Fillmor va Stiven Levinson asarlarida zamon deyksisi pragmatikaning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida o'rganilgan, chunki u kontekstual tafakkurni faollashtirib, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida tushunishni ta'minlaydi.

O'

O'ZGARUVCHAN IMPLIKATURA – gapdan chiqarib olinadigan yashirin ma'noning kontekstga bog'liq ravishda o'zgarishi yoki bekor qilinishi mumkinligi. Suhbat jarayonida ba'zi gaplar bilvosita ma'no hosil qiladi, lekin bu ma'no har doim ham qat'iy emas va muayyan sharoitlarda yo'qolishi yoki rad etilishi mumkin. Masalan, “U bugun ishlashga kelmadi” degan gap odatda “U bugun bo'sh” degan implikaturani bildirishi mumkin, lekin agar “U kasal bo'lib qoldi” degan qo'shimcha ma'lumot kiritilsa, oldingi yashirin ma'no bekor bo'ladi. Bu hodisa Grays nazariyasidagi bekor qilinuvchanlik tamoyili bilan bog'liq bo'lib, suhbat ishtirokchilarining muloqotni qanday tushunishini o'zgartirishi mumkin.

SH

SHAXS DEYKSISI – so'zlovchi, tinglovchi va boshqa ishtirokchilarni nutq kontekstida aniqlashga xizmat qiluvchi til birliklaridir. U asosan shaxs olmoshlari (men, sen, u, biz, siz, ular) orqali ifodalanadi va muloqotdagi kim kimga murojaat qilayotgani, o'zini yoki boshqani qanday ko'rsatayotganini bildiradi. Ushbu deyksis nutq jarayonida doimo o'zgarib turadi: “men” bir holatda bir kishini, boshqa holatda esa boshqa kishini anglatishi mumkin, bu esa uni kontekstga bog'liq birlikka aylantiradi. Shaxs deyksisi grammatik vazifasidan tashqari, ijtimoiy masofani, hurmat darajasini va rasmiylikni ham ifodalaydi, shu sababli u pragmatik tahlil uchun muhim vosita hisoblanadi.

SHIFTERLAR – til birliklari bo'lib, ularning ma'nosi doimiy emas, balki nutq kontekstiga bog'liq ravishda aniqlanadi. Bu degani, shifterlar mustaqil holda aniq bir referentga ega emas, balki so'zlovchi kim, u gapni qachon va qayerda aytgan, kimga murojaat qilgan – ana shu shartlarga qarab ma'no kasb etadi. Masalan, “men” so'zi faqat uni aytayotgan kishiga bog'liq holda tushuniladi, “hozir” esa faqat so'zlovchining nutq vaqtiga nisbatan zamonni bildiradi. Shifterlarga shaxs olmoshlari (men, sen, u), vaqt birliklari (hozir, ertaga, kecha), makon ko'rsatkichlari (bu yerda, u yerda) kiradi. Bu atama ilk bor rus-amerikalik tilshunos Roman Yakobson tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u shifterlarni grammatik belgiga ega bo'lgan, ammo ularning haqiqiy ma'nosi faqat muloqot

kontekstida aniqlanadigan birliklar sifatida ta'riflagan. Shifterlar pragmatikaning muhim tushunchalaridan biridir, chunki ularni to'g'ri tushunish va ishlatish so'zlovchining pragmatik kompetensiyasiga, ya'ni muloqotdagi kontekstni anglash va mos ravishda til birliklarini tanlay olish qobiliyatiga bog'liq.

PRAGMALINGVISTLAR

J.L.OSTIN (1911-1960)

J.L.Ostin – ingliz faylasufi va tilshunos, zamonaviy pragmatika nazariyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. U 1911-yil 26-martda Angliyaning Langar (Lancashire) shahrida tugʻilgan. Oksford universitetining Balliol kollejida tahsil olib, keyinchalik shu yerda professor sifatida faoliyat yuritgan. Uning ilmiy ishlari asosan tilning mantiqiy-tahliliy jihatlarini, semantika va nutq amaliyoti (speech act)ga oid boʻlib, pragmatika fanining shakllanishida muhim rol oʻynagan.



Ostin oʻzining eng muhim asari – “How to Do Things with Words” (“Soʻzlar yordamida ish qilish”, 1962) kitobida nutq aktlari nazariyasini asoslab berdi. Ushbu nazariyada u inson nutqini faqat rost yoki yolgʻon deb baholash mumkin emasligini, baʼzi gaplar esa oʻz-oʻzidan biror harakatni bajarishini (masalan, vaʼda berish, buyurish, kechirim soʻrash) taʼkidlaydi. U bu kabi gaplarni “performativ” deb atagan. Ostinning fikricha, bunday bayonotlar maʼlum kontekstual shartlar bajarilgandagina muvaffaqiyatli – yaʼni “felicitous” boʻladi. Agar bu shartlar buzilsa (masalan, soʻzlovchi vakolatsiz boʻlsa yoki adresat mavjud boʻlmasa), nutq akti “infelicitous” – yaʼni samarasiz boʻladi.

Ostin nutq jarayonini tahlil qilishda lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlarni ajratib bergan boʻlib, bu tasnif bugungi zamonaviy pragmatikaning asosiy tushunchalari qatoriga kiradi. Til faqat axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy harakat, deb qaralgan ushbu yondashuv orqali Ostin semantika bilan pragmatika oʻrtasidagi farqni ilmiy asosda belgilab berdi.

ERVING GOFFMAN (1922-1982)

Erving Goffman – kanadalik sotsiolog, XX asr ijtimoiy nazariyotining yetuk vakillaridan biri. U 1922-yil 11-iyunda Kanadaning Alberta viloyatida tug'ilgan. Toronto universitetida tahsil olib, keyinchalik Chikago universitetida sotsiologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ilmiy faoliyatini ruhiy kasallar muassasalaridagi ijtimoiy munosabatlar, stigma, identifikatsiya va kundalik hayotdagi o'zini tutish kabi mavzularga bag'ishlagan.



Goffman 1956-yilda chop etilgan "The Presentation of Self in Everyday Life" ("Kundalik hayotda o'zini namoyon qilish") asarida ijtimoiy muloqotni teatrga qiyoslab, insonlarning ijtimoiy rollarni qanday ijro etishini tahlil qilgan. Uning "Stigma" (1963), "Interaction Ritual" (1967) va "Frame Analysis" (1974) nomli asarlari sotsiologiyada yangi nazariy yo'nalishlar uchun asos bo'lgan.

Pragmatika faniga qo'shgan hissasi bilan Goffman ayniqsa e'tiborga loyiq: u tilning ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishini tahlil qilib, "face" (yuz) va "face-work" (yuzi bilan ishlash) tushunchalarini ilmga kiritgan. Bu nazariyalar xushmuomalalik strategiyalariga oid zamonaviy pragmatik tadqiqotlar, ayniqsa Brown va Levinson modelining shakllanishiga asos bo'lgan. Shuningdek, uning "interaction order" va "frame" (kadr) konsepsiyalari kontekst, relevansiya, interpretatsiya va sotsiopragmatika yo'nalishlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

U 1968-yildan boshlab Pensilvaniya universitetida professor bo'lib ishlagan va 1981-yilda Amerika Sotsiologik Assotsiatsiyasiga rais etib saylangan. Goffman 1982-yil 19-noyabrda vafot etgan.

PAUL GRAYS

(1913-1988)

Herbert Paul Grays – ingliz faylasufi va tilshunosi bo'lib, zamonaviy pragmatika fanining asoschilaridan biri hisoblanadi. U 1913-yil 13-martda Angliyaning Harborne (Birmingham) shahrida tug'ilgan. Oksford universitetida tahsil olgan va keyinchalik Kaliforniya universiteti (Berkeley)da professor bo'lib ishlagan. Uning ilmiy izlanishlari asosan til va ma'no, muloqot, semantika, mantiq va anglash mexanizmlariga bag'ishlangan.



Grays til birliklarining faqat semantik mazmuni emas, balki nutq kontekstidagi ma'nosi bilan ham shug'ullangan. U tilshunoslikda so'zlovchi maqsadi (speaker meaning) va lingvistik ma'no (sentence meaning) o'rtasidagi farqni asoslagan. 1975-yilda olim Hamkorlik tamoyili (*Cooperative Principle*)ni ilgari surdi va unga asoslangan holda to'rt suhbatdoshlik maksimasini ishlab chiqdi. Ushbu maksimlar quyidagilardan iborat: 1. Quantity Maxim – Miqdor maksimasi: Zarur bo'lgan darajada axborot bering; yetarlicha, ammo ortiqcha emas; 2. Quality Maxim – Sifat maksimasi: Rost gapiring; dalilsiz yoki yolg'on ma'lumot bermang; 3. Relation Maxim – Moslik (munosiblik) maksimasi: Aytilayotgan gap mavzuga doir va dolzarb bo'lsin; 4. Manner Maxim – Uslub (tartib) maksimasi: Aniq, lo'nda, chalkashtirmasdan, tushunarli shaklda ifoda eting.

U bu maksimlar orqali bilvosita ma'no (implicature) qanday hosil bo'lishini tushuntirib berdi. U konversatsion implikatura va konventsional implikaturani farqlab, muloqotda aytilmagan ma'nolar qanday qilib kontekst orqali tushunilishini izohladi.

Shuningdek, Grays kodlangan va kodlanmagan, shartli va shartsiz mazmun (truth-conditional / non-truth-conditional, encoded / non-encoded) turlarini farqlab, semantika va pragmatika o'rtasidagi farqlarni aniqlashtirishga katta hissa qo'shdi.

Grays 'ning asarlari, jumladan "Studies in the Way of Words" (1989), uning eng muhim nazariy qarashlarini o'z ichiga oladi. Unda 1967-yilda o'qigan mashhur William James ma'ruzalari ham jamlangan. Uning ishlari keyinchalik Dan Sperber va Deirdre Wilson tomonidan ishlab chiqilgan Relevansiya nazariyasi (1986) uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Paul Grays 1988-yil 28-avgustda vafot etgan. Uning ilmiy merosi, ayniqsa muloqotdagi anglash, bilvosita ma'no, kontekst va inferens bilan bog'liq nazariyalari bugungi zamonaviy pragmatikaning poydevorini tashkil etadi.

ROBIN TOLMAX LAKOFF (1942-yilda tug'ilgan)

Robin Tolmax Lakoff-amerikalik tilshunos, feministik lingvistika, sotsiolingvistika va pragmatika sohalarining yetuk vakili hisoblanadi. U 1942-yilda AQShda tug'ilgan. Bakalavr darajasini Massachusetsdagi Mount Holyoke kollejida olgan, doktorlik darajasini esa 1967-yilda Harvard universiteti tarkibidagi Radcliffe kolleji orqali himoya qilgan. Lakoff ilmiy faoliyatining katta qismini Kaliforniya universiteti (Berkli)da professor sifatida olib borgan.



Lakoff tilshunoslikka feministik nuqtayi nazarni birinchi bo'lib ilmiy asosda tatbiq etgan olimlardan biridir. U ayniqsa til va gender o'rtasidagi munosabat, ayollar tili, ijtimoiy kuch va muloqot, xushmuomalalik va ijtimoiy identifikatsiya, nutqdagi zaiflashtiruvchi strategiyalar (hedging, tag questions, mitigation) kabi mavzularni o'rganishga ixtisoslashgan. Uning 1975-yilda chop etilgan "Language and Woman's Place" ("Til

va ayolning mavqei”) nomli asari hozirda feministik tilshunoslikning klassik manbasi hisoblanadi. Ushbu kitobda Lakoff ayollar tilida ko‘proq noaniqlik, haddan ziyod xushmuomalalik, grammatik mukammallikka intilish va tag-so‘roqlar mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu nutqiy xususiyatlar ayollarni ijtimoiy jihatdan zaiflashtiruvchi, erkaklar esa til orqali hukmronlik qiluvchi sub’yekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv o‘sha davrda anchayin radikal bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik feministik diskurs tahlili uchun nazariy asos sifatida keng qo‘llanila boshlandi.

Olim pragmatika va sotsiolingvistika doirasida til va hokimiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur tahlil qilgan. U bu g‘oyalarini “Talking Power” (1990) va “The Language War” (2001) asarlarida batafsil ochib bergan. Ayniqsa “The Language War” kitobida Lakoff til orqali jamiyatdagi ixtiloflar, ideologiyalar va siyosiy retorika qanday ifodalanishini yoritgan. Unda jurnalistika, siyosat, gender va madaniyatga oid tilning vositachilik vazifasiga alohida e’tibor berilgan.

U nafaqat til va genderni oid masalalarni, balki xushmuomalalik nazariyasi, pragmatik strategiyalar, stilistik kamuflyaj, bilvosita ifoda, kontekstual kuch munosabatlarini ham tahlil qilgan. U Graysning implikatura nazariyasini gender kontekstida qayta talqin qilgan holda, ayollar nutqida bilvosita ifoda ko‘proq qo‘llanishini ijtimoiy kuch tengsizligining belgisi sifatida talqin etgan.

STIVEN LEVINSON
(1947-yilda tug‘ilgan)

Stiven Levinson – zamonaviy pragmatika fanining yetakchi vakillaridan biri bo‘lib, u ayniqsa tilning kontekstual ishlatilishi, xushmuomalalik, implikatura, muloqot strategiyalari va madaniyatlararo farqlarni tahlil



qilish bo'yicha chuqur ilmiy izlanishlari bilan tanilgan. U 1947-yilda tug'ilgan, bakalavr darajasini Oksford universitetida olgan, doktorlik ilmiy ishini esa London universitetining Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabida (SOAS) himoya qilgan. Ilmiy faoliyatining katta qismini u Germaniyaning Leyptsig shahrida joylashgan Maks Plank evolyutsion antropologiya institutida Til va muloqot bo'limi rahbari sifatida o'tkazgan.

U tilshunoslikda ayniqsa pragmatika fanining nazariy asoslarini yaratishda va bu sohani mustaqil yo'nalish sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynagan. U Pol Graysning kooperativ prinsip va implikatura haqidagi g'oyalariga asoslanib, ularni empirik asosda kengaytirgan. Levinsonning eng mashhur asari Penelopa Braun bilan hamkorlikda yozilgan "Politeness: Some Universals in Language Use" (*"Xushmuomalalik: Til ishlatishdagi ba'zi universallar"*, 1987) bo'lib, u Goffmanning "face" (yuz) tushunchasini rivojlantirgan va pozitiv hamda negativ xushmuomalalik strategiyalarini taklif qilgan. Mualliflar ushbu model orqali turli madaniy kontekstlarda yuzaga keluvchi ijtimoiy muomala va til ishlatilishidagi xushmuomalalik usullarini tahlil qilgan.

Ushbu nazariya sotsiopragmatika doirasidagi tadqiqotlar uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qilgan. Kitob dastlab 1978-yilda Esther Gudining "Questions and Politeness" (*"Savollar va xushmuomalalik"*) nomli tahririy to'plamida bosilgan maqola asosida paydo bo'lgan bo'lsa-da, 1987-yildagi to'liq shakli uni global miqyosda tilshunoslar e'tiboriga olib chiqqan.

Levinson 1983-yilda "Pragmatics" (*"Pragmatika"*) nomli umumiy sharhga asoslangan kitobini chop etgan. Ushbu asar bugungi kunda ham pragmatika fanining asosiy darsliklaridan biri hisoblanadi. Unda u deysis (ishora vositalari), presuppozitsiya, nutq aktlari, kontekst, implikatura, va muloqot strategiyalarini izchil va tizimli tarzda tahlil qiladi. Ayniqsa, bu kitobning Grays nazariyasi asosida tuzilgan bo'limlari zamonaviy pragmatik tadqiqotlarda qo'llaniladigan uslubiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

SAFAROV SHAXRIYOR SAFAROVICH

(Filologiya fanlari doktori, professor)

Safarov Shaxriyor Safarovich 1946-yil sentabr oyida Samarqand viloyati Urgut tumanida tug'ilgan. 1968-yilda Samarqand davlat universiteti chet tillar fakultetini a'lo baholar bilan tamomlab, "Ingliz filologiyasi" kafedrasida o'qituvchilik faoliyatini boshlagan. 1970–1972-yillarda Leningraddagi Tilshunoslik institutida stajirovka o'tab, 1976-yilda "Qadimgi ingliz tilidagi prefiksli fe'llarning boshqaruv tizimi" mavzusida



nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1991-yilda Sankt-Peterburg universitetida "Nutqiy muloqotning etnosotsiopragmatik tizimi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, 1993-yilda professor unvonini olgan.

Sh.Safarov 1976–1992-yillarda Sadriddin Ayni nomidagi pedagogika institutida, 1992–2005-yillarda esa Samarqand davlat universitetida faoliyat yuritgan. U universitetda xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor, kafedra mudiri va markaz direktori lavozimlarida ishlagan, xorijiy oliygohlar bilan ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'ygan. 2005–2012-yillarda Samarqand davlat chet tillar instituti rektori sifatida faoliyat yuritib, yangi tillar yo'nalishlari (italyan, ispan, yapon, xitoy, arab tillari va tarjimashunoslik)ni ta'lim jarayoniga kiritgan.

U ilmiy rahbar sifatida 60 dan ortiq magistr, 38 ta fan nomzodi va 10 dan ortiq fan doktori tayyorlagan. 300 dan ziyod ilmiy ishlar, jumladan "Kognitiv tilshunoslik" (2006), "Pragmalingvistika" (2008), "Semantika" (2013), "Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari" (2019) kabi monografiyalar muallifi. Shuningdek, u "Tilshunoslik terminlari lug'ati / A Dictionary of Linguistics" (2023) asari bilan ham tanilgan.

MUHAMMADJON HAKIMOV
(*Filologiya fanlari doktori, professor*)

Muhammadjon Hakimov 1962-yil 16-fevralda Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. 1979–1983-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi Farg'ona davlat pedagogika instituti (hozirgi Farg'ona davlat universiteti) filologiya fakultetida tahsil olgan. 1989-yildan boshlab mazkur oliygohda faoliyat yuritib, 1990 – 1993-yillarda aspiranturada, 1997–2000-yillarda doktoranturada o'qigan. U 1994-yilda professor



M.Mukarramov rahbarligida “O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari” mavzusida nomzodlik, 2001-yilda esa professor A.Nurmonov rahbarligida “O'zbek tilida matnning pragmatik talqini” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 2011-yilda dotsent, 2021-yilda professor ilmiy unvonlariga sazovor bo'lgan.

Tilshunos olim o'zining sermahsul ilmiy faoliyati davomida Farg'ona davlat universitetida o'qituvchi, kafedra mudiri, filologiya fakulteti dekani (2004-2007), ilmiy ishlar bo'yicha prorektor (2015–2018) lavozimlarida faoliyat yuritgan. U universitet va O'zbekiston Fanlar akademiyasi o'rtasida ilmiy hamkorlikni keng yo'lga qo'ygan, ko'plab yosh tadqiqotchilarga ilmiy yo'l-yo'riq bergan. Olim 3 ta monografiya, 1 ta darslik, 10 dan ortiq o'quv qo'llanma, 200 dan ortiq ilmiy maqola muallifi. Asosiy asarlaridan: “O'zbek tili pragmatikasi” (2011), “O'zbek pragmalinglestikasi asoslari” (2013), “Pragmalinglestik tadqiqotlar tarixi” (2020), “Pragmalinglestika kursiga kirish” (2020), “Nutqiy aktlar nazariyasi” (2020). Shuningdek, M. G'ozieva bilan hammualliflikda yozilgan “Pragmalinglestika asoslari” (2020) darsligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan rasmiy darslik sifatida tavsiya etilgan. Uning ilmiy maqolalari nafaqat respublika, balki xalqaro nashrlarda ham chop etilgan, ayrim ishlari *Scopus* bazasida indekslangan.

Professor Hakimov ilmiy maktab yaratgan bo'lib, uning rahbarligida bir fan nomzodi, 10 dan ortiq falsafa doktori (PhD) va 4 fan doktori (DSc) yetishib chiqqan.

U Farg'ona va Qo'qon davlat universitetlari huzuridagi ilmiy kengashlarga raislik qiladi, O'zbekiston Milliy universiteti va Fanlar akademiyasi qoshidagi ilmiy kengashlar a'zosi. O'zbek tili va tilshunosligini rivojlantirish, davlat tili maqomini mustahkamlash, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni kuchaytirish yo'lida katta hissa qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baker P., Ellege S. Key Terms in Discourse Analysis. – London; New York: Continuum, 2011. – 234 p.
2. Brown P. and Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 pp.
3. Buzrukova M. Iltimos Nutqiy aktining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o'zbek materiallarida). Filol. fan. doktori (phd)...diss. – Smarqand, 2021. – B.169.
4. Culpeper J. Historical Sociopragmatics. – USA: John Benjamins Publishing Company, 2011. – 132 pp.
5. Haugh M., Daniel Z. Kadar. Marina Terkourafi, The Cambridge Handbook of Sociopragmatics. New York: Cambridge university press, 2021. – 700 pp.
6. Ibrogimova E. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositlari: filol.fanlari nomz. ... diss. – Farg'ona, 2001. – B. 47
7. J. Petre, The Sociopragmatics of Stance. Amsterdam, Philadelphia: [John Benjamins Publishing Company](#), 2021. – 246 pp.
8. Jesüs Romero Trillo, Yearbook of Corpus Linguistics and Pragmatics. – Spain: Springer International Publishing Switzerland, 2016. – 430 pp.
9. Kasper G. and Blum Kulka S. (Eds.) Interlanguage pragmatics. – New York: Oxford University Press, 1993. – Pp. 265.
10. Kate Beeching, Helen Woodfield. Researching Sociopragmatic Variability. – USA: Palgrave Macmillan, 2015. – 35 pp.
11. Mills S. Gender and Politeness. – New York: Cambridge University Press, 2003. – 278 pp.
12. Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni. Toshkent: Bookmany print, 2023. – 190 b.
13. Mahkamov N. Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, –2013. – 180 b..
14. Marmaridou S. Pragmalinguistics and sociopragmatics. – New York: Cambridge University Press, 2003. – Pp. 250.
15. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Turon – Iqbol, 2006. – 246 b.

16. Ruziyeva N. Ingliz va badiiy diskursi dinamikasida xushmuomalalik strategiyalarining shartlanishi: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD)...avtoref. – Buxoro, 2024. – B. 48.
17. Rahardi K. Sosiopragmatik. Jakarta: Erlangga, 2009. – 376 pp.
18. Rasulov Q. O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref – Toshkent, 2008. – B. 10.
19. Shomaxmudova A, Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqealantiruvchi sotsiopragmatik omillar: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) ...diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 14.
20. Satriani, S. Hum., M.Pd. Discourse analysis. – Indonesia / Pekalongan, Jawa tengah: Penerbit NEM, 2021. – 270 pp.
21. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va bosh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. – 534 b.
22. Seiwald R. The Importance of Face in "Politeness Theory". – Germany: [GRIN Verlag](#), 2011. – 428 pp.
23. Yo'ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. – Qarshi: Intellect, 2022. – 240 b.
24. Yorova S. Ingliz va o'zbek tibbiy nutqining ijtimoiy, madaniy xususiyatlari. – Samarqand: Fan bulog'i, 2024. – 180 b.
25. [Abdul Aziz](#). Sosiopragmatik Politik: Kajian Sosiopragmatik Dalam Debat Pilkada. Indonesia: [Syiah Kuala University Press](#), 2022. – 380 pp.
26. Adanboyeva N. Ingliz va o'zbek tillarida xushmuomalalik kategoriyasining aksiolingvistik tahlili: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) ...diss. avtoref.– Farg'ona, 2024. B. 55.
27. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 212 б.
28. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 140.
29. Кахаров К. Ўзбек ва немис нутқий этикетлари. – Фарғона: Classic, 2022. – 228 б.
30. Маткаримова А.И. «Хурмат» семантик майдонини ташкил этувчи тил воситаларининг лингвопрагматик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Филол. фан. доктори (PhD) ...дисс. – Андижон, 2021. – Б. 147.

31. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-
лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари дри...дисс. – Тошкент,
2000. – Б. 235.
32. Odinayev B. O'zbek nutqiy muloqotning lingvopragmatik
xususiyatlari (Erkin A'zam asarlari misolida): Filol. fan. bo'yicha
falsafa dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2024. – B. 54.
33. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi. – Toshkent:
Fan, 2006. – 358 b.
34. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320
б.
35. Сафаров Ш.Г. Тоирова Нутқнинг этносоциопрагматик
таҳлили асослари. – Самарқанд, 2007. – 68 б.
36. Содиқова Ш.Б. Ўзбек тилида ҳурмат категорияси.
Монография. – Тошкент, 2010. – 128 б.
37. Xudoyberdiyeva D. Matnning antroposentrik tadqiqi. –
Toshkent: Fan, 2013. – 255 b.
38. Xolova M. Ingliz va o'zbek badiiy asarlarida xushmuomalalk
kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari:
monografiya. – Buxoro, 2023. – 166 b.
39. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –
Тошкент, Академнашр: 2013. – 576 б.
40. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини:
Филол. фанлари доктю ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 265.
41. Ҳакимов М., Ғазиева М. Ўзбек прагмалингвистика
асослари. – Тошкент: Академнашр, 2020. – 201 б.
42. Ҳожиёва Ҳ.Я. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг
лисоний нутқий хусусияти. Филол. фан. номз. ...дисс. –
Самарқанд, 2001. – Б.150.

MUNDARIJA:

So'zboshi.....	3
A.....	4
B.....	8
D.....	11
E.....	16
F.....	21
G.....	22
H.....	23
I.....	24
K.....	34
L.....	48
M.....	52
N.....	65
O.....	70
P.....	70
Q.....	82
R.....	83
S.....	87
T.....	92
U.....	95
V.....	95
X.....	96
Y.....	98
Z.....	100
O'.....	100
Sh.....	101
Prangmalingvistlar.....	102
J.L.Ostin.....	102
Evring Goffman.....	103
Paul Grays.....	104
Robin Tolmax Lakoff.....	105
Stiven Levinson.....	106
Shaxriyor Safarov.....	108
Muhammadjon Hakimov.....	109
Foydalanilgan adabiyotlar	111

UO'K: 808.561(=111)

M.Yuldosheva
“Pragmalingvistik terminlarning izohli lug’ati”
Uslubiy qo’llanma

Bosishga ruxsat etildi: 11.11.2025-yil
Bichimi 60x84 1/16, « Cambria » garniturası.

